

**ERDAL DEMIRKIRAN**

# **FAQAT AHMOQLARGINA SAKKIZ SOAT UXLAYDI**

**TARJIMONLAR:**

**DILFUZA VOHIDOVA**

**MAFTUNA MAHMUDJONOVA**

**Sendagi o‘zimga bag‘ishlovimdir...**

**Muvaffaqiyatli insonlar kam  
uxlamaydilar, kam uxlagan insonlar  
muvaffaqiyatga erishadilar.**

**“Muqaddima o‘qilmaydi!” deb kim aytdi?**

**Ignaning teshigidan bir tuyani o‘tkazdilar.  
Ignaning teshigi o‘sha o‘zimiz bilgan  
ignaning teshigi edi, ammo tuyaning  
beshta o‘rkachi bor edi...**

## 1-bob

### UYG'ONISH

Kendinning yuziga kutilmagan tarsaki kelib tushganida quyoshning chiqishiga hali bir soat bor edi. Jin chalgandek yotog'idan sapchib turdi. Yotog'i oldida katta, ajoyib bir odam Kendinga qarab kulimsirab turardi. Sochlari o'ta g'ayritabiiy bo'lib, har bir tolasi go'yo kamondan uchib chiqishga shay turgan o'qqa o'xshardi. Kiyimi esa toshbaqaning kosasini esga solardi. Oyoqlari yo'q deydigan darajada kichik, qo'llari esa aksincha, nihoyatda katta edi. Go'yoki, biroz avval Kendinning yuziga tushgan shapaloq ayni shu g'alati odam jimjilog'ining ishi edi. Nima bo'lganini anglay olmagan Kendin o'ziga kelgach, tarsaki ta'siri ostida qo'rqqancha ikkilangan ko'yi so'radi:

- Menga nima bo'ldi?

- Qo'rqma, xavotirli narsa emas, seni shunchaki jin chaldi!, - dedi bahaybat qo'lli, mitti oyoqli odam. Insonni dahshatga soladigan bu javobdan Kendin o'zini yo'qotib qo'ydi.

- Jin?! Qanaqa jin?, - dedi Kendin asabiy, hayron va qo'rqqan holatda.

U g'alati odam mitti oyoqlarini xuddi bir baleron kabi mohirlik bilan o'ynatar, havoda go'yo pichoqning ustida aylanayotgandek aylanar, so'ngra birdan to'xtab, so'zlashda davom etardi:

- Men jinman. Haligi bor ediku, "Mendan nima tilasang, tilagingni bajo keltiraman" deydigan jin. Hah, mana o'sha menman!

Kendin dovdirab qoldi. Jin ekanini aytgan bu g'ayritabiiy maxluq so'zlashda davom etdi:

- Hozir, mendan nima tilasang, tila. Birgina imkonning bor; ammo shunday bir narsa so‘raginki, o‘zing aslo qila olmaydigan ish bo‘lsin!

Kendin quvonib ketdi, chunki, bu ko‘plab insonlar kutadigan, ammo nodir holatlardagina taqdim qilinadigan shohona taklif edi. Ammo kutilmaganda uning butun ezgu tuyg‘ulari haqlik da’vosi va hirs sezilib turgan bir munosabatga aylandi va Jinga shunday dedi:

- Bilishimcha, bunday holatda uchta imkon berilardi. Bu adolatsizlik emasmi?

Jinning ko‘z qarashlari o‘zgardi.

- Biroz avval yo‘q edim, endi esa borman. Shu onda qarshingda hayotingni o‘zgartirish imkoniyati turibdi. Sen esa men bilan savdolashib o‘tiribsan. Sen qanday ajoyib maxluqotsan o‘zi? Yana takrorlayman: Birgina imkoniyating bor. Sen bilan tortishib o‘tirmayman. Agar istagan narsang o‘zing bajara oladigan bir narsa bo‘lsa, bilib qo‘y, bajarmayman. Uy, mashina, pul-mul tilash yo‘q, bilasan!

Kendin hijolat tortdi. Jinning bu so‘zlari qarshisida hijolat tortgan ko‘yi o‘zini himoya qila boshladi:

- Menga ham adolat qil, axir! Sen kelding, meni shirin uyqudan uyg‘otding, yetmaganiga uni so‘rama, buni so‘rama deb bir dunyo shart qo‘yayapsan.

Jin menga nima degandek bir harakat bilan:

- O‘zing bilasan. U holda ketaman!, - dedi.

Kendin shoshilganicha o‘rnidan sakrab turdi.

- To‘xta, to‘xta!.. Bu men uchun ulkan imkoniyat. Dovdirab qoldim. Biroz o‘ylab ko‘rishimga imkon ber, iltimos!, - deya

insonga xos mohirona bir hiyla qo‘lladi. So‘ngra Jin yana ortiga qaytdi.

Kendin o‘ylarkan, Jin ham insonning nafsi aslo to‘ymasligi, doimo eng afzalini talab qilsa-da, hijolat chekmasligi haqida xayol surardi. Kendin ovozini chiqarib o‘ylashni afzal ko‘rdi. Maqsadi Jinning munosabatini bilish va xatoga yo‘l qo‘ymaslik edi.

- Uy bo‘lmaydi, mashina ham, pul ham... Kuch desam ishonchim komilki, u ham bo‘lmaydi. Nima so‘rasam ekan?

Jinning nimagadir ishora berish niyati yo‘q edi. Biroq go‘yo asrlar davomida ichida saqlagan bir dardi boru, uni oldidan chiqqan ilk insonga to‘kib solishga tayyordek bir kayfiyatda edi.

- Har safar sizlar bilan yuzlashganimda ayni shunday narsalarni istaysiz. Doim ko‘p pulim bo‘lsin, deysiz. "Bunchalik katta pulni nima qilasan?" desam, javob bera olmaysiz. Hech biringizda muayyan bir maqsad yo‘q. Hozir "100 million dollaring bo‘lsa, nima qilarding?" deb so‘rasam, aniqki, javob berolmaysan. Shunga qaramay, negadir har safar xayolingizga ilk keladigan narsa yana "pul" bo‘ladi.

Kendin moddiy bir narsa so‘ray olmasligini anglab yetgandi. Quvonchdan baland ovozda hayqirib yubordi:

- Topdim. Umrinni uzaytir!

Jin vaqtni boy bermay qaytib so‘radi:

- Senga yana bir umr bersam yetadimi?

Yo‘l-yo‘l moviy pijama kiygan, quvonchdan ko‘zlari porlab o‘rnidan sakrab turgan Kendinning sevinchi ko‘rishga arzigulik edi, rosti!

- Albatta! Ortig‘i bilan yetadi, - dedi.

Jin xonada uyoqdan buyoqqa yurarkan:

- Ishonching komilmi?, - deb so‘radi.

Kendinning qarori qat’iy edi.

- Ha, albatta...

Jin:

- Afsusdaman! Imkoniyatingni boy berding. Yodingda bo‘lsa, "Sen o‘zing uddasidan chiqa olmaydigan bir narsani so‘ra!", degandim, - dedi.

Kendin nima deyishini bilmay kalovlanib qoldi.

- Hoy, bir daqiqa! Bu men aslo uddasidan chiqa olmaydigan ish. Yaxshi tushunmading shekilli, umrimni uzaytirishing haqida gapiryapman, - dedi. Jin xotirjamlik bilan so‘radi:

- Yoshing nechada?

- 30 da, - dedi Kendin.

- Ya’ni 5, - Kendinning jumlasini to‘g‘riladi Jin. "Ko‘ramiz, ikkinchi savolimga qanday bo‘lmag‘ur javob berar ekansan?" deb o‘ylayotgandek bir qiyofada bosh chayqadi, so‘ngra ikkinchi savolga o‘tdi:

- Insonlar o‘rtacha necha yil yashaydilar?

- 60, - javob berdi Kendin.

- Ya’ni 10, - yana to‘g‘riladi Jin. Kendin go‘yo matematika o‘qituvchisi o‘quvchisiga tanbeh berganidek Jinni malomat qila boshladi:

- Sen qanaqa Jinsan o‘zi? Yoki karmisan? 30 desam, 5 deysan; 60 desam yana 10 deysan...



Jin esa ustozidan eshitgan ta'nalarga e'tibor bermagan isyonkor o'quvchi misoli "Menga sening keraging yo'q!" degandek ma'noni yuzida ifoda etarkan, Kendinga bir taklif berdi:

- Men aslida, kar emasman, shunchaki, sen hisoblashni bilmaysan. Xohlasang, birga hisoblaymiz.

Kendin o'zining haq ekaniga aslo shubha qilmasdan jimgina Jinni tinglardi. Jin davom etdi:

- Bolalik chog'ing 15 yil. Hozir so'rasam, bir narsani eslolmaysan. Yolg'onmi?

- To'g'ri, - dedi Kendin, bu hisobni qayerga ketganini taxminan chamalab.

- 15 yilni mayda-chuyda, kerak bo'lmagan ishlarga sarflaysan, - so'zlarida davom etdi Jin. Kendin Jindan bu mayda-chuyda ishlar deganda nimani nazarda tutayotganini so'radi. Jin to'xtagan joyidan o'sha tezlikda so'zlashda davom etdi:

- Ya'ni, ahmoqona teledasturlar, virtual olamdagi hayot, bo'lmag'ur o'yinlar, befoyda suhbatlar, samarasiz tortishuvlarni nazarda tutyapman. Umumiy 30 bo'ldi.

- Xo'sh?, - dedi Kendin.

- Har kunning 8 soatini esa uyquda o'tkazasan, ya'ni, kunning uchdan bir qismini... Bundan kelib chiqadiki, sen yashagan 60 yilning 20 yili uyquda o'tadi. Biroz avvalgi yashamagan yoki yashadim deb taxmin qilgan 15 yilingni bunga qo'shsak, 50 bo'ladi. Umumiy 60 edi. Xo'sh, 60 dan 50 ni ayirginchi, qancha qoladi?

Kendin javob bermadi. Jinning o'zi natijani aytishini kutdi. Jin ham kuttirmay savoliga o'zi javob berdi:

- 10... Aytmoqchimanki, sen 60 yillik umringning bor-yo'g'i 10 yilinigina yashaysan. 30 ga 5, 60 ga 10 deyishimning sababi ham

shu edi. Bundan kelib chiqadiki, men kar emasman, sen hisoblashni bilmaysan.

Ammo Kendin Jinning bu soʻzlari bilan oʻzi istagan narsa oʻrtasida biror bogʻliqlikni koʻrmadi.

- Yaxshiku-ya, ammo bularni mening umrimni uzayishi bilan nima aloqasi bor?, - deya sodda qishloq bolasidek soʻradi. Jin xuddi shu savolni kutgandek, izoh bera boshladi:

- Hozir tushuntiraman: Hozir sen barcha oddiy insonlar kabi 8 soat emas, balki 4 soat uxlasang, har kun uchun 4 soat qoʻshimcha vaqt yutasan. Bu yigʻilib 60 yillik umringning yana 10 yilini tashkil etadi. Shunday qilib, 60 yil ichida yashagan 10 yilingga buni qoʻshsang, 20 yil boʻladi. Yaʼni, ikki insonning umri. Sen mendan shu narsani, ikki inson umrini berishimni soʻraganding. Koʻrdingmi? Bu oʻzingning qoʻlingdan keladigan ish. Mayli, men ketdim.

Kendin bor-yoʻgʻini qimorda boy bergan omadsiz oʻyinchi singari:

- Shoshma, ketma. Men 4 soat uxlasam, oʻlib qolaman. Oʻzi 8 soatda zoʻrgʻa oʻzimga kelaman, - dedi.

Jin toʻxtamadi. Gʻoyib boʻlish uchun katta tezlikda aylana boshladi.

Kendin goʻyo Jin oʻzining ogʻriqli bir yeriga tegib ketgandek siniq ovozda:

- Toʻxta, dedim. Bunday ketib qola olmaysan. Sen meni aldading, bergan soʻzingda turmading. Kelishuvimizni esla! Agar istagan narsam oʻzim uddalay oladigan bir ish boʻlsagina, uni bajarmas eding... Soʻragan narsamni aslo uddasidan chiqa olmayman. Sen esa ketmoqchisan!, - dedi. Jin tutun ustida turgancha:

- Buni har bir odam qiloladi... Sen ham bir insonsan!, - dedi.  
Kendin Jinni qaytarish maqsadiga qisman bo'lsa-da, erishgandi.

- Ha, balki boshqalarning qo'lidan kelar, lekin gap men haqimda ketyapti. Men aslo uddalay olmaydigan ish bu! Har bir inson yura oladi; ammo ikki oyog'i yo'q inson har qancha istasa ham boshqalardek yura olmaydi. Agar sen mening o'rnimga o'sha insonni uchratsang va u senga "Yurishni xohlayman!" desa, "Barcha insonda oyoq bor. Qani, yur o'zing!" deb aytarmiding? Shumi sening adolating, Jin janoblari?

Jin uy ichida, shiftda, polda, har qayerda aylana yasab, pirildoq singari tez aylanar, Kendin esa go'yo eng tezkor stol tennisi matchini tomosha qilayotgandek uni kuzatardi. Jin bo'yin mushaklarini kuydiradigan darajada boshini tez harakatlantirardi. Kendin qattiq qo'rqib ketdi. Hayotida ilk bor jin bilan yuzlashgan edi. "Uni shunchalik yomon jahlini chiqardimmi?" deb o'ylandi. Balki, birozdan so'ng ulkan bir falokatga uchrar?! Butun jasoratini to'plab:

- Bas, yetar, to'xta! Yolg'onchi!, - deb baqirdi. Jin to'xtadi:

- Nega baqirasan? Sening aytganlaring haqida o'ylayapman. Men sendek shiftga qaragan ko'yi o'ylamayman, harakatlanib o'ylayman!

Kendin qo'rqadigan narsa yo'qligini bilib xotirjam tortdi. Ammo uni qiziqtirayotgan narsa Jinning hozir aytadigan so'zlari edi.

- O'ylab ko'rdim va seni haqli deb topdim. Faqat ortiqcha umid qilma, sen o'ylagandek bo'lmaydi! Men faqat senga buni qanday qilishni o'rgataman. Uyog'i o'zingga havola!

Kendin yengil tortgan, nihoyatda mamnun edi. Faqat Jin fikrini o'zgartirib qolmasidan burun taklifni qabul qilishi kerak:

- Mayli, mayli, sen aytgandek bo'lsin...

Jin turgan yerida 247 marta aylandi. To‘xtaganida esa qo‘lida dunyodagi eng kichik va shohona bankacha bor edi. Ichidagi suyuqlik "Oltin suvi bo‘lsa kerak!" deya gumon qilinadigan bu ajoyib ko‘rinishdagi bankaning qopqog‘ini ochgan Jin uni Kendinga uzatdi va dedi:

- Qani, buni ich!

- Nima bu? Nega ichishim kerak?, - dedi Kendin.

- Ko‘rinmaslik eliksiri. Kichik safarga chiqamiz.

Kendin nima bo‘layotganini tushunmadi. Xayoliga bugun qilishi kerak bo‘lgan ishlari keldi. Kendin kardiolog edi. Qo‘l ostida boshqarishi kerak bo‘lgan kasalxonasi, ko‘rikdan o‘tkazadigan bemorlari, amalga oshiradigan to‘lovlari, hisob-kitoblari va yana o‘nlab ishlari bor edi. Shuncha yumushning orasida bittasi kelib "Men Jinman!" deya unga ko‘rinmaslik taklif qilayotgandi. Biroq uning bu taklifni qabul qilishi, ya’ni, yo‘q bo‘lib qolishi imkonsiz edi. Go‘yo boshini kundaga qo‘yishini taklif etayotgan jallodga e’tiroz bildirayotgandek:

- Yo‘o‘q, aslo bunday qilolmayman!

- O‘zing kabi o‘ylama, Kendin, menga aslo bahona qilma!, - dedi Jin. Kendin Jinning so‘zini kesdi:

- Bir daqiqa! Sen nega men bilan bu ohangda gaplashyapsan? Meni "xo‘jayin" deb chaqirishing kerak.

Jinning xayolidan "Bu avvallari edi" degan fikr o‘tgani kundek ravshan edi.

- To‘g‘ri. Eski zamonlar bo‘lsa edi, senga "Xo‘jayin" deb xitob qilardim. Ammo hozir ko‘rib turibmanki, sen o‘zingga ham xo‘jayinlik qilolmaysan. Ertalablari ko‘rpaga o‘ranib olib, zo‘rg‘a ko‘zlaringni ochasan, kechqurunlari uxlashdan boshqa hech bir ish qilmaysan, o‘zingni ham hurmat qilmaydigan bir bechorasan.

Men 5226 yoshdaman, nimalarni boshimdan kechirmadim!  
Mayli, gapni cho‘zma-da, ich shuni...

Jinning bilgani bor edi. Ko‘rinmas bo‘lish uning uchun muammo keltirib chiqarmaydigandek edi. Kendin o‘z boshlig‘iga ishongan xodim singari Jinning ko‘rimsiz qo‘llarida turgan mitti bankachaga kibor qo‘lini uzatdi.

- Mayli, hech qo‘ymading-qo‘ymading, ichaman u holda!, - dedi va oltin suviga o‘xshash noma’lum suyuqlikni ichdi.

Ko‘zi yotoqning qarshisidagi ko‘zguga tushdi. Kendinning aksi sekin-astalik bilan yo‘qolib borardi. Yuz berayotganlarni hayajon ichra kuzatib turdi. G‘alati bir tuyg‘u edi bu. Bir necha soniya ichida Kendinga qo‘shilib pijamasi ham ko‘rinmay qoldi.

- Xo‘sh, pijamam qanaqasiga ko‘rinmas bo‘ldi?, - so‘radi Kendin. Jin javob berdi:

- Bu xonadan chiqquningga qadar tanangga tegib turgan har narsa ko‘rinmas bo‘ladi. Safarimiz davomida esa hech kim o‘zimiz istamagunimizcha bizni na ko‘roladi va na eshitoladi. Yorug‘lik tezligidan deyarli 2.5 marta tezroq harakatlanamiz. Ammo bu tezlikni senga aloqasi yo‘q. Bu mening karomatim.

Aytmoqchimanki, men yo‘g‘imda aslo o‘zingcha tajribalar qilma. Shuni unutma, sen hamon oddiy bir insonsan. Professional darajada yolg‘on gapira oladigan, muttasil o‘zining haqligini isbotlashga urinadigan, keraksiz joyda mahmadonalik qiladigan, hamma narsani yanglish tushunadigan bechora bir insonsan. Ko‘rinmas bo‘lishingga qaramay, bu odatlaring yo‘qolmaydi. Savollaringni faqatgina o‘zimdanda so‘ra. Aytgancha, men yoningdan ayrilgan ondayoq ko‘rinmasliging poyoniga yetadi, bilib qo‘y!

Endi butun nazorat Jinning qo‘l ostida edi. Kendin ishtirokchisiga aylangan bu holat go‘yo bir o‘yinga o‘xshardi. Jin gapida davom etdi:

- O‘zing kabi bir narsaga qiziqib, uni bilishga urinadigan, bilgandan so‘ng esa bu narsani inkor etadigan tirik jonni ko‘rsata olmaysan. Shu sabab hech kimga va hech narsaga tegishga urinma. Hamma narsani barbod qilasan. Haa, yana safarimiz davomida istasang ham uxlay olmaysan.

Kendin bu holatdan mamnun bo‘ldi. Nima bo‘lsa ham tezroq bo‘lishini istardi.

- Qani, endi menga tushuntir-chi! Bu ish qanday bo‘ladi? Men qanday qilib kam uxlayman? Bu sayohat qayergacha davom etadi, qachon tugaydi? Yoki "ko‘p yashayman" deb umrimni yo‘lda o‘tkazib yuboramanmi?, - deb so‘radi. Jin esa bularni hech eshitmagandek o‘z so‘zida davom etdi:

- Va sabrli bo‘lasan!

Kendinning xayoliga kasalxonada yordamchisi bo‘lib ishlaydigan sevgilisi Ohista keldi.

- Yaxshi, hech bo‘lmasa kasalxonada to‘xtab o‘taylik.

Jinning achchig‘i chiqdi:

- Nega? Bitirishing kerak bo‘lgan ishing bormi?, - deb so‘radi. Shiftning o‘rtasida yana aylanishni boshladi. So‘ngra oynaning yon tarafida to‘xtab:

- Yoki tayyorlashing kerak bo‘lgan biror hujjat bormi?, - dedi.

Har gapidan so‘ng xonaning boshqa-boshqa joylarida turli harakatlar qilgan Jin Kendinga ketma-ket savollar yog‘dirardi:

- Xodimlarning ish haqlari, befoyda majlislar, aksiyalar, ijara haqlari, kreditlar, go‘zal yordamchining jingalak sochlari, yana

umringni behisob sarf etadigan boshqa-boshqa narsalar... O‘z haqiqatingni topishingga to‘siq bo‘lgan minglab narsalar...

Stol ustidagi pechenyelardan birini olib yeyayotgan Kendin Jinni tushunayotgandek kulimsirab qo‘yardi. Jin biroz to‘xtadi:

- Nega sendan so‘rab o‘tiribman o‘zi, qani yur!, - dedi va ulkan qo‘llari bilan Kendinni tutdi. Aylanishni boshladilar va bir zumda yo‘qoldilar. Pechenye shu oradan o‘tib ketayotgan bir chumolining oldiga tushdi, lekin chumoli uni na ko‘rdi va na eshitdi.

## 2-bob

### DUNYONING RANGINI O'ZGARTIRGAN INSON

Titrayotgan Kendin o'zini kenggina bir xonada ko'rdi. Xona shunchalik ajoyib ediki, inson beixtiyor uni tomosha qilishni boshlardi. Avvallari bunday xonani ko'rmagan, eshitmagan edi. Katta devorlarda shunday surat bor ediki, uning surat ekaniga ishonish imkonsiz edi. Go'yo butun devor ko'zgu bilan qoplangan-u, siz ko'rgan va rasm deb o'ylayotgan narsalaringiz qarshisida turib ularni o'zida aks ettirardi. Devorning tugash burchagida qalinroq bir arqon bo'lib, uning bir uchi shiftdagi yog'ochlardan biriga bog'lab qo'yilgandi. Kendin xonada aylanib yurarkan, oyog'i bir narsaga tegdi. Bu haligi arqonning yerga uzangan qismi bo'lib, u xonani diagonaliga qoq o'rtasidan bo'lib turardi. Arqonning boshqa uchi esa narigi tomondagi shiftning yog'ochlaridan biriga bog'langandi. Arqon bilan xonani teng ikkiga bo'lib qo'yishning hikmatini Kendin anglamadi. Xona uni shu qadar o'ziga sehrlab qo'ygandiki, Kendin bir soniyaga o'zining ko'rinmasligini unutdi. Sekingina Jinning qulog'iga egilib, arqonning hikmatini so'radi. Kendinning xuddi kimdir eshitib qolishidan qo'rqib pichirlashini ko'rgan Jin qahqaha otib kulib yubordi.

- Unutib qo'yding, shekilli, hech kimsa bizni ko'rmaydi va eshitmaydi, - deb Kendinni tinchlantirdi. Jin bu yerdagi narsalar hikmatini Kendinning anglashga harakat qilayotganini to'g'ri deb hisobladi. Kendin Jinning aytganini qilib, xonadagi buyumlarni birma-bir tadqiq qilishni boshlab yubordi.

Yerda "gilamlarning eng qadimgisi shunday bo'lsa kerak" degan fikr uyg'otadigan, ammo "koshki, barcha gilamlar ham shunga o'xshasaydi" deyiladigan muhtasham bir gilam bor edi. Unda odatdagi klassik bezaklar yo'q edi. Gilamning arqon ajratib turgan yeridan rasmlil devorga qadar bo'lgan qismi moyli



bo‘yoqlarda qilingan rasmni eslatsa, narigi tarafi geometrik shakllar va matematik belgilardan iborat edi. Kendin ko‘zlarini devordan uza olmasdi. Yengilgina harakat bilan ortga qadam tashlagan edi, nimanidir turtib yubordi. So‘nggi lahzada uni tezlik bilan ushlab qoldi. Bu go‘yo hech kimsaning ko‘zi tushmasligi uchun yuzasi qizil ipak mato bilan berkitib qo‘yilgan bir surat edi. Xonada jami 8 ta rasm bo‘lib, ulardan 5 tasi ayni shu shaklda qizil ipak matolar bilan yopib qo‘yilgan, 3 tasi ochiq edi.

Yopiq suratlardan birining yuzasidan matoni ko‘tardi-yu, ko‘zlariga ishonmadi. Pastki o‘ng burchakda qoldirilgan dastxatni aytmasa, rasm bo‘m-bo‘sh edi. So‘ng qiziqish bilan barcha suratlarni birma-bir ocha boshladi. Hammasi bir xil, barchasining pastki o‘ng burchagida ayni imzo qo‘yilgandi. Bu xonaning sohibi qanday bo‘lmag‘ur inson bo‘ldi, rasmni chizmay turib imzosini qo‘ysa.

Yuzasi ochiq bo‘lgan suratlardan birining oldida o‘tirish uchun hozirlab qo‘yilgan to‘nka turardi. Uning ustida esa yosh bola rasm chizgandek fikr uyg‘otadigan, aralashib, bir-biriga qorishib ketgan bo‘yoqli palitra bilan ikki dona mo‘yqalam bor edi.

Xonaning bu qismini tomosha qilib ulgurmagan Kendin narigi tarafga hanuz o‘tmagandi. Shu qadar sehrlanib qolgandiki, birgina shu tomonda bir necha soat aylanib qoldi. Chap tomondagi devorning bo‘sh ekanligi birdan e‘tiborini tortdi. Bu yerning ham rasm chizish uchun tayyorlab qo‘yilgani xayoliga keldi. U adashmagandi. Sababi, biroz avvalgi yuzasi qizil ipak matolar bilan to‘silgan bo‘sh suratlarining pastki o‘ng burchagidagi imzoning yana biri devorda ham ko‘zga tashlanardi. Katta hayajon va zavq bilan ortiga qaytdi. Orqa devorda narigiga mutlaqo o‘xshamagan, xonaning bu qismidagi gilamning bezaklariga o‘xshash geometrik shakllar, matematik ifodalar bor

edi. Go‘yo kimdir matematikaga ma’lum yoki aksincha, ma’lum bo‘lmagan jamiyki masalalarni shu devorda yechgandi.

Devorning shundoq oldida eman daraxtidan yasalgan kattagina stol bor edi. Hali eman isi ketib ulgurmagan stolga uch kishi bemalol o‘tira oladigan, dunyoning eng hashamatli kursisi mana shu deya bemalol ko‘rsatish mumkin bo‘lgan muazzam bir stul suyab qo‘yilgandi.

Xonaning eshigi yo‘q edi. Aniqrog‘i, eshik o‘rnatilishi kerak bo‘lgan joyda tor va peshtoqli o‘yiq bo‘lib, bu yerga kirish uchun xizmat qilardi.

So‘ngra xonaga uzun soch-soqolli, keng yelkali, g‘ijim va kir kiyim kiygan, burnining uchiga ozgina jigarrang bo‘yoq tekkan bir odam kirib keldi. Yo‘g‘och kundaning ustida turgan boyagi palitrani ingichka uchli mo‘yqalami bilan qo‘liga oldi. O‘ng oyog‘ini go‘yo tuflisini ipini bog‘lamoqchi bo‘lgandek kunda ustiga qo‘ydi. Mo‘yqalamni chaqqonlik bilan bo‘yoqqa botirdi, bir necha daqiqa o‘zi istagan rangini chiqarishga urindi.

Mo‘yqalamni sindirib yuboradigan darajada palitraga qattiq urardi. Chiqargan rangini ingichka uchli mo‘yqalam bilan dunyodagi eng nozik shishadan yaratilgan qizning yuzida ohistalik bilan yurgizardi. So‘ng qalin uchli mo‘yqalamini olib, bir necha daqiqa uni palitraga urib turdi. Keyin uni suratga xuddi dushmaniga zarba berayotgandek urdi. Kendin shunchalik berilib ketgan ediki, "Unday qilmaaaa!" deyishdan o‘zini to‘xtatib qololmadi. Jin esa xotirjam ohangda:

- Haqsan, ammo qo‘rqma! U nima qilayotganini biladi, sen faqat kuzat, - dedi. Kendin rassomni kuzatib turib, armon bo‘lib qolgan orzusini Jinga aytdi:

- Qobiliyatim bo‘lsa edi, men ham rassom bo‘lishni xohlardim. Ishon, buni judayam istardim, lekin afsus bu iqtidor masalasi...

Jin Kendinning yuziga tikilib qoldi. Qarashlari ma'nosiz edi. Kendin jim bo'lishi kerakligini tushunib, sukut saqladi va rassomni kuzatishda davom etdi. U odam soatlab bo'yadi. Go'yo butun dunyoning rangini o'zgartirardi. Birgina xato qilsa qiyomat qoim bo'ladigandek. Bu orada kun ham o'z o'rnini tunga bo'shatib berishga hozirlanardi.

Rassom kerosin chiroqni yoqdi. Yana ozroq ishlagach, tashqariga chiqdi. Ko'p o'tmay ortiga qaytganda burniga tekkan jigarrang bo'yoq ketkazilgan edi. U bu safar arqonning narigi tomoniga o'tdi. Stol ustidagi qalamlardan birini olib devorga yoza boshladi. Butun devor to'la edi. Qayerda bir bo'sh joy qolib ketibdiki, bu odam yana yozsa? Odam ingichka ingichka yozardi. So'ngra viqor bilan dunyoning eng hashamatli kursisiga o'tirdi. Muqovasi o'yma yog'ochdan qilingan qalin daftarni ochib, devorga qarab-qarab, bir narsalarni yozdi. Bir necha soatdan so'ng qalamini qo'yib, o'rnidan turdi va kerosin chiroqni o'chirib, tashqariga chiqdi.

- Qayerga ketyapti?, - dedi rassomning ortidan qarab qolgan Kendin.

- Uxlashga..., - dedi Jin va davom etdi:

- Bu inson har to'rt soatda bir marta yarim soat uxlaydi. Vaqti bo'ldi deguncha hech kimning uyg'otishini kutmasdan turib, yana ishiga qaytadi. Bizni bu yerga kelganimizga taxminan to'rt soat bo'ldi.

Kendin hayratlandi.

- Ishonish qiyin!

- Uning kim ekanini aytsam, ishonishing aniq, - dedi Jin. Kendinning qiziqishi o'zining so'nggi nuqtasiga yetdi.

- Bu inson da Vinchi. Leonardo da Vinchi. Rassom, matematik, fizik, faylasuf va yana bir qancha sohalarda afsona bo‘lgan inson. Endi ishondingmi?

- Taxmin qilishim kerak edi; lekin ishon agar men ham shunday ishlasam, da Vinchi bo‘lardim, - deb yubordi Kendin, Jinning nima deb javob berishini hech o‘ylamagan holda.

- Ishla u holda, - soddagina javob qaytardi Jin. Kendin Jinga ilk bora 3957 xil ma’no va tuyg‘u mujassam nigohini qaratdi. Ha, yo‘q, qanday, nega bo‘lmasin, haqsan, ajabo, go‘yo, balki, qo‘limdan keladimi, shubhasiz qilaman, albatta, hech qachon, tabiiy va yana bu yerda sanalmagan yuzlab boshqa ma’nolar bor edi bu nigohda.

Bu kishi Leonardo da Vinchi edi, da Vinchi bo‘lish ayni shunday bo‘ladi. Sen faqatgina ishlaysan va ichingdagi da Vinchi ko‘rinib, afsonaga aylanasan. Yoki ishlamasdan, da Vinchini ko‘masan-u, yo‘q bo‘lib ketasan.

### 3-bob

## UYG'OTGICHNING KASHF ETILISHI

Mutlaqo boshqa joyda paydo bo'lib qoldilar.

- Qayerdamiz?, - so'radi Kendin. Jin "Hozir ko'radiganlaringdan hayratda qolasan" degandek jilmaydi:

- Kut va kuzat!

Xonada qirol taxtini eslatadigan bir kreslo va unga yarashmagan kichik ish stoli bor edi. Stol ustida uning deyarli butun yuzasini egallagan ulkan globus turardi. Kresloda esa uzun sochli bir odam jimgina ishlab o'tirardi. Xona suv quygandek jim-jit. Kendin ham, Jin ham og'ir sukutda edilar. Oxiri Kendin chiday olmay so'radi:

- Kim bu?

Jin kichik hassaga o'xshash bosh barmog'ini lablariga yaqinlashtirib, bizga ma'lum bo'lgan "Jim!" ishorasini berdi. Kendin yana jim bo'lib, haligi kishini kuzatishda davom etdi. U odam stoldagi globusga o'xshagan narsaga qarab turardi. Faqatgina qarab turardi. Oradan "Bas yetar, bunchalik bo'lmaydi-da" deyishga majbur qiladigan uzoq vaqt o'tdi. Kendin yana chiday olmay xonadagi sukunatni buzdi:

- Kim bu?

Jin Kendinga yaqinlashib:

- Bu-mi? Bu bir inson!, - dedi. Kendin o'zi kutgan javobni ololmagani uchun biroz asabiy holda, kinoya bilan dedi:

- Bunisini o'zim ham ko'rib turibman.

Jin esa o'ta jiddiy qiyofada:

- Demak, tushunding! Shunday ekan, uning sen kabi oddiy inson ekanini inobatga olsak, birozdan so‘ng uxlashi kerak emasmi?, - dedi va kiyimining cho‘ntakka o‘xshash yeridan kattakon qum soatini chiqardi. Uni yerga qo‘yib:

- Bu to‘liq 30 soatlik. Ko‘ramiz, bu odam qachon uxlar ekan?, - dedi.

Vaqt o‘tib borar, u odam esa muzlatib qo‘yilgandek stolidagi globusga tikilib o‘tirardi. Bir payt nihoyat o‘rnidan turdi va xonani aylana boshladi. Xonada u yoqdan bu yoqqa to‘xtamasdan yuz martalab yurdi. So‘ngra egnidagi kostyumini yechib kresloning orqasiga osdi va yana qaytib o‘tirdi. Stolning globusdan ortgan joyida turgan daftariga pero bilan bir narsalarni yoza boshladi. Beto‘xtov yozardi. Kendin uni kuzatishdan charchadi... U kishi yerda turgan kichkina metall parchasini olib, kresloda o‘tirgan ko‘yi uyquga ketdi. Ko‘p o‘tmay qo‘lidagi metall yerga tushib ketdi. Uning ovozidan uyg‘onib, yana yozishda davom etdi...

- Aql bovar qilmaydi!, - dedi Kendin yerda turgan metall bo‘lagiga tikilib turib. Jin g‘urur bilan tabassum qilarkan:

- Haa, sen va do‘stlaringga o‘xshagan bir insonning uyquasi mana shunchalik bo‘ladi. Uyquasi kelganida uni yana olib, o‘tirgan joyida uxlaydi.

So‘ngra yana sukut saqlab, uni kuzatdilar. Bu sirli odamning ko‘zlari uyqudan yumilib ketgan payt egilib metall bo‘lagini olib, o‘tirgan joyida mizg‘ib olardi.

Jin chala qolgan gapini tugatish maqsadida davom etdi:

- Va oradan yillar o‘tadi. Biz bu insonni Nyuton deb ataymiz, Isaak Nyuton.

So‘ngra qum soatiga ishora qilib:

- Qara!, - dedi. Qum tugay deb qolgandi. Buyuk fizik Isaak Nyuton esa har 15 daqiqada bir marta chalinadigan soat kabi qo‘llagan u metall parchasini jami 5 marta tushirib yubordi.

## 4-bob

### MOVIY SEVGILISI ILA KUNDA IKKI SOAT

Kattagina xonaning o'rtasida turardilar. Atrof yoyilib yotardi. Xonada bir-biriga birlashtirilgan uchta stol kattaligidagi ish stoli bo'lib, uning usti elektron sxemalar, kabellar va yana ko'pi inson uchun keraksiz deb hisoblanadigan mayda-chuyda narsalarga to'la edi. Stolning bir burchagida esa ichiga kerosin to'ldirilgan kir tunuka idish, uning yonida kumush patnis ichida hafsala bilan tuzalgan, ammo qo'l ham urilmagan dasturxon ko'zga tashlanadi. Shunday shohona dasturxon u yag'ir idish yoniga hech ham yarashmagan, uni kimdir "Och emasman" deya o'sha yoqqa surib qo'ygani kundek ravshan edi. Stoldan uzoqroq bir burchakda odatiy 4-5 stul tartibsiz shaklda sochilib yotardi. Devorda keragidan ortiq kerosin lampasi bo'lib, ularning barchasi yoniq turar va insonda "dunyodagi eng yorug' makon shu yer bo'lsa kerak" degan fikr uyg'otardi.

Kendin atrofni tomosha qilarkan, Jin ham Kendinni kuzatib turdi. Atrofdan hech kim ko'zga tashlanmaydi. Qayerdandir arra ovozi eshitiladi. Ko'zlari ovoz kelayotgan tomondagi eshikka tushdi. Eshikka yaqinlashganlari sari ovoz ham kuchayib bordi. Ichkariga kirdilar. Moviy ko'rpasiga o'rangan bir odam hech g'am-tashvishi yo'qdek bamaylixtir xurрак otib uxlab yotardi.

- Adashib boshqa yerga keldik shekilli!, - dedi Kendin. Yuz ifodasidan xuddi Jinning bir xatosini topgandek edi. Jin eslatdi:

- Sabrli bo'lishing kerak edi.

... Kutdilar. Biroz o'tib u odam uyg'ondi. Zudlik bilan to'lashi kerak bo'lgan qarzi esiga tushgandek yotog'idan sapchib turdi, qo'shni xonadagi stol ustiga kelib tezlik bilan ishga kirishdi. Bir oz avval xurрак otib uxlab yotgan inson u emasdek edi go'yo. Stolning ustidagi narsalarni bir-biriga ishqalab, nimadir qilishga



urinardi. Birini boshqasining uchiga ulab, soʻng uni yana boshqa narsaga mahkamlar, baʼzan toʻxtab, qimirlamasdan uni shunchaki kuzatardi. Bu kuzatish ham tanaffussiz davom etgan ishning bir qismi edi.

- Bu kim, Xudo haqqi, jinni-pinni emasmi?, - soʻradi Kendin. Jinning javobini kutmasdan uning oʻzi:

- Bu bir inson, - dedi. Jin boshini qimirlatib tasdiq ishorasini berdi va yana bir qum soatini koʻrsatib turib:

- Bu 6 soatlik, - dedi. Kendin va Jin oʻzaro suhbatlashib, u insonni kuzatishardi. Biroz oʻtib nima boʻldi-yu, u hamma ishini tashlab yana narigi xonaga kirib ketdi. Qum soatiga qaradilar. Uning ishlashni boshlaganiga 3 soat boʻlgandi. Xonaga kiriboq, takror moviy koʻrmasiga oʻranib, pishillab uxlab qoldi. Jin:

- Koʻrdingmi? Yana uxlati, - dedi. Kutdilar, 15 daqiqa oʻtib yana uygʻondi, zudlik bilan toʻlashi kerak boʻlgan qarzi esiga tushib qolgandek yotogʻidan sapchib turdi, - bilaman, bu iborani bir oz avval ham qoʻllagandim. Lekin u odam har safar shunday uygʻonsa, menda nima ayb? - va takror ish xonasidagi stol oldiga keldi.

Biroz oʻtib xonaga bir ayol kirdi va stol ustidagi patnisdan 15-20 sm uzoqroqqa yangi patnis qoʻydi. Eskisini olib, kelgan eshigi tomon yurdi. Bir-ikki qadam yurib, u odamga "Oʻlib qolasan-ku axir, yetar endi!" demoqchi boʻlgandek bir alfozda qarab qoldi, ammo uni ranjitmaslik uchun bu soʻzlarni tiliga olmadi, balki:

- Qani, biroz dam ol, nimadir yeb ol!, - dedi. Odam javob bermadi. Ayol hafsalasi pir boʻlib, xonadan chiqib ketdi. Ajabo, ayol ham koʻrinmasmikin, u inson hatto javob ham bermadi. Kendin xayolidan kechgan bu savolni Jinga berdi.

- Yoʻq, - dedi Jin.

Ular gaplashib turganida, odam taomlar solingan kumush patnisni avvalgisining o‘rniga itarib qo‘ydi.

- Ayol ko‘rinadi, albatta. Lekin u o‘z ishiga shu qadar bog‘langanki, ko‘zi boshqa narsani ko‘rmaydi, - so‘zida davom etdi Jin, uning aytadigan yana ko‘p narsalari bor edi:

- Bu inson hayotini har uch soatda bir marta 15 daqiqa uxlab o‘tkazdi. Ya’ni, kunda umumiy 2 soat uxlaydi. Oradan vaqtlar o‘tadi, biz bu inson Edison nomi bilan eslaymiz. Dunyoni yorug‘likka to‘ldirgan, uxlash va ovqat yeyishga ham aytarli vaqt topa olmagan buyuk dohiy.

Kendin sham va kerosin chiroqni tarix sahifalariga ko‘mib, oqshomni nurga to‘ldirgan insonni ko‘rib turganidan hayajonlandi. Bu orada Edison yana hamma narsani tashlab, takror moviy sevgilisiga o‘ranib, uyquga ketdi.

## 5-bob

### KICHIK FONUSNING ICHIDAGI BUYUK INSON

Ikki qavatli 20 ta krovat qator joylashtirilgan yotoqxonaga o‘xshagan bir joyda edilar. O‘rtada uyoqdan buyoqqa yurgan odamlarni ko‘rishlari bilan tushundilar: bu yer qamoqxonona edi. Ba’zilar yotoqda uxlab yotar, uyg‘oq bo‘lganlar esa u yerdan bu yerga yurib nimanidir kutishardi.

- Shularni bir kuzataylik, - dedi Kendin. Gapini tugatishga ulgurmay, bo‘lmaning temir eshigi oldida yuzlari bujmaygan bir odam paydo bo‘ldi. Hayoti davomida hech ham kulmagan odamning jiddiyligi bilan:

- Tushliik..., - deb baqirdi. Bitta odamdan tashqari qolgan barcha tushlikka ketdi.

Katta bo‘lmada yolg‘iz qolgan u inson oldidagi g‘ijim daftarga nimalarnidir yozardi. Vaqti-vaqti bilan orqa sahifalarga ko‘z yugurtirib, bir narsalarni tekshirar, so‘ngra yana kelgan joyidan davom etardi. Yozish davomida ba’zan jilmayib qo‘yar, ba’zan g‘amgin bo‘lib qolar, ba’zan esa yig‘lamoqdan beri bo‘lib, xo‘rsinib qo‘yardi. Qalbidan nimalar o‘tardi, bilib bo‘lmasdi, ammo yozayotganlari o‘ta muhim narsalar ekani ayon edi. Qalam bilan oldidagi daftarga tinmay yozar, nigohi dunyodagi eng buyuk qo‘shinni boshqarayotgan sarkardaning qarashlarini eslatardi. U qo‘shinni idora qilib turganida, boshqalar ovqatdan qaytib, yotoqdagi joylarini egalladilar.

Ikki kishi xat yozish uchun stolga yaqinlashdi, biri ko‘zlarini uzmay qo‘lida mahkam ushlab turgan qizchanning suratiga qarab turardi. Yana ikki kishi esa go‘yo shu orqali kimdandir qasos olayotgandek tez-tez uyoqdan buyoqqa yurardilar. Bo‘lma devorlarini inobatga olmasangiz, ularni bemor otasiga zudlik bilan qon yetkazish uchun shoshilayotgan solih farzand deb

o‘ylardingiz. Qolganlar esa krovatga cho‘zilib, uxlab qoldilar. Ularni butun diqqati bilan kuzatayotgan Kendinning bekorga vaqt yo‘qotishiga monelik qilish maqsadida Jin shoshib gapira boshladi:

- Bu uxlayotganlarni kuzatib turishing shart emas! Ular faqat ovqat vaqti uyg‘onadilar, qolgan vaqtlarini esa uxlab o‘tkazadilar. Shu usulda go‘yo jazo muddatlarining tezroq tugashiga ishonadilar. Uyg‘oq bo‘lganlarida esa ozodlikka chiqqach, hech qachon uxlamaslikka ont ichadilar. Ammo bilmaydilar yoki bilsalarda tushunmaydilarki, ichkarida yohud tashqarida bo‘lish o‘rtasida hech qanday farq yo‘q. Chunki har bir inson hayotini bir fonus ichida yashab o‘tkazishga majbur. Fonusni kattalashtiradigan faqat miyadir, inson o‘zi sig‘gan har qanday fonusga miyasi ham sig‘adi, shubhasiz.

Kendin Jinni diqqat bilan eshitar, so‘zlari uni o‘ziga sehrlab qo‘ygandi. Go‘yoki u hamma narsani bilardi, butun universitetlardagi ilmni o‘zida jam qilgandek tuyuldi. Jin davom etdi:

- Agar borar yeringning oxiri bo‘lsa, agar qo‘lingdan kelgan ishlarning chegarasi bo‘lsa, agar bir kun kelib umring bitsa, demak umring davomida bir fonus ichida yashaysan. Bu o‘rinda "Inson u fonusning ichida har doim eng afzali bo‘lish uchun yashaydi" deya bemalol ayta olamiz. Ya’ni, zindonda yoki ozodlikda bo‘lishning farqi yo‘q. Shunday ekan, qayerda bo‘lsa-da, qanday bo‘lsa-da, inson doimo qo‘ldan kelgan eng afzal ishni qilishi kerak.

- Tushundim, - dedi Kendin. Jin yozayotgan odamga o‘girilib:

- Hozir shu fonusning ichida bo‘lgan bir inson eng yaxshisi bo‘lish yo‘lida harakat qilyapti. Oradan yillar o‘tib, har bir inson unga o‘xshashni orzu qiladi, chunki, u insoniyatning eng

afzallaridan biriga aylanadi. Shuni bilgani uchun ham uning ishtahasi yo‘q, shuning uchun uyqusidan voz kechdi, shuning uchun u faqatgina bir martagina mahbus bo‘lib yashaydi, - dedi.

Kendin oyog‘ining uchida turdi va Jinning chap yelkasiga osilib, yozib o‘tirgan odamga tikildi. Jin:

- Yaxshiroq qara! Uni taniysan, - dedi. Kendin u insonni tanidi. Uni bilmagan inson dunyoda bormikin? Axir, u Dostoyevskiy edi!

## 6-bob

### **KIM EDI U TOSHNI QUDUQQA OTGAN AHMOQ?**

Atrof tun zulmatiga choʻmgan bir paytda, Jin Kendinni dengiz boʻyiga olib keldi. Ufqni koʻrsatib:

- Hamma narsani unut, faqatgina shuni kuzat, - dedi. Bir necha daqiqa oʻtib, ufqda yengil qizillik paydo boʻldi.

- Qara, quyosh uygʻonmoqda. Koinotdagi eng buyuk ishni ortiqcha shovqin-suronsiz, jimgina bajarmoqda. Qilgan ishining buyukligi qarshisida "Quyosh chiqdi" dan boʻlak hech bir gap aytilmaydi. Bir oʻylab koʻr, birozdan soʻng kun yorishadi, qushlar oʻz qoʻshigʻini boshlaydi, chumolilar uyalaridan chiqishadi. Hatto daraxtlar ham ishlashni boshlab yuboradi. Olamdagi tun pardasini koʻtarib, oy va yulduzlarni soʻndiradi, goʻyo ularni jazolayotgandek. Yuz millionlab yulduz yigʻilib bajara olmagan ishni quyosh bir oʻzi amalga oshiradi!, - deya hayratini yashira olmadi Jin.

- Nega oʻsimliklar kunduz kuni kislorod, tunda karbonat angidrid chiqaradi, hech oʻylab koʻrganmisan?

- Yoʻq, - dedi Kendin. Hech qachon bu haqida oʻylab koʻrmagandi. Vaqti kerakmas ishlardan ortmasdi-ku, axir, qanday oʻylasin. Jin davom etdi:

- Chunki, quyoshning chiqishi bilan hayot ham boshlanadi. Hatto, daraxt ham unga taslim boʻladi. Oʻylab koʻr, quyosh toʻliq chiqib ulgurmay butun bir tizim mutlaqo aksiga aylanadi. Bunday katta oʻzgarish qanday amalga oshadi? Quyosh qanday kuch oʻzi, uning chiqishi bilan butun jonzot harakatga kelsa... Kel, hozir bir koʻraylik, dunyoda quyoshga qaramay uxlagan bir maxluqot bormikin?

Bu orada quyosh har doimgidek vazifasini bajarib, sukunat ichida olamni nurga to'ldirdi. Jin va Kendin nafas olgulik muddat ichida quyoshga taslim bo'lgan jamiyki olamni kezib chiqdilar.

Arslonlar, qoplonlar, qushlar, otlar, sichqonlar, fillar, pashshalar, qurt-qumursqalar, olma, nok, kitlar, dunyodagi jonli-jonsiz butun mavjudotlar allaqachon uyg'ongandi.

- Endi esa sening do'stlaringni ziyorat qilamiz. Ko'raylik-chi, u yerda nimalar bo'lyapti?, - dedi Jin insoniyat olamini nazarda tutib.

Minglab uyga kirib chiqdilar. Insonlarning 90% i hamon uxlardi. Uyg'oq bo'lganlarning ko'pchiligi bolalar yoki majbur bo'lgani uchungina uyg'ongan kishilar edi. O'zi xohlab erta uyg'ongan insonlar shu qadar kam ediki, Kendin ilk bora Jinning oldida hijolat tortdi. Hayvonot va o'simlik dunyosi uyg'otuvchi soatlarga ehtiyoj sezmay to'lig'icha uyg'ongandi-yu, maxluqotlarning eng aqllisi sanalgan inson esa hamon pishillab uxlab yotardi.

- Ishon, oldingda hijolatdaman, - dedi Kendin. U quyosh chiqib, kun isigani uchun qirmizi tus olgan yonog'ini yashira olmadi. Jin g'amgin jilmayib:

- Mayli, hechqisi yo'q!.. Quyosh chiqqaniga endi yarim soat bo'ldi. Ko'raylik-chi, to'liq uyg'onishlariga yana qancha vaqt kerak ekan?, - dedi.

Har soniyada bir uyga kirib chiqishar, shu tariqa safarlarini davom ettirishardi. Insonlar ulkan horg'inlik ortidan uxlash mukofotini qo'lga kiritishgan-u, go'yo 10 daqiqa avval yotoqqa kirib, u mukofotdan zavq olayotgandek xotirjam uxlab yotardilar.

Takror hayvonot va nabotot olamini kezdilar. Uyg'onish u yoqda tursin, deyarli barchasi bolalarini to'ydirib ham bo'lishgandi. Ortga qaytdilar. Inson hamon uxlab yotardi. Yoz fasli edi.

Quyosh chiqqaniga 2 soat bo'lgandi. Kendin bularga bir izoh topa olmasdi. Faqatgina ko'rganlari qarshisida afsusda ekanini ayta olardi:

- Afsusdaman!

Kendin issiqqina yotog'ida quyoshga parvo ham qilmay uxlab yotgan har bir insonning o'rniga o'zini qo'yar, shunda bu manzara yanada vahimali tus olar, uyat yanada yuzlarini kuydirardi...

- Nima uchun bunaqa?, - so'radi Kendin.

Jin Kendinning qo'llaridan tutdi va yo'lida uchragan har bir uyning yotoqxonasiga kirib, ko'rsatkich barmog'i bilan uxlab yotgan odamlarga ishora qilganicha, ularning har biri uchun farqli uyqu sabablarini so'zladi.

- Negaki, abadiy yashayman deb gumon qiladi... Negaki, o'zini aqlli deb hisoblaydi... Negaki, qochyapti... Negaki, o'zini hurmat qilmaydi... Negaki, emin-erkin ekanini o'ylaydi... Negaki, nonko'r... Negaki, dangasa... Negaki, bergan so'zida turmaydi... Negaki, vaqt tugamaydi deb hisoblaydi... Negaki, qo'lidan bir ish kelmasligiga ishonadi... Negaki, xurofot ichida... Negaki, ahmoq, ahmoq, ahmoq...

So'ngra to'xtadilar. Sohilda, quyoshni kuzatgan joylarida turardilar. Jin Kendinga qarab so'z boshladi:

- Chunki, do'stim, sen tayyor bir tizimning quchog'ida tug'ilib o'sding. Savol so'ramading. Senga "Voyaga yetgan inson 8 soat uxlashi kerak" dedilar, ishonding. O'ylab ko'rmading, "Yanglishgan bo'lishsa-chi!" demading. "Kim edi u toshni quduqqa otgan ahmoq?" Bular bilan qiziqib o'tirmading. Chunki, o'z manfaatini o'ylading. Uxlash juda yoqimli edi. Na qarzlaringni eslaysan, na yomon ishlaringni... Na otangni yurak kasali xayolingga keladi va na onangning og'riyotgan tizzalari,



na farzandingni yo‘qolgan lego parchasi. Uxlash sen uchun qochish edi. Quyosh botsa qanday yaxshi bo‘lardi!

Jin bularni aytarkan, Kendin butun vujudi quloqqa aylanib uni tinglardi... Jinning to‘xtash niyati yo‘q edi:

- Uyqu seni shunchalar asir etdiki, kech bo‘lishi bilan ko‘zlarini yumilishiga qarshilik qilolmading. Aslida qarshilik ko‘rsatish yoki ko‘rsatmaslik bilan ham ishing yo‘q edi, sababi, uyqu haqida hech narsaga qiziqmading. Sen uni noma’lum qotilga aylantirding.

- Bir daqiqa. - Jinning gapini bo‘ldi Kendin, - Gaplaringdan bir narsani tushundim: sendan boshqa hamma yanglishgan! Qanday qilib 6 milliard inson ayni xatoga sherik bo‘lishi mumkin?

Jin qo‘llarini ikki yoniga ochdi. Uning o‘z fikrlariga shubhasi yo‘qligi aniq edi.

- Ha, shunday, butun dunyo yanglishadi. Yana deyarli har bir mavzuda. Ya’ni u quduqda bitta tosh emas, minglab tosh bor. Yuzlab quduqlar bor... 15 soniyada isbotlab beraman buni.

Kendin sinchkov nigohlari bilan Jinni kuzatib turardi. Jin jimjilog‘i bilan qumga bir doira chizdi. Eng tepasiga "12" raqamini yozdi va so‘radi:

- Qo‘lingdagi soat shunga o‘xshaydimi?

Kendin qo‘liga qaradi, soat yo‘q edi; ammo soati yerdagi doira soatga o‘xshab ketardi.

- Ha, - dedi.

Jin javobini mustahkamlash uchun yana bir marta so‘radi:

- Yaxshi, kasalxonaning devoridagi soat ham bunga o‘xshaydimi?

- Ha, albatta, - dedi Kendin hech o‘ylab o‘tirmay.

- Butun dunyo shu soatdan foydalanadi, shunday emasmi?

Kendin tasdiq ma'nosida bosh irg'adi.

- Ya'ni, hammasining eng tepasida 12 raqami bo'ladi va butun soatlar 12 ni ko'rsatishi bilan u kun o'z nihoyasiga yetib, boshqasi boshlanadi, shunday emasmi?

Buning javobi ham "Ha" edi. Jin butun dunyo eshitishi kerak bo'lgan bir gapni aytdi:

- Xo'sh, bu qanday bir mantiqki, yangi kun tunning qoq yarmida boshlansa? Bu qanday taqvimki, kun qorong'ulikda tug'ilsa? Quyosh soat 6 da chiqarkan, siz tungi soat 12 ni nol deyish bilan nimaga erishasiz?

Sukunat... Og'ir sukunat...

- Holbuki, quyosh chiqishi bilan yangi kun boshlanadi. Mana shu uslubdan foydalansang, soat 6 ni kunning boshlanish vaqti deb qabul qilib, nol hisoblarding. 9 deyishni o'rniga 3 derding. Shunda soat 9 da uyg'ongan odam, "Quyosh chiqqani, kun boshlanganiga 3 soat bo'libdi" der va kunni o'tkazib yuborishdan xavotirlanib o'rnidan sakrab turardi.

Kendin qo'lidagi asosli dalillar bilan e'tirozga hozirlangan advokatga o'xshardi:

- Shunaqasi ham bo'larkanmi? Quyosh har doim soat 6 da chiqmaydi-ku.

- Xo'p, sen quyosh 6 da chiqmaydigan vaqtlar uchun soatni oldinga yoki ortga surish mexanizmini o'ylab topmadingmi? Bir soat oldinga yoki ortga surginki, quyosh yana nolda chiqsin.

Kendin o'ylanib qoldi. Jin haq edi.

- Haqsan!

- Bularni haq bo‘lish uchun aytmagandim. Haq bo‘lishdan nafratlanaman. "Haqsan!" Haqman, ammo nima o‘zgardi?!. Mening haq ekanligim senga nima foyda keltirdi? Xatolarni tuzatmaguningga qadar mening haq ekanligimning kimga qanday manfaati bor?

- Haqsan...

Kulishdilar. So‘ngra Jin to‘xtagan joyidan davom etdi:

- Men hozir senga soatning shaklini o‘zgartir, ustini to‘rli yopqich bilan yop yoki gullar bilan beza demayman. Qo‘y, shundayligicha qolsin, ammo hech bo‘lmaganda insonlarni quyosh bilan birga uyg‘otish uchun biroz saxiy bo‘l, bir formula o‘ylab top!

Kendin oxirigi jumlaning tushunmadi:

- Saxiy? Qanday ya’ni?

- Ha, saxiy. Nega endi puldan 6 ta nolni olib tashlashga jasorating bor-u, soatni 4 soat oldinga surishga jasorating yo‘q?

- ...

- Tanbalsan, tan ol! Ko‘zing qiymaydi. O‘ylab ko‘r, ertaga ertalabdan vaqtni 4 soat oldinga surding.

Kendin o‘yladi. Bu yomon fikr emasdi. Jin so‘radi:

- Seningcha, insonlar bunga o‘rganishga qiynalisharmidi?

- Yo‘q. Hech nima o‘zgarmasdi; chunki kun yana 24 soatligicha qolardi..., - dedi-yu, hayajonlandi Kendin.

- U holda seni nima ushlab turibdi? Buni uddasidan chiqqaningni tasavvur qil! Balki insonlarni erta uyg‘otish katta tashkilot tuzishni talab qilar. Butun insoniyatni quyosh bilan birga uyg‘otish uchun millionlab, hatto yuz millionlab soatlik mashg‘ulotlar o‘tkazish lozim; lekin faqatgina soatning milini

oldinga surib, hech qanday sarf-xarajat qilmasdan insonlarni bu xato tushunchadan qutqara olasan. Shunday qilsang, na ular va na sen hech narsa qilmasdan yalqovlik bilan yana soat 9 da uygʻonganingizda ham quyosh endigina chiqqan boʻladi.

Bu fikr Kendinning xayoliga oʻrnashib qoldi. Ayniqsa, biroz avval eng oxirgi boʻlib uygʻongan maxluqot inson ekanini koʻrganda... U hayajon bilan:

- Shubhasiz, ajoyib fikr bu! Hech narsaga hojat yoʻq, faqat soatni oldinga surib qoʻyasan, dunyo taqdiri oʻzgaradi. Vah! Sen ajoyibsan, Jin!, - dedi.

- Sen ham eng kamida menchalik ajoyibsan; ammo bir farqing bor... Sen oʻylashdan bosh tortgan ajoyib tentaksan... Ozginagina oʻylasang, maktablar, ishxonalar, fabrikalar, banklarni bir vaqtda ochib, keyin "Yoʻllar namuncha tirband?" deya ranjimasding..., - dedi Jin.

Kendin Jinning bu odatiga oʻrganishni boshlagandi. Shu sababdan ters javob qaytarmay, jilmayib qoʻyaqoldi.

## 7-bob

# FAQATGINA KAM UXLASHNING O'ZI YETSAYDI, DUNYONI CHUMOLILAR BOSHQARARDI

Har bir o'tning bo'yi chizg'ich bilan bittalab o'lchab, hisoblab ekilgandek muazzam ko'rinayotgan, katta bir daladan yurib ketishardi. Insonning ko'nglini yorishtirib yuboradigan bu go'zal yerda sayr qilarkan, Kendinning ichida tug'yonlar jo'sh urardi. Bu ko'rganlari unga buyuk insonlarning muvaffaqiyat formulasini o'rgatgandi: "Oz uxlash...". G'ayrioddiy ish edi bu. Oz uxlaysan va muvaffaqiyat qozonasan. Kendin shu qadar oddiy ishni yillar davomida nega qilmaganini o'ylab afsuslanar, tezroq buni qanday bajarishni o'rganish uchun sabrsizlanardi.

- Qani, o'rgat menga! Qanday qilib kam uxlayman? Men ham muvaffaqiyatga erishishni xohlayman, - dedi.

Jin:

- Buni o'rganishing u qadar oson emas, sabrli bo'l. O'rganasan, albatta. Shuning uchun ham bu yerdamiz. Ammo yana bir narsani ta'kidlashim zarur, jamiyki insonlarning yana bir umumiy xususiyati bor: Barchasining boshqalar tarafidan "amalga oshishi imkonsiz" deya baholangan ma'lum maqsadlari bor va aslida ko'plab maqsadlar ularni uxlashlariga yo'l qo'ymaydi.

Kendin quvondi, chunki uning ham maqsadi bor edi.

- Mening ham maqsadim bor!

- Seni-yaa? Nima ekan sening maqsading?, - dedi Jin haqoratomuz ohangda.

- O'z sohamda yuksalishni xohlayman, - javob berdi Kendin ko'ksini kerib. U ko'pchilik hurmat qiladigan shifokor edi.

- Sen shuni maqsad deyapsanmi?

- ...

- Hamma shifokor yuksalishni xohlaydi, ammo nari borsa eng kamida Ibn Sino kabi bo‘ladi, - dedi Jin va taassuf bilan "Qanday odamlar o‘tib ketdi-ya!" degandek labini tishladi. So‘ng davom etdi:

- Hamma narsa kabi maqsadni ham senga noto‘g‘ri talqinda o‘rgatdilar. Tor fikrlayapsan. Chunki, senga ko‘p uxlashni o‘rgatganlar o‘zingga hech sezdirmasdan tor o‘ylashni ham o‘rgatdilar.

- Qanday qilib?, - dedi Kendin butun vujudi quloqqa aylanib.

- "Bir sohada yuksalish" aslo uyqu qochiradigan maqsad bo‘la olmaydi. Maqsad - o‘z nomi bilan maqsad. Ya’ni, maqsading aniq bo‘lishi lozim. Yuksalishni istagan joyingning nomi bo‘lishi kerak. "Men shu yerni xohlayman" deysan. Aks holda, maqsading yo‘q hisob. Agar samarali bir maqsading bo‘lmasa, kam uxlashingning ham hech qanday ma’nosi yo‘q. Hatto mumkin bo‘lsa, bor uxla va tanang ko‘tara olsa aslo uyg‘onma. Chunki, maqsadsiz insonning uyg‘oq bo‘lishi ham o‘zi uchun, ham butun insoniyat uchun azobdir, - Jin jilmayib davom etdi:

- Biror bir maqsadi bo‘lmagan holda, ya’ni uxlashi kerak bo‘lgan holda uxlamagan insonlar ham bor, shubhasiz. Bunga shu tog‘ning ortida ajoyib o‘rnak ham bor. Ko‘rishing kerak, qani ketdik...

Jin Kendinni ortidan ergashtirib toqqa qarab ketdi. Cho‘qqiga yaqinlashib qolganlarida qandaydir nay ovozini eshitdilar. Ovoz tog‘ ortidan kelayotgandi. Tog‘ni oshib o‘tib, ovoz qayerdan kelayotganini bildilar. U jigarrang qalpoq kiygan bir odamning qo‘lidagi naydan kelardi. U nayni shu qadar ustalik bilan chaldiki, atrofidagilar huzur ichida tinglashar, nay nolasi

osmonga qadar yetib, qalblarni mumdek eritib yuborardi. Mazkur jigarrang qalpoqli sozanda aslida cho‘pon bo‘lib, nay esa qo‘ylar uchun chalinayotgan edi.

- Qara, qanchalik erta uyg‘onibdi? Kim biladi, bu suruvni qayerlardan boshlab kelyapti? U biz qidirgan inson aslida; lekin ko‘rganing kabi u qo‘ylarning zavqlanishi bilan cheklanib, ishini chala bajaryapti..., - dedi Jin.

Cho‘pon ora-sira uxlab, takror uyg‘onar, uyqusiragan ko‘zlari bilan nayini ozgina chalgach, yana uxlab qolardi.

- Barvaqt uyg‘ongan, ammo tor fikrlayapti. Hech qanday oliy maqsadi yo‘q. Kun tartibida konsert berish fikri yo‘q. Qish kelishi bilan oladigan ozginagina pulga qarab qolgan. Holbuki, u har kuni soatlab nay chaladi, hech kimsa u kabi uzoq vaqt nay bilan shug‘ullanmaydi. U qilishi kerak bo‘lgan ish bor-yo‘g‘i ozgina kengroq fikrlab ko‘rish edi, xolos! U shunday qilmagani uchun umrini qo‘ylargagina nay chalib o‘tkazadi. Hech qachon dunyoning eng yaxshi naychisi bo‘lolmaydi. Kun kelib dunyoning eng buyuk naychisi bo‘lardi balki, ammo u kengroq o‘ylab ko‘rmagani uchun dunyoning eng buyuk naychisini o‘zi bilan qabrga olib ketadi. Ya’ni, ichidagi dahoni kashf etmay turib o‘lib ketadi. Shunday ekan, hatto oddiy cho‘pon bo‘lsang ham, keng fikrla. Va kun kelib sening bir hikoyang bo‘ladi. "Men bir cho‘pon edim. Lekin hech qachon cho‘pon kabi chalmadim. Hech qachon qo‘ylar uchun chalmadim. Esimni taniganimdan beri shu bugun uchun chaldim nayimni. Bugun dunyodagi eng yaxshi nay chalgan insonman. Ishingizga aslo yengil qaramang, doimo katta o‘ylang!" derdi. Shunday qilib, oddiy cho‘pon birgina eski nay bilan o‘zidan keyingilarni maftun qiladigan meros qoldirardi.

Kendin cho‘ponga qarab, Jinning aytganlarini o‘ylardi. U haq edi; ammo haq bo‘lishdan nafratlanardi. Shu sababdan unga

"Haqsan" demadi, ammo ich-ichidan ming martalab hayqirdi:  
"Haqsan... Besh yuzlar kengashidagi Suqrot qadar haqsan!"

Endi tushungandi Kendin. Demak, kam uxlashning o‘zi yetarli emas. Uyquni qochiradigan sabab ham juda muhim. Lekin undanda muhimroq bo‘lgan yana bir narsa bor edi: Nima ish qilishingdan qat’iy nazar, kengroq fikrlashing lozim.



## 8-bob

### UYQU MUHTASHAMDIR

Ikkisi kimsasiz yerda gaplashib yurib borishardi. Kendin bu voqealardan shu qadar ta'sirlangan ediki, birdan:

- Uxlashdan nafratlanaman!, - deb yubordi.

- Hoy, hoy, hoy!..., - Kendinning gapini bo'ldi Jin.

- Aslo bunday deya ko'rma. Uyqu muhtasham mexanizmdir. Agar u bo'lmasa, o'rgangan narsalarning hech qachon yodingda qolmasdi, chunki sen yangi o'rgangan ma'lumotlaringni eng ko'p uyqung davomida mustahkamlab olasan. Uxlayotganingda tanangdagi butun fiziologik va psixologik jarayonlar amalga oshadi. Ya'ni dam olishing, o'zingni ertangi kun uchun tayyor deb his qilishing va hayotingni davom ettirishing uchun mutlaqo uxlashga majbursan.

Kendin hayratda edi.

- Sen emasmiding uxlashimga qarshi chiqqan?

Jin anglashilmovchilikni bartaraf etish maqsadida darhol so'z boshladi:

- Men aslo uxlashimga qarshi emasman. Faqatgina ko'p uxlashimga qarshiman. Ko'p uxlashdan murod 8 soatdan ortiq emas, balki 4 yoki 6 soatdan ortiqdir. Ya'ni "Ideal uyqu davomiyligi 8 soat bo'lishi kerak" deya quduqqa otilgan o'sha toshga jahlim chiqadi mening. Zotan sayohatimizning butun maqsadi ham aslida u toshni quduqdan chiqarib, yo'q qilish va "Ideal uyqu davomiyligi inson uxlay oladigan eng oz muddatdir" toshini miyanga mustahkam o'rnatishdir. Shunda sen bilan birga butun insoniyatning bu bema'ni xurofotdan qutulishini ta'min etgan bo'laman. Agar hech uxlamasang oxiri yo'q muammolar ichida yashaysan. Bundan kelib chiqadiki, nafas olish, suv ichish,

ovqatlanish qanday zarurat bo'lsa, uxlash ham xuddi shunday majburiyatdir. Endi esa senga ajoyib xushxabarim bor: Dunyodagi hech bir inson hanuz tanishib, gaplashmagan biri bilan seni tanishtiraman. U uyqu qirol. Koinotda hech bir maxluqot uyqu mavzusida undan ko'ra ilmi emas...

Kendinning ko'zlarini katta-katta ochgancha ketma-ket savollar yog'dira ketdi:

- Kim u, o'zi qanaqa, necha yoshda, nima yeb, nima ichadi?...

- Sen bilan tengdosh, juda sadoqatli va itoatgo'y, sening miyangda yashaydi. Ismi Gipotalamus. Sen uchun bir uchrashuv belgiladim.

- Qanday?, - dedi Kendin hech nima anglamay. Jin tushuntirishda davom etdi:

- Zo'rg'a ko'ndirdim. Sendan xafa ekan. Gaplashishni xohlamadi; ammo ozgina bosim o'tkazgandim qabul qildi.

Kendinning fikrlari qorishib ketgandi.

- Yaxshi, lekin uning miyamda yashashini aytding. U bilan qanday qilib ko'rishamiz? Ochiqroq gapirsang-chi, xayollarim chalkashib ketdi.

- Eh Kendin! Haliyam inson kabi o'ylayapsan. Unutib qo'yding shekilli, biz hozir mutlaqo boshqa olamdami. Supermen misoli istagan har joyimizga bora olamiz, xohlagan joyimizga kira olamiz. Zamon, makon, umuman, hech narsa bizga to'sqinlik qilolmaydi, - dedi Jin.

Kendinni Gipotalamusning oldiga olib borishdan avval uni o'zidagi kuchga ishontirish maqsadida borish nihoyatda qiyin bo'lgan bir joyga olib borishga qaror qildi. Mana shunda, hech qanday shubha-gumonlarga o'rin qolmaydi. Kendin nafaqat miyaga, balki igna teshigidagi tuyaning o'rkachiga ham kira

olishlariga ishonishi kerak edi. Agar Gipotalamus bilan ichidagi shubha-yu gumonlarni yo‘qotmay turib uchrashsa, bu uchrashuvning hech qanday foydasi bo‘lmasdi.

## 9-bob

### MIXCHI VA BOLG'ACHI

Bu safar bir uyning yotoqxonasida edilar. Xonadagi yotoq g'ichirlar, oppoq ko'rpa qimirlardi. Ko'rpa tagidan kimningdir xurragi eshilib turardi. Kendin jilmayib qo'ydi.

Yotoqda bir ayol uxlab yotar, uning yonida bir kishi ham bor edi. U uxlamayman deya xarxasha qilgan yosh boladek tinmay u yoqdan bu yoqqa ag'darilardi. Kendin taxminida adashmagandi. Aniqki, bu odamning uyqusi qochgan, ko'rpaning qimirlashi sababi ham shu edi. Ajabo, bu odamni uxlashdan to'sgan narsa nima ekan?

Kendin shularni o'ylab turganida u odam chiday olmay yotoqdan sapchib turdi-yu, balkonga chiqdi. U yerda yuqori darajada jihozlangan bir nechta teleskop bor edi. Birining ortiga o'tib, uzoq vaqt osmonni kuzatib turdi. Keyin yana jimgina yotoqqa qaytdi. Tungi soat 4 edi. Takror uxlashga urinib ko'rdi, ammo bu safar ham uddasidan chiqmadi. Matrasning buzuq prujinasidek yotog'idan yana sakrab turdi. Kichik bir qog'ozga "Kechir, azizim!" deb yozib, uni ayolining bosh tomoniga qo'yib qo'ydi va yuzidan o'pib, uydan chiqib ketdi. Kendin Jinga murojaat qildi:

- Kim bu odam, qayerga ketyapti?...

Jin shiftga ishora qilib so'radi:

- Bu yerda oyoq izi ko'rsang hayron qolarmiding?

- Albatta, hayron qolardim... Shiftda oyoq izi bo'lishi g'alati-ku. "Bu yerga o'rgimchak odam kiribdimi?" degan bo'lardim, - dedi Kendin. Kulishdilar. So'ngra haligi odamni izidan ergashdilar.

U odam dunyodagi butun texnikalar shu yerda jam bo'lgandek tassurot uyg'otadigan ulkan binoga keldi. Bino oldidagi haybatli

qo‘riqchilarga "Xayrli tong, janoblar!" degach, tez-tez yurib lift oldiga keldi. Liftni kelishini kutishga toqati yetmay, zinalardan yugurib yerto‘la qavatiga tushdi, yo‘l-yo‘lakay kostyumini yechib oldi. Xona eshigi oldiga yaqinlashgach, cho‘ntagidan bir karta olib, eshik oldidagi uskunaga kimgazdi va eshikni ochdi. Kostyumini bir chetga uloqtirib, kompyuterning yoqish tugmasini bosdi. U yonib ulgurmay ishga kirishib ketdi.

- Aqldan ozaman! Aytaqolsang-chi, nima qilmoqchi o‘zi?, - dedi Kendin Jingga. Bu odam uni barcha narsadan ko‘ra ko‘proq qiziqtirib qo‘ygandi...

Odam xuddi mushuk o‘z o‘ljasini kuzatayotgandek ekranga mixlanib qoldi. Birozdan so‘ng klavishlarni yeyishni boshlasa ham hayron qolmasdi. Soatlab ishladi. Kun yakshanba bo‘lgani uchun boshqa kelganlar yo‘q edi.

Kendin va Jin u odamni kuzatib turganlarida birdan eshik ochildi. Ichkariga yana bir odam sarosimada kirib keldi:

- Salom, - dedi shoshib... U go‘yo o‘z o‘rnidan chiqib ketgan mixni joyiga kimgazib qo‘yish uchun bolg‘a qidirayotgan odamga o‘xshardi. Tezda kompyuterlardan birining oldiga o‘tirdi. Ikkisi ham farzandli bo‘lish arafasida bo‘lgan ayollarini kutayotgandek sabrsizlanishardi.

- Kecha hech ham uxlay olmadim, - dedi ikkinchi kelgani.

- Hmm..., - deb qo‘ydi avval kelgani. "Gap sotma, ishla!" degandek edi bu "hmm". Vaqti-vaqti bilan birini uyqu elita boshlar, boshqasi "Hoy" deb uni uyg‘otib qo‘yardi... Birozdan so‘ng qolganlar ham kelishdi. "Birozdan so‘ng" deganim ertasi kuni ertalab.

Boshidan hammasini kuzatib o‘tirgan Kendin, 13 kishining bitta velosipedga minib olganini ko‘rgan odamdek:

- Bularning hammasi aqldan ozibdi!, - deb yubordi.
- Shubhasiz..., - dedi Jin va jilmayib davom etdi:
- Ularning kimligini bilishni rosa xohlayapsan-a?
- Ha-da, albatta!, - javob berdi Kendin.
- Bilasanmi, do'stim, ularning o'zlari ham hali kim ekanliklarini bilmaydilar, ammo birozdan so'ng bilib olishadi, - deya Jin Kendinning fikrlarini battar qorishtirdi.
- Iltimos, meni tezroq o'sha "birozdan so'ng"ga olib bor!, - yolvordidi Kendin.
- Yaxshi, - dedi Jin.

Ko'p o'tmay "birozdan so'ng"ga ketdilar. Kendin avval sira ko'rmagan tekis va bo'm-bo'sh yerda edilar. Tunmidi, kunduzmi, farqiga bormadi.

- Nimalar bo'lyapti, bu yer qayer o'zi?, - dedi shoshib. Yaqin atrofda ulardan boshqa tirik jon yo'q edi. Atrofda hayot asari ham ko'rinmasdi. Kendin atrofni kuzatib turgan vaqt birdan o'sha atrofda qandaydir shovqin-suron ko'tarildi. Shovqin ortidan ustlariga to'g'ri kelayotgan g'alati jism paydo bo'ldi. Bu hamma joyi yoritilgan, yaxlit va ulkan metall uyumi edi. Temir qush quloqni qomatga keltirib, chang-to'zon ichida tekislikning qoq markaziga qo'ndi. So'ngra chang tarqalib, u ajoyib narsaning kumush kabi porlagan eshigi ochildi. Yerga zinapoyalar tushirildi. Oq, qalin kiyim kiygan odam og'ir qadam tashlab zinadan pastga tushib kela boshladi. Oyog'ini yerga qo'yib, yana bir odim tashlagandan so'ng ortiga o'girilib shunday dedi:

***- Bu qadam bir inson uchun kichik, ammo insoniyat uchun buyuk bir qadamdir.***

Bu o'sha edi. Biroz avval uyquasi kelmay, dunyoning yo'qolgan mixini topish maqsadida yarim kechasi hamma narsadan voz

kechib yo‘lga tushgan inson... So‘ngra zinada yana biri paydo bo‘ldi. Kendin uni ham tanidi. Mixga bolg‘a topish uchun yelib-yugurgan odam edi unisi.

O’sha yerning o‘rtasiga katta bayroq o‘rnatgach, yosh bola singari ko‘ngilxushlik qilishni boshlab yubordilar. Kendin shunday ta’sirlangan ediki, ular bilan barobar yugurdi, jo‘shdi, o‘zidan kechdi go‘yo... O‘yin-kulgi bitgach, Jin Kendinni yoniga chaqirib, yerdagi oyoq iziga ishora qilib so‘radi:

- Shiftda oyoq izini ko‘rsang, hayron qolarmiding?

- Yo‘q, albatta, - dedi Kendin.

- Uyquni qochiradigan maqsad mana shunday bo‘ladi. Kechani kunduzga ulab ishlaysan. Oyga kelib, oyoq izingni qoldirasan. So‘ng seni "Oyga chiqqan ilk inson" deb ataydilar. Neil Armstrong bo‘lasan, Buzz Aldrin bo‘lasan, Maykl Kollins bo‘lasan... Ismingni "eng, eng, eng" lar qatoriga yozadilar. Hamma hayron qoladi. Buni qanday qilganingga qoyil qolishadi. Sen faqatgina jilmayib qo‘yasan. Nima uchun bunchalik hayratlanayotganlarini tushunmaysan. Hech kimsa sening eng buyuk siring ishlashdan boshqa narsa emasligini taxmin qilolmaydi.

Bu orada mixchi va bolg‘achi bir-birlariga qarab o‘zlarining eng buyuk sirlari haqida o‘ylagancha jilmayishardi.

## 10-bob

### OQ OTLI VA UNING QILICHI

Keng bir maydonda Jin va Kendindan tashqari hamma dod-faryod solar, insonlar qiyomat qoyim bo'lgandek yugurishardi. Havoda o'qlar uchar, yosh tanalarni quvib yetib, ilma-teshik qilardi. Sovuq, muzdek o'qlar... To'pponchadan, miltiqdan chang-to'zon ichida otilgan har bir o'q bir insonning hayotiga nuqta qo'ygan ayanchli qirg'in edi bu.

Urush edi, qon edi, dod-faryod edi. Kim biladi bu qancha davom etadi: kunlab, oylab, balki-da yillab davom etar?... Balki aslo tugamas u bo'ron-la musobaqalashgan o'q yomg'iri. Qanchalik ko'rinmas bo'lmasin, Kendin ham inson edi. Holsiz Jinga suyanib qoldi. Jin ham sarosimaga tushgandi. Maydonda shunday bir dahshat bor ediki, quyosh nurini, osmondagi bulutlarni, yerdagi tuproqni to'sib qo'yardi. Bu kun ilk bora chumolilar ham uyalaridan chiqishmagandi. Azroil oppoq otning ustiga mingan holda, qilichining uchida ajal tarqatib yurardi go'yo.

Jin Kendinning qo'lidan ushlab, yuqoriga chiqardi. O'qlar, qilichlar bo'lmagan joyga... Urushni kuzatdilar. Kendin daryo-daryo oqqan qonni ko'rib, qizil rangga nisbatan ich-ichidan nafrat his qildi.

- Ketaylik bu yerdan!, - dedi Jinga.

- Sabrli bo'l, do'stim, uzoq qolmaymiz. Ko'p o'tmay ketamiz; ammo ketayotib qo'limiz bo'sh bo'lmasligi kerak. Kuzat bu odamlarni, inson istasa nimalar qilolmaydi, qara!

Kendin jimgina qarab turdi. Qo'llar, oyoqlar, ruhlar, hayotlar, insonga doir nima bo'lsa, hammasi havoda uchardi. Ozgina ortga chekinib, bu manzaraga takror qarasang, bu safar qo'l yoki oyoq emas, balki buyuk bir rassomning ishonch mavzusida faqatgina qizil rangdan foydalanib chizgan ulkan suratini ko'rarding. U



ikkovlon esa go‘yo surat boshida turib, fikr bildirayotgan intellektual insonlarga o‘xshardilar. Jin so‘rab qoldi:

- Ayt-chi, sen bundan-da yomonroq vaziyatni xayolingga keltira olasanmi?

- Yo‘q, - dedi Kendin o‘ylab o‘tirmay.

- Men ham, - dedi Jin va davom etdi:

- Insonlar kunlab yemay, ichmay, bir zum tin olmay urushadilar. Nafas olishning o‘zi ham tavakkal bu yerda.

Ular suratga boqib gaplashib turganlarida ba’zi askarlar vaqti-vaqti bilan ortga chekinib, yarim soat, ko‘pi bilan bir soat uxlab olar, so‘ngra uyg‘onib yana jang qilishda davom etardi. Fursat topishsa, boshqalari bilan o‘rin almashishardi. Atrofda uxlash uchun na yotoq, na boshqa narsa bor edi. Munosib bir chuqur topsalar, miltiqlarini quchoqlab, tepkisini barmoqlariga bog‘lagan holda uyquga ketishardi.

Kendin yotog‘i qonli havza, ko‘rpasi o‘q yomg‘iri bo‘lgan bu jangchilarning uxlashini tomosha qildi. Uxlab yotardilar. Qattiq charchoqdan so‘ng uxlaganlariga qaramay hurrak otganlar yo‘q edi. Kendin Jinga qarab:

- Urushga chaqirilgan askarlarni hurrak otmaydiganlardan tanlaydilar mi?, - deb so‘rab qoldi.

Jin ko‘rinib turgan manzaraga hech yarashmagan bir vaziyatda qahqaha otib kuldi. So‘ngra birdan to‘xtadi.

- Yo‘q, albatta. Urushda qo‘llaniladigan o‘qlar quloqlari eng yaxshi eshitadiganlardan tanlanadi...

Davom etarkan, Jin ma’yus jilmayib qo‘ydi:

- Bu insonlarning har biri boshqa hududdan, turli o‘lkalardan kelishgan bu yerga. Hech kim o‘rganib ketish uchun muddatga

ehtiyoj sezmaydi. Kelish vaqtlari bilan yeyishdan, ichishdan, uxlashdan uzilgan onlari bir bo‘ladi.

So‘ngra tun qorong‘usida yerga qarab ochiladigan qandaydir eshikdan ichkariga tushdilar. Ichkarida 4 odam bor bo‘lib, siniq bir stol atrofida gaplashishar, ko‘zlarida o‘t yonib turardi. Ovoz chiqarmay, pichirlab maxfiy so‘zlashardilar. "Chanoqqal'ani berib qo‘ymaymiz!" dedi oralaridan biri. Uning gapi tugamay ayni shu jumla bir o‘q ila miltiq uchidan dushman tomon uchdi.

Jin shunday dedi:

- O‘lim yoqasida turarkan, inson uxlash u yoqda tursin, hatto nafas ham ololmaydi. Ba’zida urushlar yillab davom etadi, muddatning ahamiyati yo‘q. Bu insonlar 1000 yil nafas olmay yashashga ham tayyor. Ko‘p holatlarda uyidagi rohat-u, issiq yotog‘iga ham rag‘bat qilmagan bu insonlarning ayni damda aqliga uxlash kelarmidi?

Kendin tushundi... Endilikda u ushbu fidokorlik mo‘jizasini juda yaxshi anglay boshlagandi. Bu orada uning ko‘zi oq otiga minib, askarlar ortidan ergashib yo‘lga tushgan qilichli odamga tushdi. Uning qilichi uchida 300 ming ajal bor edi...

## 11-bob

### UZUMNING TAQDIRI<sup>1</sup>

"Chanoqqal'a urushi"ga guvoh bo'lgan Kendin beixtiyor o'zining harbiy xizmatda o'tgan kunlarini xotirladi. Armiyada bir kunda bor-yo'g'i 2 soat uxlab 22 soat davomida jang qilgandi. Bu naq 1 yil davom etgandi. Terror avj olgan zamonlar edi. Kendin minglab askarlar bilan bir safda kecha-kunduz tinmay terrorchilarni ta'qib qilgandi. Shular esiga tushib Jinga:

- Bilasanmi, Jin? Men ham naq bir yil davomida kunda bor-yo'g'i 2 soat uxlab 22 soat jang qildim. Yurtim uchun jang qildim. Yolg'iz emasdim, albatta. Mingdan ortiq edik. Sira uyqumiz kelmasdi... Uyga qaytgan chog'larim esa Jahon chempioni bo'lgan kurashchi singari kuchli va sog'lom edim. Armiyaga ketishdan avval ba'zi kamchiliklarim bor edi. Qaytganimda esa ularning baridan xalos bo'lgandim.

Jin Kendinning gapini davom ettirdi:

- So'ngra uyga qaytding. Anchagacha shu tarzda yashading, to'g'rimi?

- Ha, aynan shunday bo'ldi. Yarim tunda o'z-o'zimdanda uyg'onib ketar, qaytib uxlay olmasdim.

Jin kulib davom etdi:

- Lekin ko'rdingki, hamma uxlayapti, uyg'oq bo'lishning hech bir foydasi yo'q. "Yaxshisi men ham uxlay qolay, tartib buzilmasin!" deya uxlashni davom ettirding. Ya'ni, uzum uzumga qarab qorayadi.

Kendin voqealar rivojidadagi bir detal esiga tushgandek:

---

<sup>1</sup> Bu yerda turk maqollaridan biriga ishora qilingan. Turklarda "Üzüm üzüme baka baka kararır" (Uzum uzumga qarab qorayadi) degan maqol bor. Ma'nosi shuki, do'stlar yoki bir-biriga yaqin insonlar fe'l-atvor jihatdan bir-birlarining odatlarini o'zlashtiradilar. O'zbek tilida "Qovun qovundan rang oladi" maqoliga to'g'ri keladi.

- Hatto uyga qaytgan ilk kunlarim uyqum kelmasa ham yotoqqa kirib uxlashga harakat qildim, o‘zimni 8 soat uxlashga majbur qilish uchun anchagacha ovora bo‘ldim, - dedi.

- Demak, armiyadan qaytganingda insonlarning tabiati buzilib, 15 soat uxlashni boshlagan bo‘lsalar, sen ham shuncha uxlagan bo‘larding, yolg‘onmi?

Kendin hijolat bo‘lib, javob berdi:

- O‘ylashimcha, rost...

- Endi esa aksini tasavvur qil! Agar xizmat qilgan o‘sha joyingda tug‘ilganingda necha soat uxlagan bo‘larding?

Jinning aytmoqchi bo‘lgan fikrini tushungandi Kendin:

- Ikki.

- Bu sen uchun normal uyqu muddati bo‘lardi. Harbiyda kam uxlarding; chunki tepangda o‘lim dahshati turardi, ammo sira o‘ylab ko‘rmading! Sen og‘ir vaziyatlarda ikki soat uxlay olasan, bu esa sening normal zamonda ham buni amalga oshira olishingni isbotlaydi.

Jin Kendinga yanada yaqinlashib, ishning asl sirini oshkor qilmoqchi bo‘lgandek bir alfozda davom etdi:

- Inson ikki tuyg‘udan biri bilan qarshilashganida, toki ular tugab bitmaguniga qadar uyqusini Mariana botig‘ining eng chuqur yeriga ko‘madi. Biri "o‘lim qo‘rquvi" bo‘lsa, boshqasi "ishq"dir. Aslida ikkisini umumiy qilib "ishq" desak ham bo‘ladi. Chunki "o‘lim qo‘rquvi" deganing hayotga bo‘lgan muhabbatdan boshqa bir narsa emas. Xulosa qilib aytamanki, buyuk bir ishq domiga tushsang, ikki soat uyqu ham senga yetadi. Ammo senda bunday ishq bo‘lmagani sababli yana ikki soat qo‘shaman: jami 4 soat bo‘ldi.

Kendin Jinni qiziqish bilan tinglardi.

- Shundan bo‘lishiga qaramay, siz uyalmasdan bu muddatga yana 4 soat qo‘shib, normal uyqu muddati 8 soat deya da’vo qilasiz. 8 soat uxlay olmagan kuningiz "Bugun rosa charchadim, yaxshi uxlay olmadim" deb bo‘lmag‘ur bahonalar keltirasiz.

Jin gapirarkan, Kendin uning aytganlari haqida fikr yuritardi. Jin tamoman haq edi. Kendinning har kuni 8 soat uxlashi oddiygina bir xurofot natijasi edi. Jin so‘radi:

- Hozir boshingga to‘pponcha tirab, "Bundan keyin 2 soat uxlaysan, agar 3 soat uxlasang otib tashlayman!" desam, ishonaver, kunda faqatgina 2 soatlik uyqu bilan umringning oxirigacha yasharding. Xo‘sh, unda bir kun kelib bu dunyoni tark etishingni va vaqtni aslo ortga qaytara olmasligingni bila turib, bu qurolga ehtiyoj sezayotganing haqida hech o‘ylab ko‘rmaysanmi?

Savolning to‘liq tushunilishi uchun Jin biroz sukut saqladi. Kendin javob qaytarmay jim tinglardi. Jin yana davom etdi:

- Faqatgina bir oy umring qolgan bo‘lsa, yana bir kunda 8 soat uxlay olarmiding? Umringni so‘nggi oyidasan... Menimcha bilmasang kerak, ammo o‘lim istalgan vaqt kelib qolishi mumkin.

- ...

- ... Har oningni eng so‘nggisi kabi qabul qilishing kerak. Cho‘pon yoki prezident ekanliging hech nimani o‘zgartirmaydi. Nima ish qilsang qil, ammo qilgan har ishingni eng so‘nggisi deya qabul etishga o‘rgan. O‘lganingda kimdir senga "Eng oxirgi daqiqada nima qilayotganding?" desa, "Uxlayotgandim!" deyish seni hijolatli ahvolga solmaydimi? Qilayotgan har bir ishingni oxirgi marta qilyapman deb o‘yla va shunday yasha!

- Turk harbiylarining bir odati bor, balki eshitgandirsan. Qo‘mondonlari aytadi: "O‘limdan so‘ng yana bir qadam

tashlashing kerak!" Endi esa shu insonni tasavvur qil, o'lganidan so'ng unga biri "Eng oxirida nima qilayotganding?" desa, "Jang qilayotib o'ldim" deyish o'rniga "O'lgandan so'ng ham jang qildim!" deb javob beradi. Shunday ekan, har on go'zal oqibat uchun kurashasan. Nay chalasanmi yoki davlat ishi bilan mashg'ulmisan, sen hamisha finaldasan. Qo'ylar tushunmasa ham naying soz holatda bo'lishi kerak; chunki bu qo'ylarning emas, sening finaling...

## 12-bob

### TOMCHIGA JO BO'LGAN OKEAN

Nihoyat Gipotalamus bilan ko'rishish vaqti kelgandi. Kendin sabrsizlanar, o'zini qo'ygani joy topolmasdi. Kendinning yotoqxonasida paydo bo'ldilar. Ishonish imkonsiz, ammo Kendin yotoqda uxlab yotardi. Bu nimasi, qanaqasiga bunday bo'lishi mumkin?... Tarsaki yegan o'sha kunda Jin bilan birga g'oyib bo'lishmaganmidi axir? Kendin qo'rqib:

- Bu kim? Men kimman?, - deb so'radi.

- Sen va u. Ikkingiz bir insonsiz. U kechagi sen, sen esa bugungi sensan. Ikkingiz birlashib, ertangi Kendin bo'lasiz. – Jin javobiga qo'shimcha qildi, - Endi esa tinchlanib ol va uxlab yotgan Kendinning burnidan sekingina ichkariga kir!

- Qanday qilib? Bu imkonsiz!

- Aytganimni qil! Nafas olgan paytida ohista yaqinlash va o'zingni bo'sh qo'y. Xavotirlanma, men ham yoningda bo'laman.

Kendin ilk parvozigiga hozirlik ko'rayotgan qush kabi bezovtalanardi.

- Menga ishon. Seni oyga olib chiqqan men emasdim axir?

Kendin Jinning bu gapidan keyin biroz xotirjam tortdi. Xurрак otib uxlab yotgan Kendinning burniga yaqinlashdi. Yaqinlashishi va ichkariga kirishi bir vaqtning o'zida sodir bo'ldi. Ayni shu vaqt Jin ham burundan ichkariga kirdi. Ular kislorod molekulasi singari cheksiz bo'shliqda sas-sadosiz sayr qilib yurardilar.

Kendin ufq chizig'ini ilg'ab bo'lmaydigan, g'adir-budir shakldagi bepoyon, chek-chegarasi ko'rinmaydigan bir dalaga tushib qolgandi. Yonida esa Jin...

- Bizga nima bo‘ldi? Gipotalamusning yoniga bormoqchi edik-ku? Qayerga kelib qoldik yana?, - dedi Kendin yo‘qolib qolishdan cho‘chiyotgan yosh bola kabi.

- To‘g‘ri joyga keldik, do‘stim, - dedi Jin. Ovozida o‘ziga ishonch sezilib turardi:

- Bu yer – o‘sha joy.

- Qanaqasiga, biz kichrayib qoldikmi?, - dedi Kendin ancha xotirjam ovozda.

Jin:

- Bu qanday idrok etishingga bog‘liq. Sening miya deganing koinotdagi eng katta bo‘shliqdir. Bir uchidan narigi uchiga borish uchun minglab umr kamlik qiladi. Hozir Gipotalamusga eng yaqin yerdamiz.

Kendin hayajonlanardi.

- Yaxshi, unda tezroq bora qolaylik!

- Bu yerda uni qidirishga urinsak, adashib qolamiz. Shuning uchun, mana shu yerda kutish eng oqilona yo‘l. Ustiga-ustak, buning nomini "miya" deydi. Butun insoniyat olamining asrlar davomida o‘rganishga harakat qilgan o‘sha super mexanizm. Bizni ko‘rinmas qilgan ham u. Agar haddimizdan oshsak, boshimizga bir balo orttirib olamiz, - deya Kendinni ogohlantirdi Jin. So‘ngra bir necha soniyalik sukutdan so‘ng inson miyasiga bo‘lgan hayratini so‘zlarga joylab, gapirishda davom etdi:

- Buning nomi "miya". Barcha zamonlar uchun eng zaruriy va sirli qism. Endi shu yerda qimirlamay, jimgina kut!

Kendin ishning jiddiyligini tushungan ko‘rinadi, 120 yildan ortiq vaqt mobaynida qimir etmay turgan "Ozodlik haykali"dek jimib qoldi...



Ko'p o'tmay birov paydo bo'ldi. U g'adir-budir dalada og'ir qadamlar tashlab, sudralib kelardi. Jin va Kendin tomon kelayotgani aniq, ammo ovqat yeyishga majburlangan bola kabi hafsalasiz ko'rinar, asabiy ekani 300 yillik yo'ldan ham shundoq sezilib turardi. Yaqinlashdi. Ko'rinishi 100 yil oldin ilingan kirga o'xshab ketardi. Qo'rquvdan Kendinning rangi oqarib ketdi. Jinning qulog'iga sekingina pichirlab:

- Shumi yo'qsa, Gipotalamus deganing? Bizning tilda gaplasha oladimi?, - deya so'ragan ham ediki,

- Salom!, - deb qoldi birdan haligi asabiy maxluqot.

- Salom, - dedi Kendin ham bulutsiz kechada to'lin oy kabi porlagan yuz ifodasi va ovoz bilan. Jin ham yetarlicha ishonch va xotirjamlik bilan:

- Salom, - dedi.

- Ismim Gipotalamus.

- Men esa Kendin..., - deya boshlagandi hamki, Gipotalamus:

- Bilamiz, bilamiz..., - deb Kendinning so'zini kesdi.

Cho'ntagidan sigaretga o'xshash bir narsa olib uchini yoqdi. Atrofga tutun oraladi. Sigaretga o'xshash narsa chindan ham sigaret ekan. Gipotalamus qilayotgan bu ishi odatiy holdek:

- Xo'o'o'sh, - dedi, ming yil daraxtni tagida yashagan donishmand kabi... Kendinning bu holatga achchig'i chiqdi:

- O'chir shuni! Bu yer mening miyam. Bunday qilishga haqqing yo'q.

Harsillaganicha tez-tez nafas olayotgan Gipotalamus unga achingandek boshini qimirlatib qo'yib:

- Yo'g'e?... Demak, bu yer sening miyang, shundaymi? Endi esingga keldimi miyang borligi? 30 yildan beri shu yerdaman,

sen esa bir marta bo'lsin, "Mening miyam bor, shu bilan ozroq qiziqib ko'ray!" demading. Telefoningga bergan e'tiborni mingda birini ham miyanga bermading. Nega, bilasanmi?

- ...

- Shoshma, o'zim aytaman; chunki miyang tekin!... Bahosi trillion dollardan ham ziyoda bo'lgan bu muhtasham xazinaga hech qanday evaz-badalsiz ega bo'lding. "100" berib, telefon olding, "hech narsa" berib, miya olding. Lekin sen uchun o'sha "100" doim qadrlil bo'lgan..., - dedi va o'rnidan turdi. Sigaretini yerga tashlab, ustini bosdi.

- Tugagani uchun o'chirdim, - dedi u o'smirlik davriga endigina qadam qo'ygan bolaning otasiga isyonini eslatadigan nigoh bilan. Shu payt birdan zilzila bo'lgandek yer silkindi va ular dumalab ketishdi.

- Nima bo'ldi?, - so'radi Kendin. Gipotalamus xotirjam qiyofada:

- Hech narsa, biz o'rganib qolganmiz, - dedi va davom etdi:

- "Uxlayotganida faqat bir tomoni bilan yotsa, behol bo'ladi, mushaklari zarar ko'radi" deya do'stlarim uni boshqa tomonga o'girdilar. Ya'ni, Janob Kendin, bu sizning sog'lig'ingiz va rohatingiz uchun amalga oshirilgan bir dastur.

- Haa, unda yaxshi..., - dedi Kendin Jindan tasdiqlashini kutib.

- Yaxshi bo'ladi-da, albatta. Sen rohat va qulaylikni sevasan-ku..., - dedi Gipotalamus. Jin ham kulimsirab turardi. Kendin hech narsaga tushunmagandi:

- Nimalar bo'lyapti o'zi? Menga ham tushuntirsangiz-chi!

"Aytish vaqti keldi" degandek Jin va Gipotalamus ko'z urushtirib olishdi.

- Eshitishim bo'yicha, mendan ranjigan emishsan, senga nima qildim?, - dedi Kendin.

Gipotalamus bir necha soniyaga jim bo'lib Kendinga qarab qoldi. Uning nigohlaridan "Sen hayotimni barbod qilding, meni mahv etding" kabi ma'nolarni uqish mumkin edi. So'ng qaddini rostlab, nasroniy mahkamalaridagi singari chap qo'lini ko'tarib qasam ichgan guvohdek so'z boshladi:

- Endi quloqlaringni och-da, meni yaxshilab tingla!

Kendin hayratda edi, chunki Gipotalamusning nutqi insonning izmidagi boshqa bir organ bo'lgan bosh barmoqning gapirishidek gap edi. Ustiga ustak, u ta'lim berayotgandi.

- Sen tug'ilgan vaqt men senga mas'ul qilib tayinlandim. Sening uyqung, tana harorating, ochlik yoki to'qlik hislaring, jinsiy faoliyatingni boshqarish vazifasi menga topshirildi. Men o'z jamoam bilan birga kelib, senda ishlay boshladim. Umidim katta edi. Jamoam bilan birgalikda tezkor majlislar o'tkazdik, bir qator qarorlar qabul qildik... Miyangdagi muhtasham klinikaning bosh shifokori sifatida menga bog'liq holda ishlaydigan Doktor NRem va Doktor Rem bilan birgalikda sening uyqungni rejalashtirar edik. Normal sharoitlarda butun insoniyat o'zining yaratilish nuqtayi nazaridan uyqusi kelishi bilan yotadi va jamiyki gipotalamuslar o'sha o'zlari mas'ul bo'lgan kishining uyqusi kelganini anglab, jamoalari bilan uni uxlatadilar. Uyg'onmoqchi bo'lganda esa ayni shu jamoa uni zarar yetkazmay uyg'otadi.

Kendinning o'zi shifokor bo'lgani uchun Gipotalamusning aytganlarini yaxshi tushunardi. Ammo shu kunga qadar hech eshitmagan yangi narsalarni eshitishiga ham shubhasi yo'q edi. Dr. Gipotalamus butun sinf ichida uni diqqat bilan tinglayotgan yagona o'quvchini qo'lga olgan muallim kabi tushuntirishda davom etdi:

- Avvaliga yangi tug‘ilganing uchun uyqung uzoq muddatli bo‘lardi. Uxlashing kerak bo‘lgan eng oz muddat 14 soat bo‘lishi lozim edi. Ulg‘ayganing sari bu ehtiyoj kamayar va biz davriy ravishda kunlik uyqu vaqtingni 4 soatga tushirishimiz kerak edi. Lekin ishon, biz bularning hech birini amalga oshirolmadik. Chunki onang qachon qarama seni oyoqlariga yotqizib, tebratishni boshlardi.

Kendinning onasiga bo‘lgan kuchli muhabbati uning yonini olish maqsadida aytilgan bir jumлага aylandi:

- Biroq dunyodagi jamiyki onalar farzandlarini tebratib uxlatadilar. Bu normal holat emasmi?

Kendin yana xato gapirib qo‘yishdan xavotirlanib, gapini savol bilan tugatgandi. Gipotalamus jilmaygancha davom etdi:

- Zotan, men ham senga shu normalni aslida normal emasligini tushuntirishga harakat qilyapman. Miyangning ishlash prinsipiga ko‘ra tanang gorizontol holatga o‘tganida biz darhol uyqu gormonlarini ishlab chiqarish orqali seni uxlatamiz. Bu amr bizga butun koinotning hakimi bo‘lgan Zot - Alloh taolo tomonidan rad etilmas qilib berilgan. Shu sababli, onang yoki boshqa birov seni oyog‘ida tebratishni boshlasa, biz seni uxlatardik. Ko‘pincha uxlamaslik uchun yig‘larding, chunki o‘zing istamagan bir narsaga majbur qilinayotganding. Ular esa har safar uyqing kelgani uchun yig‘layapsan deb o‘ylashardi va sen ma‘lum bir vaqtdan so‘ng uxlab qolarding. Onalar ham o‘zlarining haq ekanlariga shubha qilmasdilar, chunki ular tebranaverib boshing aylangani uchungina uxlab qolganingni bilishmasdi.

Go‘dakliging tebranish bilan o‘tdi. Shunday bo‘lgandan keyin biz har safar barcha majlislarimizni yarmida to‘xtatib, seni uxlatish uchun jamoa sifatida joylarimizni egallab, ishimizni qilishga majbur bo‘ldik.

Kendinning butun vujudi quloqqa aylangandi. Nafas olmay Gipotalamusni tinglardi.

- Biroz avval "Tanang gorizontol holatga o'tganida biz uyqu gormonlarini ishlab chiqarib, seni uxlatishga majbur edik" dedim-ku, biz har safar buni mukammal ravishda bajarardik, chunki, aralashishga haqqimiz yo'q edi.

Gipotalamus tana harakatlari bilan so'zlarining ma'nosini kuchaytirishga harakat qilardi. Tana deganda shuni ham aytishim kerak: Gipotalamus go'yo tushlikda teng yonli uchburchakni ko'ndalangiga yutib yuborgan odamga o'xshardi. Uchburchakka ip bilan omonatgina ulab qo'yilgandek turgan mittigina qo'lchalari boshining nega bu qadar kichik ekanining javobini berardi.

- Yotganing uchun yuborilgan gormonlar onangning seni tebratishi tufayli tebranish hodisasiga ham bog'lana boshladi. Oxirida esa ish shu holga keldiki, endi sen normal holda tebransang ham biz gormon ishlab chiqara boshladik. Biroz oldinga ketib shuni ham ayta olaman: Avtobusda uyqing kelishi ham shuning natijasidir. Ya'ni endi gorizontol holatga o'tishingning hojati yo'q, avtobus tebranishining o'zi uxlab qolishing uchun kifoya qilardi.

Kendin o'z haqiqati bilan yuzlashib turar, butun hayotini birma-bir ko'z oldidan o'tkazib, Gipotalamusning aytganlari bilan o'tmishini qiyoslardi. Vaqti kelganda oshkor qilish uchun hayratini ichiga yashirgandi.

- Bundan battarroq'ini ham aytaymi? Cho'zilib kitob o'qiganingda ham tanang gorizontol holatga o'tgani uchun biz seni uxlatamiz. Bundan so'ng na tebranishingga va na yotishingga hojat qolmaydi. Kitobni qo'lingga olishing bilan uyqing keladi. Chunki, sen o'qish jarayonini yotish bilan bog'liq

holda amalga oshirarding, biz esa shunchaki o‘z ishimizni bajaramiz xolos. Yotganing uchun uyqu gormonlarini yuboramiz. Shunda qo‘lingda kitob bo‘lishi bu gormonal muvozanatning taqdirini hal etadi.

Kendinning xayollari qarishib ketdi. Miyasida go‘yo bir dengizchining arqoni bor edi-yu, unda tugunlar hosil bo‘lgandi. Bu holatni sezgan Gipotalamus ham o‘sha tugunlarni yechish uchun gapirayotgandi.

- Ya’ni yotgan payting biz seni uxlatishga majburmiz. Sen shu asnoda nima qilayotgan bo‘lsang, keyinroq ayni shu ishni yotmasdan turib qilsang ham biz seni yana uxlatamiz. Masalan, televizorni ham yotib olib ko‘rishga odatlanganing uchun shu holatda ham uyqung keladi.

Kendin uyqusining aslida bir meros ekanini angladi.

- Ortimdan yuring!, - dedi Gipotalamus. So‘ngra u Jin va Kendinni "texnologiya mo‘jizasi" deya atash mumkin bo‘lgan parkning qoq markaziga, o‘z davrining eng buyuk me‘mori tomonidan qurilgan "Suvaysh" ga o‘xshash bir kanal bo‘yiga olib keldi. Kanaldan favqulodda tezlik bilan oqayotgan suvning ichidagi qizil to‘plarga ishora qilib:

- O‘zingizni shulardan birining ustiga tashlang!, - dedi.

Kanalga birinchi bo‘lib uning o‘zi sakradi. Kendin va Jin birbirlariga qarab qolishdi. Jinning nigohlarida "Hoziroq sakra, bo‘lmasa uni yo‘qotib qo‘yamiz!" degan ma’noni uqish mumkin edi. Kendin vaqt yo‘qotmay o‘zini kanalga otdi, Jin ham darhol uning ortidan sakradi. Noma’lum tomonga qarab, bilmam necha kilometr tezlikda davom etayotgan bu safar, yengilgina qo‘nish bilan katta bir xonaning o‘rtasida o‘z nihoyasiga yetdi.

Bu yer "Ma’lumot to‘plash va tahlil qilish markazi" ekan. Bu markazda miqdorini biz bilgan raqamlar bilan hisoblab

bo'lmaydigan darajada ko'p xizmatchilar bor edi. Har bir xizmatchining qo'lida esa eng kattasi soqqadek keladigan yuzlab shisha sharchalar... Xizmatchilar bu mitti sharlarni birma-bir tadqiq etar, so'ngra turli ranglarga bo'yab, ranglariga ko'ramas'ul xodimlarga tarqatardilar. Masalan, qizil sharlar qizil xizmatchilarga va hokazo... Ular sharlarni go'yo har birining ichiga bir dunyo yashirilgandek taassurot uyg'otadigan hassoslik bilan bir eshikdan olib chiqib, boshqa joyga tashishardi.

Gipotalamus bu jarayonni tushunolmay qarab turgan Kendin va Jinga xizmatchilar chiqayotgan eshikni ko'rsatib:

- Har bir qilgan ishing shu yerda baholanib, anavi eshik ortidagi arxivda yig'iladi, - dedi.

Gugurt qutisiga quyoshni sig'dirgan odamni ko'rgandek hayratda edilar. Arxiv eshigiga yaqinlashdilar. Eshik ochildi.

- Bu nima bo'ldi?, - deb yubordi Kendin; ammo bu jummalarni o'z xohish-irodasi bilan emas, balki es-hushidan ayrilmaslik uchungina aytgan edi! Go'yo ko'rganlari qarshisida o'zining shu vaqtga qadar o'rganganlari imperator amri ila Rimning o'lim maydoni bo'lmish Kolizeyda 2000 yildan beri och qoldirilgan sherning oyoqlari ostiga tashlangandek his qildi.

Kendinning es-hushini o'g'irlagan narsa bu dunyodagi eng tartibli va qoyilmaqom arxiv edi. Bu arxivda chap va o'ng tomondan tashqari yerdan yarim metr balandlikda hech qanday mexanizmga ehtiyoj sezmay havoda muallaq turgan, taftish qilish uchun tayyorlab qo'yilgan, dunyoning eng intizomli qo'shini singari mukammal tartib ichida har biri kattagina xonaga bemalol sig'adigan trillionlarcha shisha sharlar bor edi. Bu ulkan sharlarning har biri, o'rta yoshli insonning boshidek keladigan kichikroq shisha sharlar bilan limmo-lim to'la edi. O'z navbatida, bu sharlarning ichida ham dunyodagi jamiyki matematiklar yig'ilsa-da, sanog'ini hisoblay olmaydigan rang-barang mitti

shisha sharchalar bor edi. Katta yoki kichik bo‘lishidan qat’iy nazar, har bir shar bu arxivda raqamli axborot shaklida qabul qilinardi. Bir-biriga bog‘langan bu hujjatlarning orasida paydo bo‘lgan bo‘shliqlar suvga o‘xshash qandaydir bir suyuqlik bilan muhofaza etilar, barcha sharlar haddan tashqari tez aylanardi.

Boshni aylantirib qo‘yadigan bu raqamli hujjatlarning har biri yillariga ko‘ra ajratilib, haftalik, hatto kunlik rejalar shaklida, sanasiga qarab tartiblangan edi. Chek-chegarasi bo‘lmagan arxiv xonasi edi bu. Sanab sanog‘iga yetib bo‘lmaydigan bu hujjatlarning har birining boshida o‘nlab arxiv xizmatchilari yangi tug‘ilgan chaqaloqning yuragi singari bexato, mukammal ravishda ishlardilar. Kendin hayratdan yoqa ushladi.

"Arxiv" dan boshqa so‘z bilan ifoda etish imkonsiz bo‘lgan bu noodatiy makonni Jin va Kendin tomosha qilib yurishardi. Bu orada Gipotalamus Dr. NRemni chaqirtirdi. Doktor Gipotalamus qarshisiga kelib, unga "Tezroq gapir, ishim bor!" degandek tikildi. Dr. Gipotalamus unga bir ko‘rsatma berdi:

- Ishimiz biroz cho‘zilishi mumkin. Siz odamni chalg‘iting, u uyg‘onib qolmasin. Ha, yana narigi tomonga o‘giring, chap oyog‘ida uvishish bor...

So‘ngra yana zilzilaga o‘xshash shaklda yer silkindi. Kendin bezovtalanib, arxivdagi hujjatlarga qaradi, lekin qo‘rqan narsasi sodir bo‘lmadi. Ular na tushib ketdi va na qulab tushdi.

Gipotalamus arxiv bosh xodimini chaqirib, unga:

- 82216 DBKE 70186 qayd raqamli hujjatning 5233 sonli fayllarini keltir!, - deb buyurdi. Xizmatchi "Tushundim, xo‘p bo‘ladi, amringiz bosh ustiga!" yoki shunga o‘xshash biron nima demay, Buyuk Xitoy devorining uzunligida insho etilgan yo‘lakni eslatadigan arxivda atomning ichidagi elektron tezligida harakatlanib, asosiy hujjatlardan ba’zilarining ichiga kirib



chiqayotgandi... Aniq bo‘lmasa-da, arxiv xizmatchisining kelishini uzoqdagi bir qora nuqtaning harakati singari kuzatish mumkin edi. U yetib keldi va qo‘lidagi "Qoshiqchi olmosi"<sup>2</sup> kabi porlagan, soqqadek keladigan 8-10 dona rangli shisha sharchani Gipotalamusga uzatdi. Hayratlanarli tomoni shu ediki, sizga uzoq aytib bergan bu hodisam soniyaning yuzdan birida sodir bo‘lgandi...

So‘ngra u arxivning kirish eshigiga o‘girildi, undan o‘ng tomonga qarab bir eshik ochildi. Gipotalamusning aytishiga ko‘ra bu yer "Hujjatlarni ko‘rish markazi" ekan. Eshikka yaqinlashdilar. Dastlab, Gipotalamus ichkariga kirdi. So‘ngra Jin va Kendin uning ortidan ergashdilar.

Bu yer jamiyki hayratni ifodalovchi undov belgilarini ketma-ket qo‘yishni talab qiladigan, tushda ham ko‘rish mumkin bo‘lmagan joy edi. Bir tomchining ichiga okean sig‘ishi mumkinmi? Bu yerda esa ayni shunday edi. "Hujjatlarni ko‘rish markazi"ning tuzilishi ham hujjat ko‘rinishiga uyg‘un holda yana shisha sharga o‘xshash edi.

Kendin xayolga toldi. U ushbu mukammal tizimning benuqsonligi haqida o‘ylayotgandi. Bu yerda hech bir narsa dunyodagiga o‘xshamasdi. Bu yerda "vazifani oldim, rahmat, hal qilamiz, amringiz bosh ustiga, bu ish oson..." yoki yana shunga o‘xshash biron jumla ishlatilmas, hatto bular vaqtni zoye ketkazuvchi ortiqcha narsalar deya qabul qilinardi. Faqat ish bajariladigan, berilgan barcha vazifalarni ta’rifiga mutlaqo uyg‘un shaklda amalga oshiradigan bu mukammal mexanizm qanday qilib insonlar tomonidan vaqtni behuda sarflovchi narsaga aylantirilishi mumkin? Buni o‘ylashning o‘zi imkonsiz, ammo inson zoti shu imkonsiz narsaga erishgan va o‘zi uchun boshqa imkonsiz narsalarni paydo qilishning uddasidan chiqqan

---

<sup>2</sup> Istanbuldagi To‘pqopi saroyi muzeyida saqlanuvchi 86 karat og‘irlikdagi olmos.

edi. "Miya" deb atalmish ushbu betakror mo'jizani "Vaqt o'ldirish mashinasi" sifatida qo'llashni faqat insongina eplay olardi.

Gipotalamus nechanchidir qayd raqamli hujjatning qaysidir sonli fayllarini qo'lida tutib, ushbu ulkan sharning eshigi to'g'ridan-to'g'ri ko'rinib turgan tomonga qarab yurdi. Yerdan yarim metr balandlikda, havoda muallaq turgan, nurdan yasalgan halqa va unga qaragan uchta ko'z bor edi. Ko'z o'zimiz bilgan ko'zga o'xshab ketar, unga yaqinlashgach esa yuzasida yuz minglab mikro o'lchamli ko'zlar borligi anglashilardi. Ko'zlarning ikkisi halqaga parallel ravishda qarama-qarshi tomonda joylashgan bo'lib, uchinchi esa halqadan 20 santimetr balandlikda unga yuqoridan qarab turar edi.

Kendin hayajondan tashqari yana boshqa bir tuyg'uni ham his etayotgandi. Bu tuyg'uning qanday ekanini tushuntirib berishni juda istardim, lekin bu qo'limdan kelmaydi deb qo'rqaman. Ammo hozir uning o'sha onda tuygan hissiga bir-ikki jumla bilan ta'rif berishim kerakligini his qilyapman. Dunyodagi jamiyki hayajonlar yig'ilib "Men dunyodagi eng kuchli hayajonman, men eng, eng ..." deya suhbatlashib turganlarida Kendinning hayajoni ularga o'girilib, "Siz hali o'zingizni hayajonman deb hisoblayapsizmi?" deya mahmadonalik qilayotgan bir vaziyatga o'xshardi. Shu sabab ortiq hayajonlanmay qoldi.

Gipotalamus qo'lidagi mitti sharchalardan moviysini halqaning ustiga qo'ydi-da, o'zi ortga chekindi. Kendin va Jin esa nima ro'y berishini sabrsizlik bilan kuta boshladilar. Ko'zlardan halqaning ustiga bir nur tushdi. Sharcha sekin harakatga kelib, o'z atrofida aylana boshladi. Uning yuqorisida turgan uchinchi ko'zdan tashqari qolgan ikkisi ham asta-sekin halqa atrofida aylanardi. Uchinchi ko'z esa o'zining "Galley" kometasi singari yorqin nurini shisha sharchaning ustiga tushirgach, aylana harakat qilib

halqani to‘liq bir marta aylanib chiqdi. So‘ng tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada tez aylana boshladi. U aylangani sayin mitti quyoshga aylanib borardi go‘yo. Ko‘p o‘tmay, mittigina nuqtadan chiqayotgan yorug‘lik quyoshning rashkini keltirar darajada kuchaydiki, hatto sharchada ko‘z ko‘zni ko‘rmas holga keldi. So‘ngra u yerda faqatgina yorug‘lik shaklidagi halqa qoldi. Kendin va Jin ortlariga o‘girilganlarida bu sharchaning ichida Kendinning tug‘ilgan oni namoyon bo‘lganini ko‘rdilar. Bu g‘ayritabiiy manzara As‘hobi Kahfning 309 yillik uyqudan uyg‘ongan onini ko‘rishidek gap edi.

Bularni bir ko‘lanka misol kuzatdilar. Butun oila o‘sha yerda edi. Yuzi qorong‘ulik ichra aniq ko‘rinmayotgan ammasi bolaning boshida turib, ma‘nosini shu paytgacha biron kimsa bila olmagan o‘sha klassik "agu...gugu" ovozlarini chiqarayotgandi.

Ammasining ko‘rinishi qorong‘u kechada ko‘ringan sharpadek dahshatli edi. Bolalar tug‘ilganlarida ko‘rish qobiliyatlari hali to‘liq shakllanib ulgurmagani sabab Kendin ham ammasini aniq bir shaklda ko‘ra olmayotgandi. Tasvir shu qadar noaniq ediki, uni chop etishning imkoni yo‘q edi.

- Endi esa onangning seni uxlatish jarayonini bir ko‘raylik, - dedi Gipotalamus go‘yo Van Gog shaxsan o‘zi kelib, sariqqa bo‘yab ketgan boshqa mitti shisha sharchani yorqin halqaning ustiga qo‘yib. Ko‘zlarning tezlik bilan aylanib, kichkina sharchani yoritishi, mitti quyoshning vujudga kelishi, jarangdor ovoz va mo‘jizaning paydo bo‘lishi... Bu safar onasi jajji Kendinni allalar aytib tebratib uxlatayotgandi. Gipotalamus ushbu manzaraga bir qancha izoh berib o‘tishni lozim topdi:

- Senga biroz avval aytgan "gorizontal holat" shu edi aslida. Seni tebrataverib boshingni chayqatib yubordilar deganim ham shu. Shu onda faqat tebranayotganing yo‘q, tebransang uxlashing kerakligini ham ayni hozir o‘rganyapsan. Va tabiiyki, alla

shaklidagi ayyorona uxlatish vositasi... "Musiqqa eshitib uxlash biram yoqadi-da" deysan-ku ba'zan... Mana, bu tuyg'u qanday paydo bo'lgan...

Sharcha orqali Kendinning bolaligini xuddi o'sha yerda mavjud bo'lgandek kuzatdilar.

Uxlab-uxlab katta bo'lsin bolalar, mashhur dostonlar, kimlarningdir polizga kirishi, karamni yemoqchi bo'lishi, onasining karamni qutqarib qolishi<sup>3</sup> va yana allaqanday bir nimalar... Aslida alla bir ta'limdir. Masalan, Sulton Mehmet Fotihni uxlatishar ekan, unga "Sen qo'mondonsan, sen buyuk qo'mondonsan, Istanbulni sen fath etasan" so'zlaridan iborat allalar kuylanardi. Jin sharchaning ichida bolaligini kuzatayotgan Kendinga fursat topib bularni anglatardi.

Kendin insonlarning qanchalik noto'g'ri fikrlaganini tushunib yetar, endi o'zi ham bu yanglish fikrlar ustida mulohaza yurita olardi. Yillar davomida har tug'ilgan go'dakka ayni bir xil allalar aytilgani va hech qaysi ona o'zi aytayotgan allaning so'zlariga e'tibor bermagani haqida o'yladi. Agar e'tibor berganda, qaysi ota-ona o'z farzandiga ahmoqona bir karam dalasi haqida gapirib berardi!?

Alla bir ta'limdir. Uxlash oldidan ong butunlay yopiladi, ammo ong osti hamma vaqtdagi kabi yana oxiriga qadar ochiq turadi. Ota-onalar yo bu yerga karam to'ldiradilar yoki koinot kalitini joylaydilar. Kendin shular haqida o'ylab turganda Gipotalamus boshqa bir mitti sharchani halqaning ustiga qo'ydi.

Bu safar uy odamga to'la edi. Qo'shnilar go'yo divanga 1000 yil avval o'tirishgan-u, 3000 yil o'tmay turish niyati yo'qdek televizorga termilib o'tirishardi. Onasi shoshib-pishib Kendinni uxlatishga harakat qilar, lekin u hech qanaqasiga uxlamasdi.

---

<sup>3</sup> Bu yerda turk allalaridan biriga ishora qilingan.

Televizorda bir serial bo‘layotgandi. Har bir narsaga tezda yechim topishi bilan butun mahallaning hurmatini qozongan Mozi xola xuddi aqliga dunyoni qutqaruvchi bir formula kelgandek o‘rnidan sapchib turdi. Biroz o‘tib bir adyol ko‘tarib keldi. Ikkiga buklab, yerga yoydi. Bolani, ya’ni jajji Kendinni adyolning o‘rtasiga yotqizib, bir tomoniga onasi, boshqa tomoniga Mozi xolasi o‘tib, uni tebratishni boshladilar. Kendin mitti qo‘lchalarini musht qilib tugib olgancha "Meni urmang!" degandek qo‘llarini boshiga yaqinlashtirib, ho‘ngrab yig‘lardi. Ular esa bolaning nima o‘ylayotganini bilmasdan televizorga angraygancha qat’iylik bilan adyolni tebratishardi.

Nihoyat, buning uddasidan chiqdilar. Kendin uxladi, aniqrog‘i, majburlab uxlatildi. Ular ham bolani belanchagiga yotqizib, bemalol serial ko‘rishda davom etdilar.

Ushbu manzarani kuzatib turib, Kendinning xayoliga tebratish jarayonini professional darajada amalga oshirish maqsadida insoniyat yaqin tarixda kashf etgan, dunyodagi yuz millionlab bolaga uxlashni o‘rgatgan "Avtomatik tebranuvchi belanchak" keldi. Bu ayni Mozi xolaning fikrlashiga uyg‘un kashfiyot edi.

Gipotalamus bu safar izoh berib o‘tirmadi, keragi ham yo‘q edi aslida. Barchasi kundek ravshan edi! Kendin uyquga majburan odatlantirilgan paytini kuzatarkan, Gipotalamus boshqa sharchalarni ham vaqti-vaqti bilan halqaning ustiga qo‘yib borardi. Har bir sharcha Kendinning bolaligiga aloqador turli zamon voqealariga oid edi. Gipotalamus har bir sharcha uchun alohida izohlar berib, Kendinning nazdida butun insoniyatning "uyqu tarixi" deya hisoblash mumkin bo‘lgan nutqini so‘zladi:

- Ba’zi kechalar uyg‘onib ketib ota-onang yoniga borarding. Uyqung kelmagan holda ular seni har safar eskilardan qolgan biron uslubni topib, ustalik bilan uxlatishning uddasidan chiqardilar. Uyg‘ongan payting ulkan hayajon va sevinch ichida

bo‘lishingga qaramay seni uxlatishlari azob ekanini tushunib yetishmasdi. Uyg‘onish sen uchun qanchalar zavqli holat ekanini hech qachon taxmin qilisholmasdi.

Gipotalamus Kendinning normal uyqu rejimi qanday buzilganini tushuntirishda davom etdi:

- Qisqasi, sening uyqu rejimingni o‘zingdan so‘ramay, o‘zlaricha belgiladilar.

- Mendan so‘rash? Men u payt go‘dak edim!, - gapga aralashdi Kendin. Gipotalamus Kendinga "Hech narsani bilmaysan!" degandek istehzo bilan tikildi:

- Ha, sendan so‘ramadilar. Chunki, sen go‘dak bo‘lsang ham aloqa o‘rnatib, ularga o‘z dardingni tushuntira olarding. Masalan, qorning ochganda yig‘larding. To‘yganingda ham yig‘larding. Shu ikki nuqta orasida qorning to‘ydirilishi kerak edi, lekin ular buni jiddiy qabul qilmadilar. O‘z fikrlariga ko‘ra seni ovqatlantirishardi. So‘ng to‘yganingni bildirish uchun yig‘lay boshlasang, ular uyqung kelgani uchun yig‘layapsan deb o‘ylab, seni uxlatishardi. Uyg‘onganingda takror ovqatlantirib, ko‘p o‘tmay yana uxlatardilar. Avval aytib o‘tganimdek, sening ochlik-to‘qlik faoliyatingni ham men o‘z jamoam bilan boshqaraman. Agar seni o‘zingga quloq solishsa edi, hozir kunda uch mahal ovqatlanmagan bo‘larding. Agar uyqungni ham o‘zingdan so‘rab belgilasalar, ishni sening avtomatik boshqaruv mexanizmingga, ya’ni bizga qoldirsalar edi, sen uyqung kelgandagina uxlar, uyg‘onishing kerak bo‘lgan payt uyg‘onarding. Shu yo‘sinda davom etganingda 10-11 yoshdan so‘ng 4 soat uxlaydigan insonga aylanarding. Lekin bunday bo‘lmadi!...

Qandaydir kulguli bir voqea yodiga tushgandek Gipotalamus jilmaygancha halqaning yuzasiga boshqa shisha sharchani qo‘ydi va so‘zida davom etdi:

- O‘sha kuni seni bir to‘yga olib bordilar. Barabanlar chalinar, sen esa shovqin-suronga parvo qilmay, uxlab yotarding. Biz bundan mamnun bo‘ldik, balki oilang tushunar deb, ammo tushunmadilar. Ular go‘yo sening o‘zingga ishonching yo‘g‘-u, uyqung kelgan vaqt "Uyat bo‘lmasin!" deb uxlamaysan, deya o‘ylardilar. Holbuki, sen hech narsaga qaramay, Aleksandr Makedonskiyga tahdid qilgan Diogen kabi beparvolik bilan uxlay olarding. O‘zingga to‘liq ishonarding, lekin ular buni bilishmasdi. Natijada, ular yaxshi niyatlar ila sening tabiiy uyqu me‘yoringga qo‘shimcha muddatlar qo‘shib, ko‘proq uxlashingga sababchi bo‘ldilar. Biz ham majburan shunga odatlandik... Shunday qilib, katta bo‘lding. Atrofingdagi ko‘p insonlar o‘rtacha 8 soat uxlardi. Sen esa "Hamma shunday qilsa, men ham shunday qilishim shart emas!" deb o‘tirmading, sababi, tizim ayni shu shaklda tuzilgandi. Ularga moslashding, bo‘lar ish bo‘ldi. Endi sen ham 8 soat yoki undan ko‘proq uxlasang xursand bo‘lar, biroz kamroq uxlasang esa horg‘in, kuchsiz ekaningga o‘zingni o‘zing ishontirarding. O‘zingga o‘zing zulm qilding, juda yomon zulm qilding. Seni bo‘lar-bo‘lmas paytlarda uxlataverishgani uchun uyqu me‘yoring buzildi, nomunosib vaqtlarda uxlay boshlading.

Kendin hammasini yaxshi tushunib turardi. Uyqu bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan Gipotalamus bilan suhatdan so‘ng miyasida yashinlar chaqnay boshladi. Har bir gapida o‘zgacha hikmat bo‘lgan Gipotalamus, ota-onasining mavjud tizimga taslim bo‘lishgani badalini Kendinning to‘layotganini tushuntirmoqchi bo‘ldi:

- Ulg'ayganing sari oilangning senga e'tibori ham kamayib bordi. Matematikadan "5" olding. Dadangga ko'rsatmoqchi eding. "Qoch oldimdan!" dedi u, chunki futbol ko'rayotgandi televizorda. "Oyi, suv bering!" deding, "Serialdan keyin!" dedi. Sen esa bu imkoniyatdan "unumli" foydalanib, o'zingni dunyoning eng buyuk ixtirosi bo'lgan internetning qo'llariga topshirding. Virtual olamda muhabbat izlading, har safar topdim deb o'ylarding. Shunday qilib, ijtimoiylashuving o'z nihoyasiga yetdi...

Gipotalamus oxirida halqaning ustiga shaffof bir sharchani qo'ydi. Barcha manzaralar yo'qoldi. Hamma narsa o'z holiga qaytdi.

"Hujjatlarni baholash markazi"dagi ishlari bitgan edi. Chiqish eshigiga yaqinlashayotganlarida Kendin mitti shisha sharchalarning qolib ketayotganini ko'rib, Gipotalamusni ogohlantirdi:

- Hujjatlarimni olishni unutmik!

Gipotalamus:

- Bu yerda hech narsa unutilmaydi. Ko'rmadingmi, hatto tug'ilgan paytingni ham xotirlayapsan?, - dedi va jilmayib ularni o'z ish xonasiga boshladi.

Xonada kunlik bajarilishi lozim bo'lgan ishlar xronologik tartib bilan yozib chiqilgan ko'zni qamashtiruvchi ulkan ekran bor edi. Boshqa tomonda esa tomirlarning ustma-ust joylashuvidan hosil bo'lgan 3 kishilik o'tirish joyi va kattagina majlis stolini eslatadigan bir ko'tarma ko'zga tashlanardi. Arxivda ko'rgan manzaralaridan so'ng Gipotalamus jamiyki ogohlantirishlariga qaramay kunda 4 quti sigaret chekishda davom etgan bemorining o'pka rentgenogrammasiga qarab turib saraton tashxisini



qo‘ygan, lekin buni unga qanday aytishni bilmay turgan mehribon shifokorga o‘xshardi:

- Xullas, senga me‘yordan ortiq darajada ko‘p uxlaysan, demoqchiman. Yana nomunosib vaqtlarda uxlaysan, biz esa senga moslashishga majbur bo‘lamiz, demoqchiman, - degach, o‘z-o‘zini tanqid qila boshladi:

- Bilasanmi? Sen tufayli bu yerda eng ko‘p ishlaydigan biz bo‘lishimizga qaramay hech bir ishning unumi yo‘q. Ishonaver, bir odamning ertalabdan kechgacha ahmoqlardek boshini qashib o‘tirishi bizning qilayotgan ishimiz oldida mantiqliroq...

Kendin bu gaplarning ma‘nosini anglamadi.

- Bizning yilda bir marotaba o‘tkaziladigan "Gipotalamuslar cho‘qqisi" deya ataydigan yig‘ilishlarimiz bor. Men har yili sening vakiling sifatida u yerga uyalgan, siqilgan ko‘yi boraman. Shunday insonlar borki, ularning gipotalamuslari misoli yashindek. Men va jamoam esa hamisha sharmanda bo‘lamiz. Ular ham xuddi bizdek, ammo men uyalaman ularning oldida. Bunga haqqing yo‘q!

So‘ngra birdan Gipotalamusning ko‘zlari chaqnab ketdi. "Hali ham hech narsa yo‘qotmadik. Barini yangidan boshlaymiz!" deyishga hozirlanayotgandek edi:

- Hozir 30 yoshdasan. Bizning 30 yil avvalgi holatimizga qaytishimiz senga bog‘liq. Modomiki, shu yergacha kelgan ekansan, senga aytadiganlarimni yaxshilab tinglaysan va biz eski ishlash tarzimizni yangidan tiklay olamiz. Bundan keyin 4 soat uxlashni boshlaysan, bu bilan umringga yana bir umr qo‘shgan bo‘lasan. Biz esa ko‘ksimizni kergancha "Gipotalamuslar cho‘qqisi"ga boramiz va halovatga erishamiz.

Jin g‘urur bilan:

- Ko‘rdingmi, do‘stim? Men senga aytgandim-ku, istasang umringni uzaytira olasan!, - deya pichirladi Kendinning qulog‘iga. Kendin hammasini tushunganga o‘xshardi, tezroq nima qilishi kerakligini bilishga shoshilardi. Gipotalamus Kendinni yanada hayajonlantirish maqsadida davom etdi:

- Agar shu paytgacha 8 soat o‘rniga 4 soat uxlaganingda edi, o‘zingni rivojlantirish uchun 4 soat ko‘proq vaqt ajratar va bugun o‘z sohangning eng yaxshilaridan biriga aylanarding. Insoniyat uchun yanada ko‘proq manfaat keltirarding. Aslo unutm, Kendin: Hech kimsa sendan ko‘ra yaxshiroq emas!...

Jin majlis stolida bo‘shashib o‘tirarkan, birdan jonlanib ketdi, o‘zining mutaxassislik sohasiga kirgandek gap boshladi:

- O‘zingdan ko‘ra yaxshiroq deb gumon qilgan insonlar esa shunchaki bu muddatdan yaxshiroq foydalanadilar. Kun hamma uchun 24 soat. Yoz, qish, Afrika yohud Amerika... Bu hech qachon o‘zgarmaydi. Kun doimo 24 soat, hamma uchun 24 soat. Sen o‘rinlarida bo‘lib qolishni xohlagan o‘sha insonlar, erishganlaridan ko‘ra ko‘proq erisha oladigan narsalariga e’tiborlarini qaratadilar va faqatgina uni qo‘lga kiritish uchun harakat qiladilar. Seni nima bundan to‘sadi?

Kendin bir og‘iz ham gapirmadi. Muzlab qolgandek edi go‘yo. Aqli joyida bo‘lgan har qanday inson aytilgan gaplarning birontasiga e’tiroz bildirolmasdi. Gipotalamus Jinning so‘zlaridan jasorat olib yanada ta’sirli so‘zlay boshladi:

- Men sening miyangdagi yasmiq donasidek keladigan bir nuqtaman aslida, ammo sendan alamzadaman. Men bilan birga butun tizim sendan alamzada. Ular sen bilan gaplashishdan bosh tortdilar, men esa Jinning yuzidan o‘tolmay rozi bo‘ldim. Aqlingni yig‘ib ol, bu yer sening miyang! Uni yostiqqa, ko‘rpaga yopishtirib uxlayverishdan tiyil, hayotingni o‘zgartir! Sen o‘zing

uchun o‘zing harakat qilmasang, na men va na boshqasi sen uchun hech narsa qilolmaymiz. Ishlaringni hadeb ortga suraverishdan voz kech! Aytganlaringni amalda bajarish vaqti keldi. Agar o‘zingni to‘g‘irlay olsang, men o‘z jamoam bilan senga yordam berish uchun har nima qilaman, zero, shunday qilishga majburman. Biz aslida bor-yo‘g‘i sening qarorlaring natijasimiz xolos.

Kendinning butun tuyg‘ulari qorishib ketdi. Gipotalamusga hayrat ichida qarab turardi. Jin esa tinmay Kendinni ruhlantirishga harakat qilayotgandi:

- Qani, o‘zingga kel, do‘stim! Sen uning bunday gapirishiga e’tibor berma. Biroz o‘zingga erk berganding, u ham erkalanib ketdi. Bori shu xolos! Gipotalamus deganing ham aslida dunyodagi jamiyki boshqa narsalar singari sening amringga bo‘ysunishlik uchun tayinlangan yordamchi unsur dan boshqa narsa emas. Sen bunga birozgina beparvo bo‘lding, butun muammo ham shundan iborat. Agar istasang, takroran barcha nazoratni o‘z qo‘lingga olishing mumkin. Unga qo‘rqoq bir hasharotga qaragandek boq. Aslo unutma: Barcha narsa sen uchun yaratildi. Quyosh har tongda faqat sen uchungina uyg‘onadi, Yer faqat sen uchungina ma’lum tezlikda aylanadi, daraxtlar sen uchun kislorod ishlab chiqaradi, dunyoning 2/3 qismi sen uchun suvlar ila o‘ralgan. Ya’ni sen hayotingni davom ettirishing uchun shuncha ne’matlar, ammo bunga ishonmas ekansan, hatto bir shox ham qimirlamaydi sen uchun. O‘zingni qadrlashga majbursan. Endi esa butun kuchingni to‘pla-da, Gipotalamusga tik qara. U sening istaklaringni bajarishga majbur!

Jin gapirishda davom etarkan, Kendin o‘zida kuch va jasorat to‘pladi. So‘nggi roundda raqibini nokaut etishiga ishonchi komil bo‘lgan bokschining murabbiyiga qarashi kabi Jingga bir qarab

oldi. Butun diqqatini navbatdagi zarbasiga jamlab, ringga ko‘tarildi:

- Xo‘sh, endi menga qara! Ertalabdan beri seni eshitaman. Sen befoyda, mahmadona hasharotdek gapsan! Men tug‘ilgan paytim seni menga mas’ul qilib tayinladilar. Buni o‘zing aytding. Ya’ni men hech narsani bilmas ekanman, sen oddiy inson kabi eding. Hatto, jamoangni yig‘ib, allaqanday rejalar tuzadigan darajada es-hushing joyida ekan. Modomiki, shu qadar aqlli ekansan, nega meni uxlatishlariga izn berding? Yana uyalmay netmay meni ayblaysan! Tavba, tavba, "Gipotalamuslar cho‘qqisida bu kishim sharmanda bo‘larmish... Hammaning gipotalamusi yashin kabi emish..." Menga nima bulardan? Bular sodir bo‘layotganida men go‘dak edim, tushunyapsanmi?

Gipotalamus aslo kutmagan bu zarba naq uning burniga kelib tegdi. Sarosimaga tushib qoldi, ammo Kendin shu qadar kuchli ediki, nokaut etganini xayol qilgan raqibiga tinmay zarbalar berishda davom etardi:

- Menga qara, yaramas! Aslida men da’vogarman sendan!... Boshimga shuncha muammoni sen keltirding. Hayotimni barbod qilding. Sen tufayli dunyoda qoladigan muddatim bilan yashaydigan muddatim orasida ulkan jarlik vujudga keldi.

Gipotalamus insonlar qarshisida chorasiz qolgan begunoh ma’sum go‘dak kabi edi. Siniq va tashvishli ovozda o‘zini oqlay boshladi:

- Meni bu shaklda haqorat etishga haqqing yo‘q. Chunki, balog‘at yoshiga yetgach, o‘z qarorlaringni o‘zing qabul qilolarding. Agar istaganingda biz butun bu tizimni qayta isloh etishimiz mumkin edi.

Kendinning asabiylashganidan burun teshiklari kengaya boshladi:

- Nega meni ayblayapsan? Men mavjud tizimga ko'ra ulg'aydim. Sen meni ogohlantirishing kerak edi. Sendan da'vogarman..., - dedi. Gapi tugamagan ham ediki, birdan qayerdandir dunyodagi eng viqorli qahqaha eshitildi.

- Yana sen kim bo'lding?, - dedi Kendin yuragini hovuchlab. Jin Kendinning qulog'iga tez-tez quyidagilarni pichirladi:

- Bu yerda bo'lib o'tgan hech narsa sirligicha qolmaydi. Sen biroz avval "Men da'vogarman" deya Yuqori ongni harakatga keltirding. U eng og'ir va mushkul vaziyatlarda o'rta chiqadi. U kelishi bilan butun miya unga taslim bo'ladi. Shu yerda ekanida u nima desa o'sha bo'ladi. Hech kimsa unga e'tiroz bildirolmaydi. Biz uni aslo ko'rolmaymiz, faqat eshitishimiz mumkin xolos. So'zlaganida aytgan har bir narsa, rad etib bo'lmas amr sifatida qabul qilinadi; ammo shunga qaramay unga hukmini o'tkaza oladigan yana birini taniyman. Ismi Kendin.

- Menga qara!, - deya so'z boshladi Yuqori ong deya atalmish u narsa.

- Gipotalamusni ayblashing yohud o'z aybingni birovga ag'darishga urinishing va shaytonning ham aqliga kelmaydigan bahonalar o'ylab topishing sening ham hammaga o'xshagan oddiy bir inson ekaningni isbotlaydi, - dedi. Uning ovozdagi ohang arslon na'rasini, qo'llagan so'zlari ichidagi dohiylik burgutning buyukligini, so'zlar ila keltirilgan qat'iy ta'kidlar esa timsohning shafqatsizligini eslatardi. Kendin qimor o'ynab turib hiyla qilishga harakat qilgan, ammo ilk urinishdayoq qo'lga tushgan tajribasiz o'yinchi singari rangdan rangga kirardi. Yuqori ong ovozini bir me'yorda ushlab davom etdi:

- Gipotalamus seni ayblab turib, butun bir tizimni ko'z o'ngingda namoyish etdi. Ya'ni bu yerda gap faqat sen haqingda ketmayapti. Senga butun insoniyatning uyqu jarayoni va qanday

uxlagani ko'rsatildi. Va yana tabiiyki, sening bu jarayonga qanday taslim bo'lganing ham... Faqat bu yerda Gipotalamusning ham bilmaydigan narsalari bor.

Kendin jamiyki bo'lib o'tgan voqealardan voqif bo'lgan Yuqori ongning sirli ovozi diqqat bilan tinglardi.

- Endi qulog'ingni yaxshilab och-da, odamdek meni eshit: Sen xususan, oxirgi bir necha asrda shu ahvolga kelding!

Yuqori ong faqatgina Kendinga emas, butun insoniyat olamiga xitob qilayotgandi. "Sen" deyishdan murod ham jamiyki insoniyat edi.

- Dastlabki vaqtlar kunda bir necha soat uxlay olarding. Sen taxmin etganing yoki o'ylaganing kabi avvaldan turli hisob-kitoblaring, **qarz**, ishchilarning maoshi kabi muammolaring bo'lishi ko'p uxlashing yohud uxlay olishingni isbotlamas edi.

Kendinning sira xayoliga kelmagan, uying eng ichki burchagidagi devordagi o'yiq singari ko'ringani sabab ochilishini o'ylab ham ko'rmagan derazani Yuqori ong oxirigacha ochgandi.

- Insonlar yovvoyi tabiat qo'ynida, himoyasiz shaklda hayot kechirardilar. Biroz avval Jin seni urush maydoniga olib borib, sendan "Bundan-da yomonroq joyni bilasanmi?" deb so'ragandi. Sen esa "Yo'q!" deya javob berding. Aslida sen haq eding. Haqiqatda, u sen guvoh bo'lgan eng dahshatli manzara edi, ammo bu tamoman subyektiv tomondan.

Kendinning miyasi g'ovlab ketdi, sababi, Yuqori ong Sibirdan olib kelgan mo'ynali paltoni Bag'dodda sotishga urinayotgan g'alati savdogarga o'xshardi. Nima deyishi, nima qilishini bilib bo'lmasdi.

- Ilk davrlarda insonlar yashash uchun kurashardilar. Ovqatlanish uchun ov qilishlari kerak edi. Deyarli hamma ovchi, ham jangchi

edi. Insonlar bir-biriga mustahkam bog‘langan edilar. Bir-birlariga muhtoj edilar. Aloqa o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga yetgandi, chunki, arzimas bir ovoz yo shovqin ajal darakchisi bo‘lishi mumkin edi. Uylar ham hozirgidek emasdi. Po‘lat eshiklar, himoya kameralari, ovoz yozish uskunalari yo‘q edi. To‘pponcha, miltiq, qilichlar ham yo‘q edi. Insoniyat faqatgina ayiqning panjasiga muqobil ravishda pichoq singari qurol ixtiro qildi. Ammo bu aslo haqiqiy muqobil emas edi, chunki, ayiqning birgina panjasida xuddi shunday quroldan 5 dona bor edi. Bir o‘ylab ko‘rgin-a, hech qaysi hayvonni tanimaysan. Birdan dunyodagi eng bezarar hayvonlardan biri hisoblanadigan ho‘kizga duch kelib qolding. Uning zararsiz ekanini tushunish uchun soatlab, ba‘zan kunlab ovora bo‘lasan. Bezarar ekanini tushunding ham deylik, so‘ngra ayiqqa duch kelsang, unga ham "Bu ham bahaybat, demak, zarar yetkazmaydi", deya olarmiding? Desang, nima bo‘ladi? Sen ayiqning qo‘lida tilkapora bo‘lsang, qolganlar bundan qanday xulosa chiqaradi?...

Kendin o‘z o‘tmishiga mutlaqo o‘zga oynadan nazar sola boshladi...

- Qissadan hissa shuki, ilk davrlarda insoniyat oz uxlashga majbur edi. Ya’ni yaratilishiga uyg‘un bir tarzda hayot kechirar, eng ko‘pi 4 soat uxlardi. Ammo zamonlar insonga shunday ta’lim berdiki, alal oqibat, o‘z aqli bilan o‘zini-o‘zi tamballashtirish yo‘lida beayov kurashib, g‘olib bo‘lgan tomonga aylanib qoldi.

Kendin e’tiroz bildirishga tayyorlangan o‘quvchi singari so‘zga kirdi:

- Insonning tamballashtirish jarayonida aqlidan foydalanib yasagan g‘ildirak bilan yuzlab asrlar so‘ngra yaratgani boshqaruv pulti o‘rtasida hech qanday farq yo‘q, menimcha. Ikkisi ham bir xil.

Yuqori ong jamiyki ezgu niyatlariga qaramay noto‘g‘ri tushunilgan xulosasini to‘g‘irlab ketdi:

- Men bularni qadimgi davr insonini maqtash uchun aytmadim. Menimcha ham farqi yo‘q! Jarayonning shafqatsizligi haqida gapiryapman men. Bu kurashning insonni yolg‘izlikka mahkum etgani haqida gapiryapman. Ammo so‘nggi davrlarda yaxshigina bo‘rttirib yubordi, yuzma-yuz muloqat davri tugadi. Inson o‘zini mashinalarga ipsiz bog‘ladi. Bu kurash insonning boshqalarga muhtoj bo‘lmaslik uchun boshlagan jangiga aylandi va oxir-oqibat u yolg‘iz qolishning uddasidan chiqdi. Texnologiya nomi ostida ishlab chiqargan narsalari bora-bora insonni ishyoqmas, tambalga aylantirdi. U avvaldan ko‘chmanchilik hayotida yashardi. Ya’ni bir joyda muqim qolmas, hayoti davomida o‘nlab makonlarda istiqomat qilardi. Yangidan yangi insonlar bilan tanishardi. Hozir bu aytayotganlarim senga g‘alati eshitalishi mumkin, ammo ishonaver, bu ayni haqiqat. Agar XXI asrda yashayotgan insonning o‘zi haqiqatda aloqa qiladigan do‘stlari soni bilan ilk davr insonlari aloqa qilgan insonlar sonini qiyoslasak, yer bilan osmonchalik farq borligini ko‘ramiz.

Kendin hayratga tushdi.

- Virtual olamda yuz minglab insonlar bilan aloqa qilishingga qaramay, real hayotdagi do‘stlaring yo‘q deydigan darajada oz. Hozir 30 yoshdasan. Orqa-oldingga yaxshilab qara-chi, atrofingdagi insonlar qanchalik o‘zgardi shu 30 yil ichida...

Uzoq davom etgan sukunat do‘stlik va samimiyat tuyg‘ularini shubhaga solib qo‘ydi. Yuqori ong so‘zlashda davom etdi:

- So‘ngra bir qancha olimlar chiqib, insonning boshqalar bilan samimiy aloqada bo‘lishi umrni uzaytirishini kashf etdilar. Lekin sening "do‘stim" deya suyana oladigan insoning yo‘q! Ha, hozir dunyoda 6 milliard inson yashaydi. Sen o‘rtacha 20 kishi bilan



yashaysan. Bir uyda tug‘ilib, ayni shu uyda vafot etasan. Juda ham g‘alatisan, shu qadar g‘alatiki, shunday buyuk ixtirolar yaratganingga qaramay ularni o‘zingni yolg‘izlikka mahkum etuvchi jihozlarga aylantirding. Radio, televizor, internet vositasida o‘zingni hayotdan mahrum etding.

Kendinning xayoliga Yuqori ong zamonaviy texnologiyalarning dushmani degan fikr keldi.

- Bu aytayotganlarimdan meni texnologiyalarga qarshi deya o‘ylayotgan bo‘lsang, adashasan. Men texnologiyaga qarshi chiqsam, o‘zimni inkor etgan bo‘laman. Men sening miyangman. Butun dunyo o‘zi yaratgan texnologiyalar ila minglab yillar davomida yecha olmagan eng katta masalaman men, - dedi va biroz jimib qoldi.

Kendin unga shu qadar sehrlanib qolgandiki, hatto qayerda ekanlarini ham unutdi. Yuqori ongning ovozi kelayotgan tomonga xuddi tun o‘rtasida tug‘ilgan, voyaga yetgan va qarigan, umrida quyoshni ko‘rmagan bir kimsaning "Birozdan so‘ng quyosh chiqadi!" degan odamga qarayotgani kabi tikilib turardi. Yuqori ong yana so‘zga kirgach, qayerda ekanini esladi.

- Men bor-yo‘g‘i yanglish yo‘llarda yurganingni, yurganingizni tushuntirishga harakat qilyapman. Tushunyapsanmi? Sen 4 soat uxlarding va bu senga yetarli edi! So‘ng seni tamballashtiradigan yuzlab narsalarni ixtiro qilding va o‘zing bir burchakka chekinging. Uddasidan chiqqan eding. Endilikda 4 soat bilan qanoatlanmay qo‘yding. Uyqu me‘yoringni uzoq urinishlardan so‘ng 8 soatga olib chiqding. So‘ng buni o‘zing qilganingni unutib, 8 soatlik uyquni normal deya qabul etishni boshlading. Bunga shu qadar ishondingki, endilikda 4 soat uxlaydiganlarga "Bular oz uxlaydilar!" deydigan bo‘lding. Aslida, 4 soat uxlaydiganlar oz uxlamaydilar, sen ko‘p uxlaysan! Miyangda

o‘ylab chiqargan "Kam uxlasam yashay olmayman!" degan vasvasa sabab har kuni umringning 4 soatini yo‘qotasan!

Hattoki Jin ham Yuqori onnga lol bo‘lib qoldi. Gipotalamus uning qarshisida gapira olmaydigan darajada ojiz edi. Ayni shu onda butun tizim Yuqori onnga tobe edi. Kendin bu qadar mukammal bir narsaning o‘ziniki ekanini, yillar davomida miyasida bo‘lganiga qaramay uning bu bilimidan hech ham foydalanmaganini o‘ylardi. O‘z kuchiga ishonmay, hayotini boshqalardan eshitganlariga ko‘ra yashab o‘tkazganiga achindi.

- Keyin esa bir muddat uyquda o‘tkazgan vaqting seni mahzun qila boshladi. "Qanday kam uxlasam bo‘ladi?" degan savolga javoblar izlading. O‘zingning tabiiy fitratingga ko‘ra buni amalga oshira olishingni inobatga olmay, o‘z asliyatingni rad etgan holda "Yaxshisi, buning uchun bir dori yarataman!" deding va oz uxlashni ta‘minlaydigan dorilar o‘ylab topding. Holbuki, sening kam uxlash uchun qandaydir dorilar qabul qilishing xuddi ko‘zingni ochib-yumishing uchun kimnidir mas‘ul qilib qo‘yishdek ahmoqona ish edi. Lekin sen buni hech qachon tushunmading. Chunki sen qiyin paytlarda mening ogohlantirishlarimga emas, Tuban ongning so‘zlariga quloq tutding, - deya davom etdi Yuqori ong...

Demak, Yuqori ongning aksi bo‘lgan Tuban ong ham mavjud edi. Kendin Arximedning avvallari ming martalab vanna qabul qilsa ham o‘sha vaqtga qadar sira e‘tibor bermagani, faqatgina o‘sha kuni vanna idishini suvga tashlaganida uning cho‘kmaganiga bildirgan munosabati ila butun bu voqealarga o‘zicha ma‘no berdi. Tuban ong va Yuksak ong: uning o‘z nazoratida bo‘lgan, istagan payt mustaqil ravishda kira oladigan va xohlaganidan foydalana oladigan boshqa "Kendin"lar edi. Bular Kendinning ichidagi boshqa "men"lar edi. Bahonalar qidirishni to‘xtatib, ishlashni qasd etganda oldinga Yuqori ong

chiqardi. Ishlashdan bosh tortib, boshqalarga taslim bo'lgan holda turli bahonalar izlashni boshlagan zahoti esa oldinga chiqqan Tuban ong bo'lardi. Oldinga chiqqan narsa nima bo'lsa ham sen o'shasan. Aslida mavjud bo'lgan sensan, faqatgina bu ikkisidan birini ko'tarib yurish uchun borsan.

Kendin anglab yetdi: intizor bo'lgani holda Tuban ongning zulmlaridan qutula olmagan sabab yaqinlashishga hech qanaqasiga yo'l topa olmagan Yuqori ongning qarshisida turgandi. Undan foydalanish istagini bildirish uchun endi og'iz juftlagandi hamki birdan boshqa bir ovozni eshitdi:

- Bunchalik emas! Men haqimda noto'g'ri o'ylayapsan. Men barcha narsaning ma'nosiz ekani, insonning o'zini qiynashining hech bir foydasi yo'qligi, dunyodagi muvozanat allaqachon tuzib qo'yilgani va hech nima o'zgartirilmasligini da'vo qilaman. Sira o'zingni bekorga urintirma, bir o'zing hech kimsan baribir, - deya so'z boshladi bu ovoz. Bu xuddi asrlar osha yashab kelayotgan tulkinining ovozi singari makkorona edi. Ishontira olmaydigan biron kimsasi yo'q ekaniga darhol ishonarding bu tulkinining... Kendinning ichidagi zulmat, o'z nafsi edi gapirayotgan: Tuban ong. U "Toshbaqa gapirsa xuddi shunday gapirsa kerak " deydigan darajada sekin va beparvolik bilan gapirardi.

- Sening bu yerda nima ishing bor? Bor, o'z ishingga qayt! Bular seni aldayaptilar. Dunyo aslida yirik kuch markazlarining yakka hokimligi ostida bo'lgan bema'ni bir doira, xolos. Kam uxlasang ham, ko'p uxlasang ham hech nima o'zgarmaydi, chunki yolg'iz o'zing hech nima qila olmaysan. Futbol 11 kishi bilan o'ynaladi. Bor, odamdek ishla, noningni top, bularning yaqiniga ham yo'lama. Aytaylikki, harakat qilding, juda yaxshi natijalarga erishding. Keyin nima bo'ladi? Oxir-oqibat, sen ham o'lmaysanmi baribir?

Bir muddat jimjitlikdan so'ng yana davom etdi Tuban ong:

- Bular senga faqat tarixdagi dohiylarning oz uxlaganlarini aytib, namuna qilib ko'rsatyaptilar... Aminmanki, ularning hech biri senga dunyodagi jamiyki jismoniy va aqliy rivojlanishda ortda qolgan, ya'ni aqli zaif insonlarning ham oz uxlashini aytmagan. Men xayolparast emasman. Senga bu haqiqatlarni aytishga majburman! "Aqli joyida bo'lgan insonlar kam uxlaydilar" degan kimsa bu ziddiyatni qanday tushuntirib beroladi? Dunyoda 3-5 dona savdoyi kam uxlagan ekan deb ularga ergashish to'g'ri bo'lmaydi, sababi ular hech bir qoidani buza olmagan istisnolardir.

Kendinning fikrlari qorishib ketdi.

- Faqat aqli zaif insonlar kam uxlaydi, Kendin. Aqlingni yig', o'zingni aldama! Bular seni o'shanday aqliy rivojlanmagan insonlarga o'xshatishga urinyaptilar. Aqli odam bunday narsalarga ishonmaydi, - dedi. Tuban ongning so'zlari insonga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasdi. Kendin Jinga o'girilib:

- Nimalar bo'lyapti o'zi? Bu nimasi endi? Yuqori ong qayerga ketdi?, - dedi. Jin:

- Taxmin etganing kabi u Tuban ong. Bu yerda bo'lib o'tgan hech narsa sirligicha qolmaydi. Sen biroz avval bir necha soniyaga bo'shliqqa tushib qolding va uni harakatga keltirding. U eng og'ir va mushkul vaziyatlarda o'rtaga chiqadi. U kelishi bilan butun miya unga taslim bo'ladi. Shu yerda ekanida u nima desa o'sha bo'ladi. Hech kimsa unga e'tiroz bildirolmaydi. Biz uni aslo ko'rolmaymiz, faqat eshitishimiz mumkin xolos. So'zlaganida aytgan har bir narsa, rad etib bo'lmas amr sifatida qabul qilinadi, ammo shunga qaramay unga hukmini o'tkaza oladigan yana birini taniyman. Ismi Kendin, - dedi.

Demak, barchasi Kendinning o‘z qo‘lida edi. Ichida tarbiyalab, o‘stirgan bu ikki kuchdan qay birini istasa o‘sha kelardi. Asrning eng buyuk sukunati boshlandi...

Oppoq bir xonada edi Kendin. Yolg‘iz o‘zi. Na Jin bor edi, na Gipotalamus va na boshqa bir kimsa. Sulaymon Qonuniy kabi uzoq tafakkurga cho‘mdi. Uzoq o‘yladi... Yuqori ongning kelishini istardi. Shu xohish ila oppoq xonadan tashqari chiqdi. Uddalagan edi. Yuqori ong xuddi hech narsa bo‘lmagandek to‘xtagan joyidan davom etayotgandi. Butun diqqatini unga qaratdi. Xayoliga boshqa hech narsa kelmas, ko‘zlari boshqa narsani ko‘rmasdi.

- Uyquni kamaytirish maqsadida yaratgan o‘sha ahmoqona doringdan ham dahshatlirog‘i nima, bilasanmi? Uyqu dori. Butun dunyo birgalikda 8 soatlik uyqu haqidagi safsataga o‘zingizni shu qadar ishontirdingizki, biroz vaqt o‘tib ba’zilaringiz o‘z tabiatini kasallikdek ko‘ra boshladi. Masalan, bir odam kunda 4 soat uxlaydi; kimdir unga o‘zicha bilganlarini havola etib, buning nosog‘lom ekanini aytadi va shundan so‘ng, u "nosog‘lom" odam hali u, hali bu doktorga borishni boshlaydi. "Doktor, men kam uxlayman, o‘zimda qattiq charchoq his qilyapman!" qabilidagi gaplar bilan bu "kasallik"ni hammaga yuqtiradi. Aslida, charchaganiga o‘zini ishontirgani uchungina shunday bo‘layotganini bilmaydi ham... Doktor ham Gipokratning shogirdidek "Keling, sizga bir dori beray. Kechqurunlari 2 tadan ichasiz, ham rohatlanasiz, ham qotib uxlaysiz!" deydi. Hech kim bu odamga qarab "Hoy birodar, bu sen uchun qayta takrorlanmaydigan bir imkon-ku. 4 soatlik uyqu senga yetar ekan. Sen "Inson o‘rtacha 8 soat uxlashi kerak!" degan gapga e’tibor berma. Uyqung kelmay turib yotma. Sening charchoqni his qilish sababing shu aslida. Uyqung kelmasa ham yotib olasan. Maqsading o‘zingni yaxshi his qilish, 8 soatlik rejani to‘ldirish. Ammo uxlash uchun o‘zingni uxlaganga solib yotishing seni

charchatib yuboradi. U yondan bu yonga agʻanab yotaverasan. Butun psixologik va fiziologik holating ostin-ustun boʻladi. Natijada Gipotalamus va unga bogʻliq birliklar seni ertangi kunga tayyorlash uchun 4 soatdan koʻproq muddatga ehtiyoj sezadilar. Sen esa odatdagidek charchoq bilan uygʻonasan. Shunday ekan, uyqusizlik, koʻpincha, kasallik emas, fursatdir. Uyqung kelmay turib yotoqqa kirma va 4 soatlik uyquni yetarli deb qabul qilishni oʻrgan. Buning qandaydir kasallik ekaniga oʻzingni ishontirishni bas qil! 10 yil koʻproq hayot kechirishning lazzatini his et. Koʻrasan hali nimalar boʻlishini..." demadi.

Kendin Yuqori ongni tinglayotib asrlar boʻyi qimir etmay turgan haykalga oʻxshab qolgandi.

- Bularning bariga qaramay oʻz asliyatiga muhabbat qoʻygan, hayotda oʻchmas iz qoldirishga ont ichgan insonlar ham boʻlgan, hozir ham bor. Ular hech qanaqasiga oʻzlarini soxta tizimlarga topshirmadilar. "Kam uxladilar" desam xato qilgan boʻlaman. Keragicha uxladilar. Oliy maqsadlar sari intildilar. Hatto baʼzilari bu maqsadlarga erishish yoʻlida barcha fiziologik nazariya va tushunchalarni inkor etgan holda umrlarini kunda 2 yo 3 soatlik uyqu bilan yashab oʻtdilar. Yaʼni bir umrda 3-5 umrni yashadilar. Soʻngra sen ularning hayotiga nazar solib, "Qoyil-ey!" deding.

Gipotalamus bilan Jin ham Kendin kabi jim edilar. Kendin Yuqori ongni tinglayotib ichidagi katta kuchni kashf etganidan nihoyatda mamnun edi. Nohaq ham emasdi aslida, Yuqori ong degan ushbu dohiyona kuch uning ichida edi. Gipotalamus esa yana haq boʻlib chiqqanidan mamnun holatda turardi. Jin esa butun dunyo tashnalikdan azob chekayotgan bir mahalda oʻz-oʻzidan hech kim bilan maslahatlashmay, bugʻlanib yomgʻirga aylanib ketgan okean kabi joʻshib borardi. Yuqori ong soʻzda davom etdi:

- Sen bilan bu dunyoda o'zidan iz qoldirgan insonlar o'rtasida birgina oddiy farq bor. Ular umr bo'yi g'ayrat etishadi, sen esa umring davomida ularning bu ishlaridan hayratlanib o'tasan. Shunday ekan, biroz avval Gipotalamusga baqirib-chaqirishing ham noo'rin va mantiqsiz edi. Bu yerda kimdir aybdor bo'lsa, o'sha o'zingsan, tizimga o'zingni toshirib qo'ygan ham sensan... "Imkonsiz" deganda Tuban ongni qo'llab-quvvatlab, "Menimcha ham imkonsiz!" degan sensan... Menga ishon, har safar oson yo'lni tanlayman deb, qutulib bo'lmas qiyinchiliklarga duchor bo'lding. Hayotingni to'lig'icha yashay olmading. Oz uxlaganingda zehning yanada uyg'oq va tiniq bo'lardi. Buni yashab ko'rsang tushunasan. Ayni paytda devorga yopishgan chivinga o'xshaysan. Quyoshla barobar uyg'onganingda fikrimni tasdiqlaysan. Ba'zilarida erta uyg'onib qolganingda buni sezgansan. Barvaqt uyg'ongan vaqting kun tuganmasdek tuyiladi. Tush vaqtiga qadar go'yo bir hayot yashaysan. Shunday emasmi?

Kendin birdan sukunatni buzib:

- Ha, - dedi.

Yuqori ong dunyoning eng mantiqli jumlasini tuzishga kirishgan faylasuf kabi chuqur nafas oldi.

- Modomiki shunday ekan, sen ahmoqmisanki, hammasini bilib turib shunchalar ko'p uxlaysan? O'zini qadrlagan insonlar umrlarini uyquda o'tkazishdan uyaladilar. Hozir sen uxlayapsan. Bu yerdan chiqishing bilan o'zingga bir nazar sol.

Uxlayotganingda qanchalar ojiz va chorasiz ekaningni ko'rasan. Bu holatga qandaydir bir taassub sabab tushganingga ishongan payting, o'zingdan uyalasan! O'zingni qadrla, umringni qadrla, chunki bu hayot bir kun kelib o'z poyoniga yetadi, sen esa oxirating tomon yaqinlashganing sayin o'zingni-o'zing yeyishni boshlaysan. "Eh, hozirgi aqlim bo'lsaydi..." deya boshlanuvchi nadomatli jumlar aytasan.

Soʻngra bu gaplari yanada yaxshi tushunilishi uchun bir muddat jimib qoldi Yuqori ong. Kendin uning har bir soʻzini anglashga harakat qilardi. Miyasidagi butun savollar oʻz javobini topgandi endi. Soʻraydigan koʻp narsasi ham qolmagandi, chunki aytilgan har bir soʻzni oʻz-oʻziga dars bergan Demosfen singari yaxshi tushungan edi.

- Endi haqiqatni bilasan. Shu sabab soʻnggi nafasingni olayotgan chogʻing "Hozirgi aqlim boʻlsaydi, hech uxlamasdim!" deysan. Bilmaganlar esa buni ham aytmay oʻlib ketishadi. Ular olgan nafasleri haqqini ado etganlariga ishonadilar, toʻlaqonli hayot kechirganlariga ishonadilar. Gʻalati emasmi bu? Xatolarga toʻla umr kechirsang-u, buning bir xato ekanini hatto bilmay turib oʻlib ketsang...

Yuqori ong chuqur nafas oldi. Soʻnggi soʻzini aytishga hozirlangani sezilib turardi:

- Dunyoda eng koʻp ikki tur insonlarga duch kelasan, Kendin. Biri "Toʻlaqonli yashadim!" deydi, boshqasi "Toʻlaqonli yashamoqchiman!" deydi. Ichlaridan juda, juda ham ozchiligi "Toʻlaqonli yashayapman!" deb ayta oladi. Shuni bilki, avvalgi ikkisi yashamayapti: yashagan yo endi yashaydi. Ammo oxirgisi aniq yashayapti. Ha, aytgandek, futbol 11 kishi bilan oʻynaladi, biroq Pele bitta, xolos.

Yuqori ong soʻzini bitirgach, birdan gʻoyib boʻldi.

Keng, gʻadir-budir maydonda ogʻzi bir qarich ochilib qolgan Kendin, "Qanday qaror qabul qilarkan?" deya poylab turgan Gipotalamus va goʻyo bu yerda boʻlgan hodisalarni ming martalab guvohi boʻlgan Jindan boshqa hech kimsa qolmadi.

Jin Kendinga bir dahlizni koʻrsatib, "Shu tomonga bor, men ham ortingdan boraman" dedi. Kendin dahlizga yaqinlashib, shovqin-suron bilan ichkariga kirdi. Uning kirishi bilan yotoqda pishillab



uxlab yotgan Kendinning nafas olishi bir paytda sodir bo‘ldi. Bir aksirish bilan tashqariga chiqdi.

Bo‘lib o‘tganlarning hech biridan xabarsiz, xurрак otganча, ter ichida uxlab yotgan Kendinni kuzatdi. Yuqori ong va uning so‘zlarini o‘ylagan holatda kuzatdi yotoqdagi o‘zini. Haqiqatda, chorasiz, ojiz, bir ishga yaramas holatda edi. "Devorga yopishgan chivinga o‘xshaysan!" degan jumla qulog‘i ostida jaranglab ketdi.

Boshqa tomondan Jin Gipotalamusga:

- So‘zimni qaytarmaganing uchun tashakkur, do‘stim. Uni seni yoningga yana bir marta olib kelaman. Bu safar unga buni qanday qilishni o‘rgatamiz..., - dedi. Gipotalamus boshini "Ha" ma’nosida irg‘ab qo‘ydi. Birdan yuzida quvonch porladi.

- Yaxshi, endi qayerga borasizlar?, - so‘radi qiziqish bilan. Jin:

- Dunyoning eng buyuk sirini kashf etishga boramiz!, - dedi va biroz avval Kendin chiqib ketgan nuqtaga yaqinlashdi.

Bu paytda Kendin yotoqda uxlab yotgan o‘ziga "Hoy, uyg‘on endi, uyg‘onsang-chi!..." deya baqirardi, u esa uyg‘onish o‘rniga aksirishni ma’qul ko‘rdi. Jin esa shu aksirish bilan xonada paydo bo‘ldi va tez-tez:

- Qo‘y uni, qani ketdik!, - dedi.

Miyasi g‘ovlab ketgan Kendin "Qayerga?" deyishga ham fursat topolmay o‘zini Jingga topshirdi.

## 13-bob

### PAPIRUS TA'SIRI

Kendin yozning o'rtasida qishga hozirlik ko'rayotgan chumoli galasini eslatuvchi minglab odamlar to'xtovsiz ishlayotgan yerda paydo bo'lib qoldi.

- Nima bo'lyapti, bu insonlar nima qilishyapti?, - dedi Jinga.

Odamlar shunday g'ayrat bilan ishlardilarki, bundan hayratlanmaslik imkonsiz edi. Bular oddiy inson bo'lishlariga qaramay, go'yo dunyoni qayta qurayotgandek ishlardilar. Xuddi dunyoni bo'laklarga bo'lganlar-u, har bir bo'lagini orqalariga ortib, boshqa bir yerda yangi dunyo bunyod etardilar.

Qilayotgan ishlari mutlaqo aqlga zid edi, ammo ular bundan hech hayratlanmasdilar. Og'irligi tonnalarcha keladigan toshlarni bir yerdan boshqa yerga tashib keltirishardi. Kendin va Jin yo'lni kuzatar, yo'lning oxiri esa hech ko'rinmasdi. Minglab inson yuzlarcha kilometrlik yo'lning ustida sirtlaridagi og'ir toshlar bilan dunyoning eng murakkab manzarasini yaratardilar. Toshlar joyiga keltirilishi bilan tosh tashiyotganlarga buyruq berishidan muhandis ekanligi anglashiladigan odamlar har bir toshni matematik mo'jizaga aylantirib, eng munosib yeriga joylashtirardi.

Kendin barcha zamonlarning eng hayratlanarli binosini insho etayotgan ushbu odamlarga sehrlanib qolgandi go'yo. Kendin ko'zi hech bir narsani ko'rmaydigan darajada, o'zini fido qilib, to'xtovsiz ishlayotgan insonlarni anglashga intilarkan, o'sha odamni ko'rdi. Shu on barcha bo'layotgan ishlar ma'no kasb eta boshladi. Atrofini shaxsiy muhofizlari o'rab olgan va qo'l

ostidagi 3 kishiga buyruq yog'dirayotgan haligi g'alati odamni ko'rishi bilanoq barchasini angladi. Bu o'sha edi: Xeops. Qurilayotgan inshoot esa "Xeops piramidasi" edi. Yuzlab yillardan so'ng "Buni insonlar qurgan bo'lishi mumkin emas" deyilajak dunyoning muhtasham mo'jizasini barpo etayotgandilar.

Kendin qat'iyat mo'jizaga aylanayotgan onni kuzatar ekan, tizzalab o'tirib qoldi. Bunday tartib, bunday intizom bo'lishi mumkin emasdi, ammo mana bo'larkan-ku. Bir qancha olimlar tomonidan yuz yillardan so'ng "Buni o'zga sayyoraliklar qurgan" deya da'vo qilinadigan piramidalar barpo etilardi, ammo o'rtada biror bir o'zga sayyoralik yo'q edi, yo barchasi o'zga sayyoralik edi-yu, biz anglamayotgandik. "Agar bularning bari o'zga sayyoralik bo'lsa, u holda men ham o'zga sayyoralikman, chunki, bari men kabidir, barchasi menga o'xshaydi. Agar bularning hech biri o'zga sayyoralik bo'lmasa, u holda men ham o'zga sayyoralik emasman, chunki, bari men kabidir, barchasi menga o'xshaydi... Unda menga nima bo'lyaptiki, o'zimga o'xshagan insonlarning 5000 yil avval qurgan narsalaridan hayratlanyapman?" deya o'ylanib qoldi Kendin. Bu g'alati chalkashlik edi.

Kuzatdilar... Piramidaning qurilishini kuzatish yer yuzida uchrashi mumkin bo'lgan eng noyob hodisa edi. Ajabo, bu ishning siri nimada ekan? Ayni paytda buni anglashga eng yaqin inson Kendin edi.

Ehtimol, navbatchilik usuli bilan ishlardilar, ammo bir o'zgacha navbatchilik: ishchilar hech ham almashmas, go'yo ish kunlari 24 soatdan iborat edi. Oraliq, tanaffus yo'q edi...

Hech kim uxlamasdi, uzoq muddat ovqatlanadigan ham yo'q edi. Kendin 'Fast Fud' ning yangilik emasligini ham bildi. Har kim tik oyoqda bir narsalarni yeb-ichib, yana ishlashda davom etardi. Ajabo, mizg'ib olish usuli ham shu davrda kashf qilingan ekan-da, ishchilar galma-gal toshlardan yasalgan yostiqlarga boshlarini qo'yib, 15-20 daqiqa uxlagandan so'ng ishlashda davom etardilar. Go'yo u qisqa uyqular ishning bir bo'lagidek hech kim uxlayotganlarga e'tibor bermasdi.

Kendin "Uchar Gilam"ga ishonmagan insonning ostidagi gilam birdaniga ucha boshlagandagi hayrat bilan Jindan so'radi:

- Bu qanday bo'lyapti, insonlarni gipnoz qilganday ishlatayotgan falsafaning nomi nima?

Jin donolarcha Kendinga javob berdi:

- Bularning bari Xeops degan odamning o'zini muqaddas sanaganligi natijasidir. Xeops o'zini bebaho ko'rmoqlikning ham chegarasidan chiqdi va o'zini Yaratuvchi ekanligini iddao etdi... "Men Xudoman", dedi avval, so'ngra o'zi bunga ishondi.

Ishongandan so'ng, "Modomiki, men Xudo ekanman, buni isbotlashim kerak" deya hozirgi texnologiyalar bilan ba'zilar 20 yilda oddiy ko'priklar ham qurolmagan bir paytda Xeops insoniyat tarixining eng muhtasham binosini shunchaki ilohligini isbotlash uchungina 20 yilda qurdi. "Shunday bir narsa qurishim kerakki, insoniyat "Buni Tangridan boshqasi qilolmas!" deya, menga ishonsin", dedi Xeops... U mana shunday ishtiyoq bilan ko'rganlaringni barpo etdi. Bu aytganlarim faqatgina Xeopsga tegishli emas, bundan keyin so'z boradigan Xafra va Menkauraga ham taalluqlidir. Chunki

bularning bari ayni fikrda edilar. Uchalovi ham xuddi hech qachon o'lmaydigandek yashardi.

Jinning aytganlari qiziq edi. Davom etdi:

- Xeopsning har bir so'zi qayd etib borilardi, vaholanki, ovoz yozish uskunalari yo'q edi. O'z davrining eng katta kotibini yoniga olib, unga: "Nima desam, nima qilsam, yoz!", dedi. Endilikda har aytgan so'zi, har bajargan amali papirus qog'ozlariga yoziladigan bo'ldi. Bu shaklda barcha qilgan ishlarini uzluksiz ravishda nazorat qiladigan bir mexanizmni yaratishga muvaffaq bo'lgandi. U xavotirda edi, chunki, uning amallari papiruslar qilayotgan da'voga mos bo'lishi kerak edi.

Kendin hayratda qoldi.

- Qoyilmaqom texnika. Hoynahoy avtoboshqaruv deganlari shu bo'lsa kerak, - dedi Jinga.

- Albatta-da. Agar o'ylab qarasang, qilayotgan har ishing boshqalar tomonidan qayd ostiga olinsa, sen "0 xato" rejimida, ya'ni, butkul xatosiz ishlashga majbur bo'lasan.

Kendin o'zining jamiyki hayratini bir og'iz so'zda jamladi:

- Qoyil-e....

Uning aytishga bundan boshqa so'z topolmagani ko'rinib turardi. Jin uning hayratini yanada oshirish maqsadida shunday dedi:

- Qiziq tomoni shundaki, shu kunga qadar saqlanib kelinayotgan papiruslarda "Xeops uxladi" degan birorta qayd mavjud emas.

- Haqiqatan-a, hech ham-a uxlamagan?

Hayajonlanganidan hatto gapini ham to'g'ri tuzolmadi.

- Yo'q, qadrdonim. Albatta uxlardi. U tabiiyki, iloh emasdi, ammo bunga shunday ishonardiki, "Uxlashga ketyapman" degan gap hech ham og'zidan chiqmadi. Uyqusi kelganida "Yolg'iz qolib o'ylab olishim kerak" der va xonasiga kirib ketardi. Uyquni ojizlik belgisi sanar va buni o'ziga sira munosib ko'rmasdi... Mana shu Xeopsning butun siri edi. Shu bilan birga bu papiruslarning anchagina qismi XXI asrga qadar saqlanishi Misr xalqining Xeops va u kabilarga ishonchi belgisi edi. Misrdagi barcha fir'avnlarni o'zlarini muqaddas hisoblardilar. Shu sababli ham 5000 yildan so'ng piramidalarning o'ziga emas, ularni qurdirgan hukmdorlarning qo'li tekkan ko'p narsalar saqlanib qolgan... Hatto fir'avn onasining jigari ham saqlaganlar, tushunyapsanmi?

Gapirishga so'z topolmayotgan Kendin shunchaki tinglardi.

- Keyinroq kelgan fir'avnlarning iddiolari o'z ahamiyatini yo'qota boshlagach, ularga oid ashyolar unchalik yaxshi saqlanmadi.

Jinning gapiga xulosa yasab:

- Demak, men ham Xudo ekanligimga ishonsam, u holda qilayotganlarim ham mo'jizaga aylanadi, shundaymi?, - dedi. Xavfsirayotgani bilinib turardi. Buning javobi "Ha" bo'lishi mumkin emasdi, ammo Jin:

- Ha, - dedi.

Kendin Jingga xuddi birinchi marta balandlikdan sakrashni sinab ko'rmoqchi bo'lgan, ammo jur'ati yetmagani uchun fikridan qaytgan, shuning uchun atrofida qilarga bir vaj ko'rsatishga majbur bo'lgan odamdek:

- Xo'p. Ammo men bunga ishonolmayman. Chunki, men shakshubhasiz, Allohga iymon keltiraman, - dedi.

Jin Kendinning chorasizligini ko'rib, hayajonini yo'qotmaslik uchun gapiga tuzatish kiritdi:

- O'ylashimcha, sen meni noto'g'ri tushunding. Bu yerda o'ziga yuqori baho berish kerakligi bilan birga boshqa bir ma'no ham bor. "Men Xudoman" deyishing shart emas. Sening shunchaki, "Mukammal" ekanligingga ishonishing "0 xato mexanizmi"ni ishga tushiradi. Bu esa quruq bir iddao emas. Muqaddas kitoblarda insonning "Mukammal" ekanligi yozilgan. Ya'ni, bu shaxsan Allohning aytganidir. Hatto muqaddas bo'lmagan kitoblarda ham insonning benuqson yaratilganligi haqida gap boradi. Bu degani, do'stim, Allohga ishonsang ham, ishonmasang ham sen mukammalsan. Shunday ekan, qiladigan ishing aniq...

Vayrona ostidan o'z otasining ovozi eshitib qolgan qutqaruvchi singari diqqat bilan quloq solardi Kendin.

- Sen shunchaki "Men mukammalman" deysan va kerakli ishni bajarasan. So'ngra qiziq jarayon boshlanadi, bajarganlaring mukammallik kasb eta boshlaydi.

Kendin yengil tortdi:

- Mantiqan to'g'ri, ammo bir muammo bor. Mukammallikning o'lchovi nima, nimaga ko'ra mukammal?, - dedi.

Bu jiddiy savol edi.

- Bir narsaning mukammal ekanligi qanday aniqlanadi, bilasanmi?, - so'radi Jin savolga urg'u berib. Savoliga javob olish uchun so'ramagani bilinib turardi.

- Biror narsa agarki, urfdan chiqmaydigan bo'lsa, ana o'sha mukammaldir, - tushuntira boshladi Jin.

Bu juda oson va jo'n tushuniladigan mukammallik ta'rifi edi.

- Ya'ni, inson mukammal, kislorod mukammal, daraxt mukammal, nok mukammal, chumoli mukammal va quyosh ham mukammaldir... Bular aslo urfdan qolmaydigan narsalar bo'lib, manbasi ham bir. Bu manbaga qanday nom berishing unchalik ham muhim emas. Bu haqida tasavvurga ega bo'lishing uchun quyidagilarni bilib olishing zarur: mukammal boshqa bir mukammallikni yaratmog'i mumkin emas. Ammo o'z ishini mukammallik darajasiga yaqinlashtirishi mumkin, albatta... Yaratgan narsalaringni qancha mukammallikka yaqinlashtirsang, uning urfdan qolishi shuncha sekinlashadi. Narsalarning deyarli nuqsonsiz yaratilishi mumkinligi haqida gapiryapman. "Giza Piramidalari" buning yaqqol misolidir. Oradan 5000 yil o'tishiga qaramay, bu asarlar hali hanuz urfdan chiqqani yo'q. Ammo bir kun sen oddiy inson bo'lishdan qutulasan, ular esa eskiradi. Bunga ishonch hosil qilishing mumkin.

Endilikda fikrlarini tartibga keltirib, xulosaga kelishi kerak bo'lgan siyosatchining shoshqaloqligi bilan:

- U holda "Men mukammalman" deyishing seni burchakka siqib qo'yadi. Ya'ni, o'z ishingni a'lo darajada bajarishga majbur bo'lasan. Da Vinchini eslayapsanmi? Suratlariga oldin imzo chekib, keyin ularni chizishni boshlardi. Bu bilan "Ey rassom, shu ondan boshlab Da Vinchi imzosi bilan rasm chizasan, diqqatli bo'l. Yaratajak asaringni mukammallikka olib chiq, chunki sen mukammalsan" demoqchi bo'lgan.



Kendin o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholay olmagan 6 milliard insonning adashganligi haqida o'yladi. Yillar davomida "Mendan hech narsa chiqmaydi" deb yashagani xayoliga keldi. Inson mukammal bo'la turib, harakat qilmasdan qanaqasiga o'zining uddalay olmasligiga ishonishi mumkin? Aslida uxlashga bo'lgan rag'bat ham shu sababdan edi. Yo'qsa o'zini qadrlagan biror kimsa har kecha kunning yarmini yostiqa bag'ishlaydimi? Shu on o'zi haqidagi xulosalarning baridan nafratlanib ketdi. So'ngra Jinning piramidalar haqida aytganlarini o'yladi. Hamma bir xil gapni aytardi. Holbuki piramidalarda hikmat yo'q edi. "Sir" deya hisoblanuvchi narsalar aslida sir emasdi. 5000 yil o'tib buni sir deb o'ylash inson qobiliyatlariga past baho berishning natijasi edi.

Bu fizik qonun: Yugurgan odam yurgan odamdan o'tib ketadi. Yurgan odam joyida turgandan... Joyida turgan odam ham orqaga qarab yurayotgan odamdan, orqaga yurayotgan odam esa orqaga yugurayotgan odamdan o'tadi... Shunday ekan, oldinda bo'lish uchun yugurish shart emas. Shunisi aniqki, yillar davomida biz buyuk deb hisoblagan insonlarimiz, shunchaki, o'z ishlarni bajarganlar. Ammo qolganlar faqat orqaga qarab yurgani uchun, ular hammadan ilgarilab ketdilar. Shunday ekan, daladagi qo'riqchi kabi ikki qo'lini ikki yonga uzatib kutib o'tirish, boshqalarning muvaffaqiyati bilan ovunish ahmoqlikdir. Yugursang, eng oldinga o'tib olarding. Buning uchun sehrli so'zlarga ishonishing kerak edi: "Men mukammalman". Bor-yo'g'i shu.

Kendinning miyasida piramidalarning barcha siri ochilgan edi. Jinga o'girilib, undan izn so'radi.

- Boraver, ammo biron narsaga tegina ko'rma, - deya ogohlantirib, Kendinga ruxsat berdi.

- Hech xavotirlanma, bir zumda qaytaman, kut, do'stim, - dedi va Xeopsning oldiga ketdi. Uning eshitmasligini bilishiga qaramay, qulog'iga egildi va faqat ikkisigina bilishi lozim bo'lgan sirday qulog'iga pichirladi, so'ngra ortiga qaytib:

- Endi ketishimiz mumkin, - dedi.

Jin uning Xeops qulog'iga nima deb pichirlaganiga qiziqdi:

- Unga nima deding?, - deb so'radi Kendindan.

- Hech narsa, - deb javob berdi Kendin. Ammo bu "Hech narsa" aslo oddiy "Hech narsa" emas edi. "Hech narsa" ning ichida "Bu mening katta sirim, nima deganimni sen tushunmaysan, seni qiziqtirmaydi, senga nima, senga aloqasi bo'lmagan ishlarga aralashma..." ma'nolari va bundan boshqa yana ko'plab gaplar bor edi. Jin yuzida tabassum bilan faqatgina:

- Ketamiz, - dedi.

## 14-bob

### BILGAN HAMMA NARSANG YANGGLISH

Xeops bilan ishlari bitgach, piramidalarni ortda qoldirib cho'lda yurib ketishdi. Kendinning go'yo xohlasa-da, ayta olmayotgan bir gapi bor edi. Ancha vaqtdan so'ng nima deb o'ylasa o'ylagandirki, birdan to'xtadi va Jinga o'girildi. Jin ham to'xtadi. Kendin unga haydovchilik guvohnomasidagi surati bilan qiyofasi mos kelmaydigan haydovchiga shubhalanib qaragan politsiya ofitseri singari:

- Sen meni faqat tarixdagi mashhur insonlar oldiga olib bording. Endi kam uxlaydigan oddiy insonlar bilan bir uchrashmaymizmi?, - dedi.

Jin har ishga bahona topib turgan bebosh o'g'lini ogohlantirmoqchi bo'lgan otaning shafqati ila:

- Aslida seni nima qiziqtirayotganini juda yaxshi bilaman. Tuban ong "Faqat jismoniy yohud aqliy nuqsonga ega insonlarga oz uxlaydi!" deb seni chalg'itdi, - dedi.

- Aslida shunday... Yo'q... Ya'ni dunyoda 6 milliard inson yashaydi. Yana biroz aylansak...

Kendin bularni biroz tortinchoqlik bilan aytdi. Hamon bahona qilib turishi o'ziga ham yoqmayotgandi. Jin konsert berib turib, pianino klavishlarini zarb ila bosgan mahoratli pianist singari so'zlarini chertib-chertib shunday dedi:

- "Sen ham har bir oddiy inson kabisan" degan edi Yuqori ong, yodingdami? Inson zoti bir ishga 300 marta urinib, qo'lidan kelmagach, qulayliklar ro'yxatidan o'rin olgan bu ishni 301-marta bajarishga harakat qilmaydi. Ammo ilk urinishdayoq

o'xshagan, ammo murakkab bo'lgan bir ishga yuz millionlab insonlar o'zini uradi, ammo biron martasida ham uddasidan chiqmaydi. Hech kim o'ylab yoki chamalab ko'rmaydiki, birinchi safarda bajarilgan u ish balki tasodifan bo'lgan va ikkinchi marta aslo takrorlanmas. Aytaylik, biz yanglishdik, aytilgan o'sha oson ishni har uringan bajara oladi, shunday bo'lsa, bu ishni bajargan har bir kimsa oddiy inson bo'lmaydimi? Nega butun binolarni to'rtburchak deb o'ylaysan?... Eshitgan birgina yomon misolni, yuzlab yaxshi misollardan ko'ra jiddiy qabul qilmaysanmi? Aminmanki, kam uxlagani uchun o'lgan birini eshitsang, oz uxlab dunyoni o'zgartirgan mingta inson qolib, sen o'shani jiddiy qabul qilgan bo'larding.

Kendin o'ylab ko'rib, Jinni haq deb topdi. Inson haqiqatdan ham u ta'riflagandek edi...

- Bilmaysanmi, bu Tuban ongning senga qilgan bir o'yini-ku. "Eynshteyn kunda eng oz 12 soat uxlagan ekan. Buyuk Eynshteyn-ku bu, bir bilgani bordir-da!" degandan so'ng, "Demak, ko'p uxlash zehnni o'tkirlashtiradi!" deya xulosa chiqarish yana qanday izohlanishi mumkin? Abraham Linkolnning mashhur muvaffaqiyat hikoyasini eshitgandirsan. Qayta-qayta omadsizlikka uchragan, ammo taslim bo'lmagan. 52 yoshida esa AQSH prezidentiga aylandi! Bugun millionlab insonlar og'ir paytlarida uning namunali qat'iyatidan ilhom olgan holda, oyoqda tik turadilar. Hech o'ylab ko'rdingmi? Agar Linkoln 51 yoshida vafot etganida, uning bu qat'iyatiga birov jiddiy qararmidi? Hatto "Ko'p ishlash bilan ham hech narsa bo'lmaydi. Linkoln umr bo'yi tinmadi, oxiri nimaga erishdi?" deb mehnat qilayotgan insonlarning hafsalasini pir qilishardi ba'zi qo'lidan bir ish kelmaydigan oddiy insonlar...

Mana sen oddiy insonsan, galstuk taqqaningda qovog'ingni uyib oladigan oddiy insonsan, - dedi.

Jinning har bir so'zi Troya urushida Pandorusning Menelausga otgan o'qi kabi edi. Kendinning dami ichiga tushib ketdi, hijolat tortdi... Qarshilik ko'rsata olmadi. Tuban ongning o'z ustidagi hukmronligini ag'darishning uddasidan chiqa olmagandi.

- Haqsan. Men faqatgina qiziqdim, xolos, - dedi past ovozda.

- Sen qiziqmayapsan, balki, Tuban ongga quloq tutishda davom etyapsan. Biroz avval aytib o'tganlarimni seni ishontirish yoki senga ozor berish uchun aytmagandim. Hozir aytadiganlarimdan maqsad ham seni ishontirish emas. Faqatgina bir haqiqatni ta'kidlash zarur. Har narsada adashganing va aldanganing kabi bunda ham adashishing yohud aldanishingni xohlamayman. Shu sababdan tushuntirishga majburman. Qani, ketdik..., - dedi Jin va birga yurib ketishdi.

Ular aqlan nogiron bolalarning reabilitatsiya markazida edilar. Yarim tun. Ushbu bolalarga mas'ul o'qituvchi va enagalar ularni uxlatish bilan ovora edilar. Ko'pchiligiga uxlatish uchun dori berishar, ammo dori ham hech qanday foyda bermasdi. Demak, Tuban ong haq ekan. Haqiqatdan ham ruhiy nogironlar kam uxlashardi. Giperaktiv bo'lishlariga qaramay bu bolalar qanaqasiga uxlashmasdi? Jin Kendinning xayolidan o'tayotgan savollarni bilgandek tushuntira boshladi:

- Bularning aqli zaif bo'lganidan aytilgan narsani to'liq anglay olmaydilar. Anglasalar edi, ularni hech kim "kasal" deya bu

yerda ushlab turmagan bo‘lardi. Bu bolalarning oz uxlashlari hikmati ham aslida shu: tushunmaydilar.

Kendin yana hech narsani tushunmagandi. Jin so‘zida davom etdi:

- Ular oz uxlaydilar, chunki, hech kim ularni ko‘p uxlashga majbur qilolmaydi. Ya’ni sendagi "8 soat uxlamasam o‘lib qolaman!" degan fikr ularda yo‘q. Ular oz uxlaydilar, chunki, ulardagi kecha-kunduz tushunchasi senikidan farq qiladi. "Kecha-mi, kunduz-mi, menga nima?" deyishadi odatda. Bunga ahamiyat bermaydilar.

Ularning miyasidagi kecha-kunduz tushunchasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar kun hamma uchun 24 soatdan iborat. Ya’ni ular ham charchashlari, shu sababdan uxlashlari zarurligini o‘ylab qolgandi Kendin.

- Kun bo‘yi harakat qiladilar, charchab qolishmaydimi?, - so‘radi Jindan.

Shu payt Jin Kendinning tibbiyot fakultetida o‘rganganlariga mutlaqo zid bo‘lgan bir gapni aytdi:

- Uyquning charchoqqa bog‘liqligi ham aslida bo‘lmagan gap. Kendin sutchidan bo‘g‘irsoq so‘rayotgan odamga qaragandek taajjub bilan Jinga:

- Shunaqasi ham bo‘larkanmi? Insonlar charchashadi, uxlashadi va dam olishadi..., - dedi.

Jin esa Kendinning adashayotganidan amin bo‘lgan ohangda:

- Nimaga ko‘ra charchash? Masala shunda! Tug‘ilganingda senga "uyqu jadvali"ni tuzib berganlar, hech vaqt yo‘qotmay "Charchoq taqvimi"ni ham yaratib berdilar. Masalan, 8 soatlik

ish kunini kim belgilab bergan? Ba'zi xalqlar bor, kunda 16 soatlab mehnat qiladilar, ammo hech kimsa bunga parvo ham qilmaydi. U odamlarning lug'atlarida "charchoq" degan so'zning o'zi yo'q. Sen bo'lsa, hatto 8 soat bo'lmay turib uf tortishni boshlaysan, - dedi.

Kendin buni eshitib, "Kim biladi yana nimalarni yanglish bilar ekanman?" deya o'zidan so'radi. Kimdir kelib bir uydirmani to'qib chiqaradi, boshqalar so'rab-surishtirib o'tirmay unga ishonadi-qo'yadi... Jin tushuntirishda davom etdi:

- Seni har doim aldab kelganlar. Yillardir senga "Fotoapparatdan qushcha uchib chiqadi!" deyishdi, vaholanki, hech qanday qush chiqmadi. Doktor senga ukol qilayotganida dadang "Hech ham og'rimaydi, bolam!" dedi, ammo og'ridi! Keyin dadang nima qildi? Quchog'iga olib "Yig'lama, qo'zichog'im!" deya ovutdi. Ular shunchalik bo'rttirib yubordilarki, yig'lashingni ham taqvimga bog'lab qo'ydilar. "Og'zingni katta och, ham qil!" dedilar, shunday qilding ham. So'ngra biroz katta bo'lgach, "Ovqat yeyayotganda og'zingni yop, bunaqa ochma!" deyishdi.

Kendin bularni eshitib turib birdan janozaning o'rtasida masxaraboz ko'rib qolgan yosh boladek qiqirlab kulib yubordi. U kularkan, Jin uning qulog'iga yaqinlashib, muhim bir sirni aytayotgandek so'zida davom etdi:

- Bilasanmi? Sen bu dunyoga bir dohiy bo'lib kelganding. Barcha dohiylar kabi sen uchun ham imkonsiz ish yo'q edi, toki o'sha kunga qadar... Dadang bilan parkda qumdan qasr qurayotgan edingiz. Shu payt park ustidan samolyot uchib o'tib qoldi. Sen unga ishora qilib "Uni menga olib bering, dadajon!" deding. 5 yoshda eding o'shanda. Dadang kuldi. "Kel,

bolajonim, senga vafla olib beraman!" dedi. Sen esa "Yo'q, samolyot xohlayman!" deb turib olding. Oxiri u senga o'yinchoq samolyot olib berdi. Holbuki, sen o'sha payt o'yinchoq samolyotni nazarda tutmaganding. Sening fikringga ko'ra o'sha uchayotgan narsa kimningdir dadasiniki-yu, sening dadang ham uni olishi mumkin edi. Sen uchun imkonsiz bo'lgan hech narsa yo'q, ammo dadang uchun bu amri mahol edi. Chunki, yillar avval u ham dadasi bilan parkga borganida, dadasi unga samolyot o'rniga konfet olib bergandi. Man shunday, do'stim, bor-yo'g'i 5 yoshda eding, senga imkonsizlik darsini o'rgatganlarida.

Kendinning kulgisi kesildi. Chindan ham bular to'g'ri edi. Hech qaysi bola uchun imkonsiz ishning o'zi bo'lmaydi, toki unga otasi, onasi, ustozlari, qo'shnilari va boshqa kattalar imkonsizlikni o'rgatmaguniga qadar. Hamma kabi Kendinning ham qo'llariga imkonsizlik ro'yxati tutqazilgan edi. Endilikda u ham biron narsaning mumkin yoki mumkin emasligini shu ro'yxatga qarab bilardi...

- Hozir bolaliging haqida gapirar ekanman, yana bir narsani aytishim kerak. Bolaligingda televizor pultining ovoz ko'taradigan tugmasini bilib olganingda hamma seni olqishlagandi. Vaqti-vaqti bilan ularning nazdida yosh bolaning bajarishi imkonsiz bo'lgan narsalarni qilishing ularni mamnun etar, hatto buning uchun mukofotlar ham edilar. Oddiygina ishlar uchun katta mukofotlarga ega bo'larding. Masalan, stolning ustida turgan o'yinchoq'ingni olish uchun kursini qo'llashingni mo'jiza hisoblab, seni ko'klarga ko'tarishgandi. "Ofarin, polvon o'g'lim!" deyishgandi. Sen ham katta bir ishni amalga oshirdim deb o'yilganding. Sayoz fikrlashga mana shunday o'rgatilding. Hozir oddiygina bir



kasalxonani boshqarayotgan oddiy bir shifokor bo‘lishingni sababi ham mana shu.

Kendin taajjub bilan bularni eshitib turarkan, Jin yanada g‘alati bir narsani aytib qoldi:

- Senga yana bir narsa aytaymi, do‘stim? Umr davomiyligini ham taqvimga bog‘ladilar. "Insonlar o‘rtacha 60 yil yashaydi!" deb umringizni ham qisqartirdingiz, chunki, insonlar 50 yoshdan so‘ng jazirama issiqda soya kutgan kabi yurak xurujini kutib yashay boshladilar. 150 yil yashashiga astoydil umid qilgan nechta odamni ko‘rsata olasan?

"Ha-da, barcha 60 yil yashashiga ishonadi, shuncha yashaydi ham. Inson ishonchi sabab saraton hujayralarini yengolgan ekan, nega sog‘lom hujayralarini yoshartira olmasin?" o‘yladi Kendin. Jin ovozi balandlatib:

- Sening hamma ishlaring bir qancha xayoliy uydirmalar asosiga qurilgan taqvimlarga bog‘langan. Endi aqlan zaif insonlarga qara. Ular bu taqvimlarni inkor etib yashashadi. Buning natijasida "Biologik ritm taqvimi" degan narsa avtomatik ravishda harakatga kelib, nima kerak bo‘lsa, shuni bajaradi. Avtopilot rejimiga o‘tilgani kabi, - dedi.

Kendin ba’zan Tuban ongning ta’siriga tushib qolar, o‘zi xohlamagan narsalarni o‘ylay boshlardi. Jin bunga qarshilik ko‘rsatish uchun bor kuchi bilan harakat qilayotgandi:

- Qattiq charchaganidan oyog‘ida zo‘rg‘a turgan, uyga keliboq o‘zini yotoqqa tashlagan bir odamni tasavvur qil. Tunning qoq yarmida, chuqur uyquga ketgan bir mahalda zilzila bo‘lib qolsa-yu, bu odam qanaqasiga 100 yil uxlab, hordiq chiqargandek zumda o‘rnidan turib ketadi?

- ...

- Chunki, unda hayotga muhabbat, omon qolishga bir rag‘bat paydo bo‘ladi, shu on u o‘z asliyatiga qaytadi. Shunday ekan, taqvimlarga ko‘ra yashamaydigan bu bolalarning sening miyangdagi taqvimga ko‘ra, charchaganlariga ishonib, uxlashini kutish g‘irt ahmoqlikdir.

Kendin o‘zini botqoqlikning o‘rtasida noo‘rin turgan tosh kabi ko‘ra boshladi. Jin aqli zaif bolalar haqida gapirishda davom etar, ammo gapni boshqa tomonga burib yuborishi aniq edi:

- Ular itoatkor bo‘lmagani sabab atrofida gilar uxlayotgani uchungina uxlashga urinmaydilar senga o‘xshab. Hozir shu yerda 10 kishi bo‘lib, hammasi uxlasa, qiladigan ishing bo‘lmagani uchun senam yotib uxlab qolarding. Chunki, sen itoatkorsan, o‘z olaming yo‘q, ammo ularda bor. Shu sabab, ular o‘z dunyosida yashayotganida sen boshqalarnikida yurgan bo‘lasan. Bugunga qadar qilgan ishlaringga bir qara, odatlardan boshqa narsani ko‘rmaysan. Inglizlarga e‘tibor berganmisan? Biron ingliz ortga o‘girilayotganida bo‘yni bilan qayilmaydi. Balki butun tanasi bilan o‘giriladi. Buning sababini so‘rasang, "Oqsuyaklar shunday qiladilar" deb aytishadi. Aslida buning oqsuyaklik bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Bu shunchaki odatlanish, xolos. Uzoq o‘tmishda aqli raso bir odam chiqib, "Bo‘yin churrasidan saqlanish uchun butun tanamiz bilan o‘girilishimiz lozim" dedi. Ular buni mantiqli deb topib, hayotlariga tatbiq etdilar. Bu odat ular orasida keng yoyildi. Keyinroq yangi bir ingliz dunyoga kelib, negaligini farqiga ham bormay otasi kabi butun tanasi bilan o‘girila boshladi. "Otam shunday qilyaptimi, demak men ham shunday qilaman!" dedi. Bo‘yin bilan o‘girilish ehtimoli xayoliga ham kelmadi.

Koʻrmagan narsasini qanday ham qilsin? Ishonaver, agar haligi aqli raso: "Yurak xurujidan saqlanish uchun kunda 17 marta boshingizni devorga uring!" deganda hozir Angliyada har 17 tadan soʻng signal beradigan "Bosh urish devorlari" boʻlardi.

Kendin Jinni tinglarkan, butun hayoti koʻz oʻngidan oʻtdi. Otasi boʻyinbogʻini boʻyniga taqqani uchun u ham shunday qilardi. Hatto umuman yoqtirmasligiga qaramay otasi taqqani uchungina taqardi. Jiddiy koʻrinish uchun shunday qilmasa boʻlmasdi. Jiddiy koʻrinish tashvishi ham aslida bir odat edi. Aqli raso avvalgilardan biri jiddiylikni boʻyinbogʻga bogʻlagani uchun u ham muhim majlislarga galstuk taqib borardi. Jin toʻxtagan joyidan davom etdi:

- Masalan, Misr. Yaqin oʻtmishda Misrda oʻtkir zehnli biri chiqib, soʻradi: "Birodarlar, dinimizda isrof haromdir. Koʻcha chiroqlari bor ekan, nega mashinalarimizning faralarini yoqib, akkumulyatorlarini ketkazamiz?". Shu kundan boshlab, mashina faralari sekin-asta oʻcha boshladi. Oradan bir muncha vaqt oʻtdi. Misrda hech bir haydovchi avtomobil farasini yoqmaydigan boʻldi. Bunga shunchalik oʻrganib qolishdiki, kechqurun yoʻlda farasi yoniq mashina koʻrib qolsalar, signal chalib oʻchirishini talab qila boshladilar. Hozir shu tirbandlikda tugʻilgan biron inson mashina faralarini yoqish haqida oʻylab koʻrmaydi. "Nega faralarni yoqmaysan?" desang, "Nega mebellaringni olovga otmaysan?" savoliga olishing mumkin boʻlgan javobni eshitasan... Yevropada esa buning aksi. Hech bir bola qoʻlida rul, faralari yoniq mashina bilan tugʻilmaydi, ammo koʻchaga chiqishi bilan ularni yoqadi.

Jinning bergan izohlaridan soʻng Kendinning hayotga doir bilganlari, barcha dunyoni hoʻkizning shoxida tasavvur qilgan

bir vaziyatda oyga chiqib undan Yer yuziga qaragan odamning dunyo va ho‘kiz haqidagi yanglish fikrlariga o‘xshardi...

## 15-bob

### UZUN BIR KECHA

Oy yorug'ida odam siyrak bo'lgan ko'chada jimgina ketardilar. Jin kutilmaganda o'z atrofida to'xtovsiz aylana boshladi.

So'ngra birdan to'xtadi va vaqt yo'qotmay Kendinga o'girilib:

- Yur ketamiz, seni bir ajoyib yerga olib boraman, - dedi.

Kendin nima bo'lganini tushunib yetmay turib, yotoqda uxlab yotgan bir ayolning oldida paydo bo'lib qoldi. Jin Kendinga ayolni ko'rsatib:

- Nima qilyapti?, - dedi.

Kendin o'ylab ham o'tirmay javob qaytardi:

- Tabiiyki, uxlayapti!...

- Seningcha qachon turadi?, - deb so'radi Jin bu safar.

Kendin bu oddiy savollardan Jinning maqsadi boshqa ekanligini angladi. Derazadan tashqariga qaradi. Hammayoq oppoq edi. Tunning qoq yarmi, qishning o'rtasi edi.

- Quyosh chiqqanda uyg'onar har holda, - dedi Kendin quyosh bilan baravar uyg'onish Jin uchun muhimligini inobatga olib...

Jin derazaga yaqinlashdi, pardani ochib, osmonga qaradi va:

- Agar quyosh chiqmasa-chi?, - deya so'radi.

- Qanaqasiga?! - dedi Kendin bunday ehtimolni rad etayotganini sezdirib.

Jin ovozini biroz ko'tarib:

- Agar Quyosh chiqmasa-chi?, - deya savolini takrorladi.

Kendin bu savollardan charchadi, Jinning mazah qilayotganini sezib, javob bermadi.

So'ngra Kendin va Jin bir-biridan achchig'langan ikki go'dak kabi uzoqdagi ikki burchakdagi ikkita alohida o'rindiqa o'tirib kuta boshladilar...

Bir necha soatlardan keyin ayol uyg'ondi va kiyina boshladi. U kiyinarkan, Kendin derazadan tashqariga qaradi. Tashqari qorong'u edi. Ayol tashqariga chiqish maqsadida eshik tomon yo'nalgan payt Kendin so'radi:

- Qayerga ketyapti?

- Ishga..., - dedi Jin kulimsirab.

- Qanaqa ish ekan bu kechaning yarmida, tonggacha hali bor-ku?

Kendin ayolning ham sirli ekanligi haqida o'ylashni boshlagan payt Jin masalaga oydinlik kiritib:

- Qasam ichamanki, agar Quyosh chiqishini kutsa edi, eng kam 3 oy uxlashi kerak edi, - dedi.

Shundan so'ng Kendin bu yerlar qutb ekanligini tushundi. Ayolning ortidan birin-ketin tashqariga chiqdilar. Barcha uylarning chiroqlari yona boshladi. Ishxonalar ham allaqachon ochilgan edi. Insonlar kechaning qorong'usida xuddi kunning qoq yarmidagidek ishlardilar. Maktabga ketayotgan o'quvchilar, xizmat ulovlari, avtobuslari va boshqa hayotiy jarayonlar... Kendin yarim tunda qaynayotgan hayotni kuzatarkan, Jin gapida davom etdi:

- Yarim tun bo'ldi, endi uxlayman!, degan ham sensan, do'stim. Bu yerda "Yarim tun" tushunchasi yo'q. Yana ham to'g'rirog'i

"Tun" tushunchasining o'zi yo'q... Tun bo'lmagan hududda yashashlariga qaramay bu insonlar o'rtacha uyqu soatidan ham kam uxlaydilar. Bir qancha olimlar buning sababini havoning tozaligi bilan bog'laydilar. Buni "Qutb havosi toza bo'lganligi uchun insonlar oz uxlaydilar" deb izohlaydilar. Holbuki, bunday emas.

Kendin quturgan filni ko'rganday hayratga tushdi. Faqatgina eshitardi.

- Sen ham hozir bu yerda yashashni boshlasang, bir necha uyqusiz kechadan so'ng, uyqu tartibingni o'zgartirishga ehtiyoj sezarding va tun bo'yi uxlashga harakat qilmasding. Uyqudan faqat yetarlicha hordiq chiqarganingdan so'ng uyg'onarding. 3 yo 4 oylik kunduz davrida esa holat yana ham qiziq bo'lardi. Uxlash uchun tunni kutmasding. Ishdan qaytgach, uyqung kelishi bilan uxlarging. Buning natijasi o'laroq sen ham o'rtacha uyqu soatidan kamroq uxlarging. Shunday qilib bu yerda tun yoki kun sen bilgan tushunchalarga mos kelmagani uchun insonlar bu safsatlarga bog'lanib qolmaganlar. Sen ekvator deb ataydigan, dunyoni ikkiga ajratib turadigan chiziqning yuqorisi va ostidagi tropik mintaqalar orasida joylashgan "Ekvator mintaqasi" dagina tun uyqu vaqtining boshlanishi deya qabul qilingan. Bundan kelib chiqadiki, inson o'ziga o'zi kecha degan ajdarhoni yaratib olgan. Hayotini yeb bitiradigan ajdar. Sening tunda ishlashingga to'sqinlik qilayotgan narsa mana shu yanglish tushunchalaring emasmi?

Kendin chuqur o'yga toldi. "Kech bo'ldi, ertaga qilarman, kechqurun u yerga borilmaydi, kechanning xayridan kunduzning sharri yaxshi..." va yana yuzlarcha shu kabi kecha qotillari.

Kendin bu yolg'onlarga qanday qilib aldanganini o'yladi. Jin yana asl mavzuga qaytdi:

- Aqli zaif bolalar nega kechalari uxlashga qiynalishlarini endi tushundingmi? Chunki, ular itoatkor bolalar emas. Ular aytilganlarni diqqat bilan tinglab, so'ng amalga tadbiiq qiladigan, suratga tushayotganda esa aytilgan holatda turib beradigan insonlarga sira o'xshamaydilar. Ya'ni, "Bolajonim, kel bu kecha bu yerda uxla" deya o'rgata olmaganlari uchun ham ular oz uxlaydilar. Noto'g'ri tushunchalarga ega emasliklari uchun ham kam uxlaydilar. Shuningdek, qutblarda ham aqli zaif insonlar bor, ammo ularni bilgan odam "Ular oz uxlaydi", deb har xil gaplar so'zlamaydi. Qisqacha aytganda, sening hayoting bilan bog'liq ishongan qadriyatlarimgda muammo bor. Sen bularni tagiga yetmay, odatiy qabul qilaverishing seni yeb bitirishda davom etadi.

Hoynahoy sayr tugadi shekil Jin quyidagi savolni berdi:

- Umid qilamanki, Tuban ongning aqli zaiflar bilan bog'liq aytgan gaplaridan allaqachon to'g'ri xulosa chiqarib olgansan. Xo'sh, endi aqli zaiflar bilan "Dohiy" deb atalgan u insonlarning umumiy yoki o'xshash jihatlari seningcha nima?

Kendin og'ir xo'rsingandan so'ng javob berdi:

- Ikkisi ham isyonkor va yaramas. Ikkisining ham yuragi hech bir kenglikka sig'mas.

Kendin Tuban ong deb nomlangan bu narsa o'zining salbiy tomoni ekanini tushunib yetgandi. Tuban ong tinmay bahonalar ishlab chiqaradigan fabrika kabi ishlardi. Shu onda qaror qildi. Bundan keyin yana bahonalar o'rgatishni boshlaganida Yuksak



ongga murojaat qilib, Tuban ongning bu shaytoniy o'yinini  
barbod qiladi.

## 16-bob

### O'ZARO KELISHUV

Jin yangilik kashf etgan arxeolog singari hayajon bilan Kendinga tushuntira boshladi:

- Sen hozir butun dunyoda keng tarqalgan xatolardan birini qilyapsan. Avval ko'rpani boshingga qadar tortib, o'ranib olasan. Keyin esa bundan ko'ngling to'lmay ko'rpaning ostida uxlashni boshlaysan.

- Nima bo'libdi shunga?, - dedi Kendin, chunki, u har tun shu alfozda uxlardi.

- Aslida shu holatda uxlagan har kecha bir mo'jiza yaratgan bo'lasan, - deb kuldi Jin.

Kendin hazilga tushunmadi:

- Qanaqasiga?

- Dunyoda karbonat angidriddan nafas oladigan inson yo'qligiga qaramay, sen shu alfozda ko'rpaning tagiga kirib olib, miyang ehtiyoj sezadigan kislorodni to'sib qo'lasan. Shunday qilib, karbonat angidrid bilan nafas olib yashay oladigan insonga aylanyapsan. Ko'rpa bilan boshingni o'rab olganingda nafas olishing bilan ichkaridagi kislorod sifati tushib ketadi. Xullas, ko'rpa ostida faqatgina karbonat angidriddan iborat havo qoladi... Kim biladi, bechora miyang ertalabgacha qay ahvolga tushadi?

- Iii, - dedi Kendin.

- Nima "iii"? Ko'rpa bilan boshingni o'rab olganingda miyanga boradigan kislorod sifatini tushirib yuborasan. Bu miyaning ishlashini sekinlashtiradi. Vaholanki, sen shunday

uxlashing kerak edi...- deb Jin sekingina Kendinning boshi ustidagi og‘ir ko‘rpani pastroqqa tushirib qo‘ydi. Boshi tashqariga chiqdi.

- Endi takror miyanga kiraylik-chi, bu holatda ichkarida nimalar o‘zgardi, sekingina bir qaraymiz!, - dedi Jin.

Yana burun teshiklaridan ichkari kirdilar. Kislorod molekulasi singari harakatlanib, ma‘lum bir yerga kelib tushishdi. Manzara ajoyib edi. Biroz avval kislorodsiz qolgan miyadagi jamiyki birliklar mavjud kisloroddan eng a‘lo darajada foydalanish uchun safarbar qilingan edi. Chunki, ko‘rpa ochilgani sabab kislorod miqdori ortgan, endilikda xizmatchilar uni normal darajaga tushirish uchun ishlashayotgandi.

- Ko‘rib turganingdek, shu onda, ya‘ni sen uxlar ekansan, miyang faqatgina seni to‘g‘ri uxlatish, kun davomida olgan ma‘lumotlaringni tartiblash hamda seni ertangi kunga tayyorlash uchun ishlashi kerak bo‘lgan bir mahalda mana shu g‘alati ishlar bilan ovora bo‘lib turibdi. Keyin esa "Yaxshi uxlay olmadim!" deysan... U holda bundan so‘ng ko‘rpani boshingga yopib uxlamaginki, miyang kerakli ishni bajarsin, - dedi Jin, keyin esa Gipotalamusning ish joyiga ketdilar...

Yo xudoyim, bu qanday harakat bo‘ldi? Gipotalamus bir tomondan Doktor NRemning ishlarini tekshirar, boshqa tomondan esa tanadagi issiqlik miqdorini nazorat qilishga majbur edi. To‘fonga uchragan kema kapitani singari tinim bilmay ishlardi. Dahshatli shovqin-suron ichida tinmay buyruqlar yog‘dirardi.

- Nimalar bo‘lyapti bu yerda, bu odam qanday ahvolga tushib qoldi? Alloh, Alloh!..., - baqirib so‘radi Kendin.

Ichkarida bir zavodning ishlab chiqarish liniyasi guvillab turardi. Jin savolni eshitmadi. Kendin ovozi yanada baland ko'tarib, savolni takrorladi:

- Nimalar bo'lyapti bu yerda, deyapman!?

- Hozir birlamchi vazifasi uyqungni nazorat qilish bo'lgan Gipotalamus rohatlanish uchun eng oxirgi darajaga sozlab yoqib qo'ygan konditsionering harorati bilan tanang o'rtasidagi farqni muvozashtirishga harakat qilyapti. Uxlayotgan xonangdagi harorat darajasi ko'tarilib ketsa-yu, sen boshingga chirmab olgan ko'rpa bilan buni yanada oshirib yuborganingda Gipotalamus sening tana haroratingni ham muvozashtirishga majbur bo'ladi. Ko'rib turganingdek, aslida bajarishi lozim bo'lgan vazifani bir burchakka uloqtirib, mana shu holdan toydiradigan ishlar bilan mashg'ul.

Jin yana nimalardir dedi-yu, shovqindan ovozi eshitilmadi. Qisqacha aytganda, "Xonadagi issiqlik miqdori ham uyqu tartibi uchun muhim, bular o'z vazifasini bajarishi uchun xona haroratida uxlashga harakat qil!" deyayotgandi.

Ichkariga kirgan kislorod shu ishga mas'ul xizmatchilar tomonidan me'yorlashtirildi. Shovqin to'xtagach, Jin so'zlashda davom etdi:

- Har bir insonda uyqu ikki bosqichda amalga oshadi, hozir sen shuning ilk bosqichi bo'lgan chuqur uyqudasan. Ya'ni, "NRem uyqusi" deb nomlanadigan davrdasan. Ushbu bosqichda sen fiziologik jihatdan muolaja qilinasan. Xohlasang, bu jarayonni amalga oshiradigan Doktor NRemni biroz kuzatamiz...

NRemning ish joyiga borishdi. Doktor Kendinning kun davomida tortilgan mushaklarini bo'shashtirish uchun

odatdagidek tinmay mehnat qilayotgandi. Sekin yaqinlashishdi...

- Salom..., - dedi Jin.

Doktor terlab ketgandi. Hamma joy urush maydonini eslatardi go‘yo...

- Sizga nima bo‘ldi o‘zi?, - so‘radi Kendin.

Doktor xato qilib qo‘ygan odamdek asabiylashib:

- Yotog‘ingda ona qornidagi homila kabi buklanib uxlaganing uchun butun boshli mushaklaring tarang tortilgan. Shu sababdan o‘z vazifamni bajarish o‘rniga ularni bo‘shashtirish bilan mashg‘ulman. Haliyam o‘z ishimni boshlamadim. Kun bo‘yi boshingdan kechirgan stressni qisilib uxlaganing uchun menga ham yuqtirding. Endi bekorga vaqt sarflab o‘tiribman.

- Sen uchun nima qila olaman?, - dedi Kendin uzr so‘rash ohangida.

Doktor NRemning ko‘zlari chaqnab ketdi. Agar samimiy aytayotgan bo‘lsa, bu ajoyib imkoniyat. Keraksiz ishlarni bajarishdan qutuladi endi. Muvozanatsiz ishlashiga sabab bo‘layotgani uchun Kendinning uxlash tarzi unga noqulaylik tug‘dirayotgan edi. Darrov tushuntira ketdi:

- Avvalo, ishimni qisqa vaqtda bajara olishim uchun tirishib uxlama, bu birinchi shartim. Mening ancha vaqtimni olyapti bu!

- Bu oson, - dedi Kendin o‘ziga ishongan holda.

- Tirishmasdan uxlash uchun ortiqcha tirishmaysan, degan umiddaman!, - hazil tariqasida ogohlantirdi Doktor NRem. Kulishdilar. So‘ngra davom etdi:

- Agar iloji bo'lsa, yotishdan 2.5 soat avval ovqatlan, toki uxlaguningcha hazm jarayoni tugasin. Aks holda, ovqatlanishing bilan darhol uxlasang, zero bu kecha ham shunday qilgansan, eng kamida 2 soat u bilan ovora bo'laman.

Kendin bularni yaxshilab tushunib olishga urinayotgandi.

- Bu nihoyatda oddiy bir mantiq. To'rt ishim va birgina vaqtim bor. Agar sen yotishdan 2-3 soat avvalroq taom yesang, uyqu kun tartibimda bo'lmagan chog'da xotirjam bo'laman. Yoki uyqu kun tartibimda bo'lsa ham oshqozoning bilan aloqador ishim bo'lmagani uchun yengil tortaman.

Kendin har oqshom uxlashga yaqin och bo'ri singari nima topsa yeyaveradigan xilidan edi. Shu sabab ayni shu nuqta ko'proq e'tiborini tortdi. Doktor NRemning yana aytadiganlari bor edi:

- To'la oshqozon bilan uxlashga yotsang, ertasi kuni hech ham dam olmagan odamdek uyg'onasan. Oddiy, ammo to'g'ri gap bu. Menga o'z vazifamni bajarishimga o'rtacha ikki soat kifoya qiladi, ammo mana bu keraksiz qisilishlar, to'la oshqozon, yuqori haroratli xona, yana qo'shimchasiga har oqshom nega shunday qilayotganingni o'ylamasdan ko'rpani ostiga kirib uxlaganingda paydo bo'ladigan ortiqcha issiqlik miqdori va karbonat angidrid... Shularning hammasi meni birdan ortiq ishni bajarishga majbur qiladi.

Kendin jimgina eshitib turar, chindan ham Doktorning barcha aytganlarini har kecha takrorlardi.

- Mana shu xatolaring mening ishimni yaxshigina cho'zib yuboradi. 2 soatda bajarishim kerak bo'lgan ishni sen tufayli 6 soatda zo'rg'a bitiraman. Buning oqibatida mendan keyin

nazoratni o‘z qo‘liga oladigan Doktor Remning, ya’ni seni psixologik jihatdan muolaja qiluvchi hamkasbimning muddati kamayadi.

Bu yer odatiy kasalxonadan unchalik ham farq qilmasdi. Kendin va Jin o‘zlarini shoshilinch ravishda kasalxonaga kelganida birdan yaxshi bo‘lib qolgan bemor kabi his qildilar. Doktorlarning aqli joyida, qonunga zid biron narsa yo‘q, dangasalik yo‘q, navbat kutish, chek chiqarish ham yo‘q edi. Massaj ham qilishardi hatto. Doktor NRem o‘zini matematik olim kabi tutib, so‘zida davom etdi:

- O‘rtacha 8 soat uxlaysan-ku! Mendan keyin kelgan Doktor Remga 2 soatgina vaqt qoladi, ammo sen yana boshqa xatolaring bilan uning ham ishini murakkablashtirib yuborganing uchun bu muddat unga ham kifoya qilmaydi. Ishimizda sifat bo‘lmagani uchun 8 soat uxlashingga qaramay ertalab yana lanj holatda uyg‘onasan. Yana bir misol keltiray, 2 soatda bitta gilam yuvadigan ayolni tasavvur qil. 4 soatda bu ayol maksimum 2 ta gilamni yuvadi. Agar sen unga 4 soat vaqt va 8 ta gilam bersang, ularning hech birini to‘liq tozalay olishini kutmasang ham bo‘ladi.

Jin nimanidir o‘yladi shekilli, Kendinga "Ketik!" deb ishora qildi. Ichkari kirgan joylaridan yana qayta tashqariga chiqdilar. Yotoqda buklanib uxlab yotgan Kendinni biroz kuzatib turdilar. Doktor NRem haq edi. U aytgan va qilishini istamayotgan hamma xatoni qilgandi Kendin.

- Adashmasam, uxlashdan avval qaylali makaron yegandim, - dedi Kendin kulib...

Xona harorati 28 daraja atrofida edi. Konditsionerni 20 darajaga sozladilar, yotoqdagi Kendinni biroz bo'shashtirdilar. Kamida ikki xatoni tuzatgan bo'ldilar. Takror ichkariga kirib, Doktor NRemga uchradilar. Biroz yengil tortgan doktor:

- Rahmat!, - dedi. Chuqur nafas olgach, yana:

- Senga bir ishora berishim mumkin, - deb aytdi.

Kendin sabrsizlik bilan u ishoraning nima ekanini bilishga qiziqdi.

- Televizor ko'rib yoki kitob o'qib uxlab qolasan-ku, "Tirishmasdan uxla" deganimda shuni nazarda tutgandim. Shu holatda uxlashga harakat qil, chunki, eng kam qisilgan holating o'sha payt bo'ladi, - dedi Doktor ovozini pasaytirib...

- Faqat buni aytganimni Doktor Rem eshitib qolmasin!, - ogohlantirib qo'ydi oxirida. Kulishdilar.

Doktor NRemning ishi tugagach, Doktor Remni chaqirtirishdi. U yetib keldi. Ammo Kendin bilan Jinni ko'rmadi.

- Tinchlikmi? Bugun erta chaqirding..., - dedi Doktor Rem.

- Bugun juda yaxshi. Ba'zi o'zgarishlar bor..., - dedi Doktor NRem Kendin va Jinga ko'zini qisib. So'ngra unga arxivdagi shisha sharchalardan biriga o'xshash mitti soqqani uzatdi.

Doktor Rem sharcha bilan baravar vazifani ham o'z zimmasiga olgach, ishini boshlab yubordi.

Doktor Rem Kendinning psixologi bo'lib, Kendinni kun davomida boshdan kechirgan psixologik muammolardan xalos etish hamda o'rgangan yangi bilimlarini joy-joyiga ko'ra tartiblash uchun ishlayotgandi. Bu jarayonda unga tushlar ko'rsatish ham Doktor Remning asosiy vazifalaridan biri edi.



Doktor Rem "sayoz uyqu" deb ataladigan zamon davomida ishlashiga to'g'ri kelar, shu sababdan u ishlaydigan vaqt "Rem uyqusi" deb nomlanardi. Doktor Rem Doktor NRemga qaraganda xassoslik bilan ishlar, yana biroz romantik ham edi.

Boshqa tarafdin Doktor NRem bilan tanishgan Kendin, Doktor Remni nazarda tutib:

- Qani, u bilan ham tanishaylik..., - dedi Jinga.

Jin va Kendin olmaxondek tez, ari kabi sinchkovlik bilan ishlayotgan Doktor Remga yaqinlashib:

- Salom!, - dedilar.

Doktor Rem boshini silkib, alik olgan bo'ldi. U tez ishlardi. Bu kecha Doktor NRemning ishlari o'tgan kunga qaraganda erta tugagan bo'lsa-da, ishlarni bajarib ulgurmay qolishidan tashvishda edi.

- Hozir nima qilyapsan?, - so'radi Kendin.

- O'rganganlaringdan kelgusida ishga yaraydiganlarini uzoq muddatli xotiraga qayd etyapman. Bu borada men tegishli bo'limlar bilan doimiy aloqadaman. "Qachon kerak bo'ladi, qanday kerak bo'ladi?", - deb so'rayman. Ular esa javob beradilar.

So'ngra tushunishlari yanada oson bo'lishi uchun misol keltirdi:

- Masalan, bugun piramidalarga aloqador hujjatli film ko'rding. U yerda o'rganganlaringni qayd qilyapman. Ya'ni, ertaga ertalab uyg'onganingda tushingda piramidani ko'rgan bo'lasan, - dedi.

Kendin va Jin bir-birlariga qarab, kulib yuborishdi. Doktor Rem ham kulguga qo'shildi.

- Ammo men juda qiynalyapman. Biroz yordamlashib yuborsang, ishimni oson bitirib, senga yana ham yaxshiroq xizmat qilgan bo'lardim. Shunda o'zing ham yaxshiroq uxlagan bo'larmiding.

- Ayt, sen uchun nima qila olaman?, - deb so'radi Kendin Doktor Remdan.

- Agar iloji bo'lsa, kechasi musiqa tinglab yoki televizor ko'rib uxlama!

Kendinning xayoliga Doktor NRemning "Televizor ko'rib yotgan holatingda uxla" degan gapi keldi. Kendin biroz tushunmay kalovlanib qolgandi, Doktor Rem buning qanday zavqli ish ekanligini bilgani uchun ham izoh berishni lozim topdi:

- Aslida Doktor NRem uchun qisman foydali bo'lsa ham, men tun bo'yi yoqiq qolgan televizorning tasvir va ovoz to'lqinlariga ma'no berish uchun alohida quvvat sarflashga majbur bo'lib qolaman. Chunki, o'sha ko'rsatuv va ovozlarni ham yangi o'rganilgan ma'lumotlar qatorida idrok etish mening vazifam. Shunday bo'lsa-da, musiqa tinglab yoki televizor ko'rib uxlaydigan paytlaring zamon sozlamalaridan foydalanishing mumkin. 30 daqiqadan so'ng bu jihoz o'chsinki, men ham xotirjam ishlay olay. Aytmoqchi, televizor qarshisida uxlagandan ko'ra kitob o'qib uxlaganing ham menga, ham Doktor NRemga, ustiga ustak o'zingga ham juda foydali. Agar shunday qilsang, tirishmasdan uxlagan bo'lasan hamda uxlab qolishing bilan ovozlarni ham to'xtaydi. Shu bilan birga, ishingga

yaroqli ma'lumotlarni o'rganib uxlash shaxsiy rivojlanishing uchun ham foyda bo'ladi.

Doktor Remning aytganlari chindan ham mantiqli tuyuldi. Bunga hayron qolishning keragi ham yo'q, aslida. Bu uning vazifasi edi.

- Balki bilmassan, ammo psixologiya haqiqat bo'lgan va bo'lmagan narsalar orasini farqlamaydi. Seni haqiqatan ham tashlab ketishlari bilan tashlab ketilishlik haqidagi musiqa tinglab uxlashing orasida hech qanday farq yo'q! Har ikkisidan ham menga sening tark etilganing haqida ma'lumot yetib keladi. Yana ham ochiqrog'i, haqiqatda tark etilgan chog'ing his qilgan qayg'uyingni tark etilish haqidagi musiqa orqali menga ham his qildir olasan. Buning yagona farqi, ta'sirini keyin sezishingdir. Esingdami, ba'zan turgan joyingda yuraging siqilar, hech narsa qilging kelmay qolardi... Bularning bari uxlayotganingda tinglaganlaringning ta'siri. Biz buni "Artral ta'sir" deb ataymiz. Shunday qilib men bu ta'sirlarni kamaytirish uchun ham ortiqcha quvvat sarflashga majburman. Yana "Artral tugun" ga faqatgina uxlayotganda tinglaganlaring sabab bo'lmaydi. Uyg'oq paytigda ham bu kabi musiqalar tinglashing yoki seni qayg'uga soladigan filmlar ko'rishing bu tugunni hosil qiladi. Qisqasi, men ishimni bajarayotganimda qiyinchilikka duch kelmasligim uchun sen mahzunlikka sabab bo'ladigan qayg'uli narsalardan uzoq tur.

Bu noodatiy ma'lumot edi. Hayron qoldi. Hali yana ko'p hayron qoladi.

- O'rni kelganda so'rab olay: Sen nega o'z imkoniyatlaringdan foydalanmaysan?

Bilmagandan keyin nimadan ham foydalanardi!?

- Yuragingni siqadigan hodisalar yuz berganda uyqung kelishini sezgan bo'lsang kerak! Bu yaratilishing bilan bog'liq. Ya'ni, siqilgan paytlaring uyqung kelishi ko'pincha tabiiy instinkt bilan aloqador bo'ladi. Bu havaskorlikdan uzoqlash endi. Bu yerda senga 24 soat davomida xizmat ko'rsatadigan psixolog bor, ammo sen bu imkoniyatni sira qadriga yetmaysan. Har gal siqilganingda psixologga borish ham qimmat, ham odamni o'lgudek charchatadi. Mashinani joylashtirish muammosi, tirbandliklar, ko'rik uchun to'lov... Bularning bari odamning yuragini siqadi. Ammo men sen uxlagan payt qisqa vaqt ichida seni davolay olaman. Demak, kunduz kuni seni mahzun qiladigan biror ish bo'ldimi, tortinmay darhol mening yonimga kel, ortga surma. Kechqurunga qoldirsang, muammolar yig'ilib qoladi va hal qilishim qiyinlashadi. Mening oldimga kelish uchun shunchaki uxlashning o'zi yetarli. Na mashinani joylashtirish muammosi bor, na bir tirbandlik. Menga ishon. Siqilganingda, mahzun bo'lganingda 15-20 daqiqaga bo'lsa ham menga uchrab tur.

Kendin bu haqida hech o'ylab ko'rmagan edi. 24 soat davomida uzluksiz xizmatida bo'lgan ruhshunos bor ekan-u, uning bundan xabari yo'q. Tushunyapsanmi? Xuddi o'zing bilmaydigan bir xazinang bor-u, sen uning ustiga o'tirib olib tilanchilik qilyapsan. Buni endi tushunib yetganingda: "Kim biladi yana nimalardan bexabar ekanman?" demasmiding? Kendin ham xuddi shunday holatda edi. Eshitib "Qoyil-ey" deya olardi faqat. Doktor Rem gapini davom ettirdi:

- Senga yaxshiroq xizmat qilishim uchun meni qiynama. Xonangdagi yorug'lik va hid miqdorini eng past darajaga

tushirishing shart. Chunki, "Ko'prik" deb nomlangan, avvalroq ko'rgan shu kichkinagina joying, ya'ni shu mitti tepalik tongga qadar senga mana shu hid va yorug'likni sezdirmaslik uchun ishlaydi. Bu ko'prik ham miyangning bir qismi ekan, oddiy hid uni ertalabgacha mashg'ul qila oladi.

Haqiqatda diqqatga sazovor ma'lumotlar edi bular.

- Uxlayotganda miyangni keraksiz narsalar bilan mashg'ul etma. Masalan, xonangga hasharotlarga qarshi dori sepasan. Iltimos sendan, ma'lum vaqtdan so'ng xonani shamollat, keyin uxla. Xullas, uxlarkan eng oddiy ishni qil, faqatgina uxla.

Kendin va Jin Doktor Rem so'nggi gapini tugatmay turib, takror tashqariga chiqdilar. Tunchiroqni narigi tarafga qaratib qo'yib, yorug'lik ta'sirini kamaytirdilar, xonani shamollatdilar va qayta ichkariga kirdilar.

Gipotalamus ishchilari bilan majlis o'tkazayotgandi. Nima bo'lganini unga ham bildirdilar.

- Ishlar bugun erta bitsa kerak, - dedi Doktor Rem.

- Ko'ryapsanmi, bu odam qanchalik berilib ketdi, aytganlarimizni o'sha vaqtning o'zida amalga oshirish uchun zirillab u yoqdan bu yoqqa borib kelyapti, - deya gapga qo'shildi Doktor NRem. Gipotalamusning og'zi qulog'ida edi:

- Ajoyib xabar bu! Qani endi sizni ko'ramiz..., - deya majlisga yakun yasadi.

O'ttiz yildirki, majlisni bu qadar xush kayfiyatda o'tkazmagan edilar. Yana barcha o'z ishiga qaytdi.

Bu orada Kendin va Jin ichkariga kirib, to'g'ri Gipotalamusning xonasiga bordilar. U mamnun edi.

- Salom, Janob Gipotalamus!, - dedi Jin. Gipotalamus:
- Seni tabriklayman! Eshitishimcha, biznikilar bilan hamkorlik qilibsana..., - dedi Kendinga.
- Ha, ammo bu o'rganganlarimning baridan so'ng endi nima qilishim borasida seni eshitmoqchiman,- dedi Kendin ilk bor ovga chiqayotgan tajribasiz ovchidek hayajonlanib...
- Uyqu vaqtlaring... Avvalo, kayfiyatingga qarab uxlashdan voz kechasan endi, chunki, biz ham nazorat qilolmaydigan ba'zi narsalar bor... Quyoshning dunyoga ta'sirining sendagi aksi uyqu gormonlarining sifati va zichligini belgilaydi. Biz buni "Uyqu to'lqinlari" deb ataymiz. Avval senga bu to'lqinlarning "Ekvator mintaqasi"dagi ta'sirini tushuntiraman. Bu mintaqada uxlash uchun eng munosib vaqt quyosh chiqishidan avvalgi 5 soatdir. Soatlar bilan gapirishim seni chalg'itishi mumkin, shu sababdan shunday tushuntirishga majburman. Chunki, yozdagi quyosh chiqish vaqti bilan qishdagisi farq qiladi. Shuning uchun "quyosh chiqishidan avvalgi 5 soat" eng yaxshi ta'rif bo'ladi. Kechasi shu vaqt oralig'ida uxlash uyqu sifatini maksimal darajaga ko'taradi, chunki, uyqu garmonlari aynan shu vaqt oralig'ida juda yaxshi ishlab chiqariladi. Bu vaqtdan foydalanib qolishing kerak. Uyquga yotish vaqting haqida gap ketganda senga bosim o'tkazishni xohlamayman, ammo bu vaqtdan unumli foydalanib qolishingni tavsiya qilgan bo'lardim. Masalan, quyosh soat 06.00 da chiqsa, jami 5 soat uxlaydigan bo'lsang, soat 01.00 da yot va 06.00 da tur. Bunday qilolmasang, hech bo'lmasa bu oraliqning 2-3 soatidan foydalanib qolishga harakat qil. Ya'ni, tunda eng kech 04.00 da yot, shunda 5 soatdan so'ng uyg'onganingda soat 09.00 bo'lishiga qaramay,

bu oraliqning 2 soatidan foydalanib qolgan bo'lasan!, - degach, Doktor Rem boshini uyoqdan buyoqqa chayqadi. Muhim narsa aytmoqchiligi bilinib turardi.

- Garchi majburiy bo'lmasa-da, quyosh bilan bir vaqtda uyg'onishingni qat'iy tavsiya qilaman. Shunga qaramay, agar o'zing bir uyqu tartibini tuzadigan bo'lsang, biz unga ham ko'namiz.

Jin gapga qo'shildi:

- Quyosh bilan barobar turishning boshqa foydalari ham bor... Barcha insonlar uxlayotgan bir mahalda uyg'oq bo'lish ulkan imkoniyatdir. O'ylab ko'rgin-a! Hamma uxlayapti, sen esa uyg'oqsan. Bu o'zingni foydali, kerakli, qadrli va boshqalardan bir qadam oldinda his qilishingni ta'minlaydi.

- Ha, ha... Erta uyg'ongan vaqtlarimda buni his etaman,- dedi Kendin. Gipotalamusning xursandligidan ko'zlari porlab turardi.

Kendinning yana bir savoli bor edi:

- Yaxshi... Hamma uxlayotganda uyg'oq bo'lish psixologiyasi haqida gapirding. Men tunda ishlashni juda yaxshi ko'raman. Tun davomida hamma uxlayotganda, men ertalabgacha barchadan oldinda bo'lish psixologiyasini tanlasam bo'ladimi?

- ...?

Gipotalamus jim turishni afzal ko'rdi, chunki, bu u javob bera oladigan savol emasdi. Bu savolning javobini eng yaxshi biladiganlardan biri Jin edi. Jin so'zga kirdi:

- Dunyoda 24 soat davomida erkin kezib yuradigan quvvat bor. Bu tunganmas quvvat 6 milyard insonga hech bir to'lovsiz

tarqatiladi. Bu ajoyib kuchdan eng ko'p hissani esa ongi ochiq insonlar oladilar. Ya'ni, uxlayotganlar bundan foydalana olmaydilar. Chunki, uxlayotganda insonning ongosti to'liq ochiq bo'lishiga qaramay, ongining 95% i yopiq holatda bo'ladi. U holda barcha insonlar uxlayotgan bir mahalda uyg'oq bo'lish ham ong, ham ongosti bilan bu quvvatga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Erkin tarqaluvchi bu energiya hamma uxlarkan kirish uchun bo'shliq axtaradi. Bu bo'shliq esa faqatgina uyg'oq bo'lganlarning onglaridir.

Kendin va Gipotalamus Jinni qiziqish bilan tinglashardi:

- Hatto hamma uxlayotgan payt uyg'oq bo'lganlar istalgan ma'lumotga istalgan shaklda erisha oladilar, chunki, bu quvvatning tarqalishi ularning qo'lida. Bu kuchni bilganlar istagan mavzulariga butun diqqat-e'tiborlarini qaratishlari bilan unga aloqador jamiyki tafsilotlar ushbu energiya natijasida to'planib, go'yo oltin sandiq ichidagi xazina kabi insonga o'z-o'zidan oqib keladi. Buni Ibn Sinodan tortib, Edisongacha bo'lgan ko'pchilik olimlar ham e'tirof etganlar. Aytganlarimga ishonish qiyindir balki, ammo buni tun yoki tongning ilk soatlarida sinab ko'rgan har qanday inson tan oladi. Chunki, bu ikki vaqt xuddi olmaning ikki pallasidek o'xshash. Bu qanchalik katta kuch ekanligini tasavvur qilyapsanmi? Barcha uxlarkan, sen faqatgina ishingga e'tiboringni qaratasan va kutasan. Kech bo'lishi bilan butun xalq tezda yotoqqa kirib, pishillab uxlashni boshlab yuboradi. Uxlayotganlarning bu energiyadan nasibasi bo'm-bo'sh belanchak kabi havoda muallaq qolib ketadi. Birozdan so'ng barcha energiya sen tomon xuddi yetim boladek yugurib kelib, istaklaringga nazar soladi. Keyin esa bu quvvat sening qo'l ostingda butun dunyoni sayr qilishni boshlaydi. Istagan kutubxonangdan istagan



ma'lumotini topasan. Bu quvvat senga hatto uxlayotgan olimlarning ham ma'lumotlarini ko'tarib olib keladi. Neki xohlasang, qayerdan xohlasang, bir zumda to'planib senga yetib keladi... Bu o'ta shaxsiy ma'lumotdir. Xudo haqqi hamma joyda ham gapiraverma! Garchi aytsang ham hech kim ishonmaydi!... "Telba" deb atashadi seni va o'zingga qiyin bo'ladi. Buyuk insonlar bu quvvatdan foydalanib, hiyla qilishiga kim ham ishonadi deysan?

Kendin Jinni eshitib turib hayratdan og'zi ochilib qoldi.

- Bu sirni bilmagan va bunga ishonmaganlarning ba'zilari energetik ichimliklar bilan zehnlarni ochish va yuqori darajadagi quvvatni tutib qolishga urinadilar. Qanchalik g'alatiya? Atrofda cheksiz quvvat kezib yursa-yu, ammo inson o'z qiymatidan bexabar holda, ongsiz ravishda tinmay sun'iy energiyaning ortidan quvgani-quvgan, - deya gapini tugatdi Jin.

Kendin alamidan yig'lab yuboray dedi. Chunki, u ham bu ikki vaqt oralig'ida uxlardi. Hayoti davomida har kecha hammadan barvaqt yotib, tongda yana hammadan kech uyg'onardi.

Mahzunligini ketkazish va Jinning bu mavzuni yopishi uchun Gipotalamusga o'girilib:

- Iltimos, davom et, - dedi.

Gipotalamus go'yoki bemorining yarasini bog'lab turib, uning joni og'riyotganini his qilgan doktor singari mavzuni davom ettirdi:

- Bundan tashqari, tush vaqtiga, quyoshning tikka kelgan paytiga, ham e'tiboringni qaratishingni xohlardim. O'sha vaqtdan yarim soat avvalgi va yarim soat keyingi, umumiy 1 soatlik muddat ichida 20-30 daqiqa uxlab olishing, sening


to‘liq uxlaganingni anglatadi. Ammo ish soatlaring bunga to‘sqinlik qilsa, tungi uyqu davomida bu bo‘shliqni to‘ldiramiz. Ya’ni, bunga yopishib olishingga hojat yo‘q. "Tush payti uxlolmadim, uxlaganimda edi yanada tetik bo‘lardim!" deya turli-tuman keraksiz bosimlar o‘tkazma o‘zingga.

Kendinning ishi bunga xalaqit bermasdi. Shu sababdan xotirjam tortdi. Xalaqit berganda ham hech narsa o‘zgarmasdi. Axir, Gipotalamus unga kerakli yordamni berish kafolatini taqdim qilayotgandi.

- Har qanday vaqtdan muhimroq bo‘lgani esa quyosh botishidan avvalgi 2 soatlik muddat. Masalan, quyosh soat 17:00 da botsa, 15:00 - 17:00 orasida uxlashing sen uchun o‘ta xavflidir... U paytlarda nimalarni boshdan kechirishimizni aslo bilmaysan. Butun miya sening zarar ko‘rmasliging uchun safarbar etiladi. Aqliy faoliyating deyarli noldan pastga tushib ketadi. Uni barqaror ushlab turish uchun tinmay kurashamiz. Eslaysan! Bu vaqtlarda uxlab turganingda: "Hozir o‘zi ertalabmi, kechqurunmi, seshanbamidi yo juma, kechami yo kunduz..." deya gangib qolarding. Xullas, quyosh botishidan avvalgi 2 soat davomida mutlaqo uxlama, chunki, uyg‘onish to‘lqinlarining cho‘qqiga chiqqan nuqtasi ayni shu vaqtdir. Agar bu vaqtlarda uyqung kelsa, bor ana, aylanib kelasanmi, dush qabul qilasanmi, bilmadim, boshingni devorga urasanmi, ammo aslo uxlay ko‘rma!, - dedi-yu, Gipotalamus o‘rnidan turdi:

- Hozir senga mana shu uyqu to‘lqinlari batafsil yoritilgan rasmni ko‘rsatmoqchiman.

U shunday deb, xonasidagi ulkan televizorga o‘xshash narsaga o‘girildi. Shu payt ekranda bir rasm ko‘rinib turardi. Gipotalamus uni ko‘rsatib, batafsil izohlar bera boshladi.



4

- Bu rasmda uxlash va uyg‘onish to‘lqinlarining rivojlanish davrini ko‘rishing mumkin. Yuqorida so‘z yuritgan uch maxsus zamonni alohida belgilab qo‘ydim. Ularga jiddiy qara. Bundan tashqari, boshqa vaqtlarni ham bilishing foydadan xoli bo‘lmaydi. Ammo qayta ogohlantiraman: Eng muhimlari yoy shaklida belgilab qo‘ygan qismlarim. Diqqat qil!

<sup>4</sup> Dalga – to‘lqin

Kendin qayd qilib olish uchun qog‘oz qidirgandek atrofga alangladi. Gipotalamus jilmayib qo‘ydi:

- Xotirjam bo‘l! Bu yerda ko‘rganlaring va barcha tushuntirganlarim to‘liq yodingda qoladi.

Kendin hech narsa so‘ramadi. Gipotalamus so‘zida davom etdi:

- Masalan, quyosh chiqqandan keyin uxlaydigan bo‘lsang, yana 3 soat uxlashning vaqt yo‘qotishdan boshqa zarari yo‘q. Ammo quyosh chiqqandan keyin uyg‘onib, takror uyquga ketish xotirangga zarar yetkazadi... Endi yaxshilab eshitib ol! Quyosh botishidan avvalgi 2 soatlik muddat ichida uxlashing, hattoki 15 daqiqaga bo‘lsa ham, biz uchun bartaraf etish imkonsiz bo‘lgan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

- Biz uchun?, - deya gapga qo‘shildi Kendin.

- Biz uchun, chunki, sen bor hamma joyda men ham bo‘lishga majburman.

Kendin Gipotalamusning so‘zlaridan hech qachon yolg‘iz bo‘lmaganini tushunib yetdi. Hatto shu sabab o‘zini Aleksandr Makedonskiydanda buyukroq his qildi, sababi, u Aleksandr kabi "Kim men bilan boradi?" deb so‘ramasa ham butun qo‘shini undan bir zum bo‘lsa-da ajralmaydi. U shularni o‘ylab turarkan, Gipotalamus davom etdi:

- Uyqu vaqtlarini shunday tushuntirdim. Ammo bu ekvator mintaqasi uchun xos. Qutblarda holat bir muncha farq qiladi. Qutblar atrofi doimiy ravishda sovuq bo‘lganidan bu yerda termik yuqori bosim hosil bo‘ladi. Shu sababdan quyoshning qutblarga ta’siri ekvator mintaqasidagi singari bo‘lmagani uchun uyqu gormonlarini - ba’zi bir mavsumga bog‘liq

to'liqlardan tashqari - kunduz davrida seziladigan daraja aniq emas.

Kendin yangidan yangi narsalar o'rganayotgandi. Lekin hanuz asl savolga javob olmadi: "Qanday qilib kam uxlayman?"

- Endi uyqungni qanday qilib kamaytirishing kerakligini o'rgataman senga.

Kendinga jon kirdi, ko'zlari katta-katta ochildi.

- Aslo "Bo'ldi, qaror qildim, endi 4 soat uxlayman!" deb uyqungni kamaytirishga urinmaysan, bu ham xavfli, ham zararli, ham adaptatsiyani murakkablashtirib yuboradigan holat. 30 yoshdasan hozir, 30 yildan beri ko'p uxlaysan, degani bu. Hozir butun tizimni buzish haqida gapiryapsan, lekin shuni bilishing kerakki, men, Doktor Rem, Doktor NRem va butun miya, barchamiz sening bu nizomingga allaqachon moslashib bo'lganmiz. Bu albatta, oson bo'lmaydi. Shu sabab oz-ozdan kamaytirasan uyquni. Avvalo o'zing uchun munosib uyqu me'yorini belgilab olasan. Masalan, 4 soat uxlashni maqsad qilding, deylik. Bugungi uyqu me'yoring esa 8 soat. Ya'ni, uyqungni 4 soatga tushirishing kerak. Biron zarar ko'rmay turib uyquni ozaytirishing uchun hozirgi muddatingdan har uch kunda bir 15 daqiqa kamaytirish orqali maqsad qilgan uyqu me'yoringga erishasan. Bundan tashqariga chiqsang, qiynalib qolamiz. Senga "Gipotalamuslar cho'qqisi" haqida gapirgandim, esingdami, sen mazax qilganding?

- Haa, - dedi Kendin hijolat tortib.

- Mana shu yig'ilishlarda shunga o'xshash ko'pgina mavzularda suhbatlashamiz. Ba'zi Gipotalamuslar bu yig'ilishlarga urushdan chiqqandek bir alfozda keladilar.

E'tibor bersam, o'shalarning ba'zilar 10 soat uxlab turib uyqusini birdan 5 soatga tushirgan insonlarga tegishli.

Gipotalamus bunday keskin o'zgarishga tayyor bo'lmagani sababli bunday qilish mashq qilmay turib jangga tushgandek gap uning uchun, natijada, butun jamoa og'ir ahvolga tushib qoladi.

Kendin Gipotalamusni oylik maoshga ishlaydigan xizmatchi kabi ko'ra boshladi. Gipotalamus aytayotganlarini Kendinning yaxshilab tushunib olishini xohlardi.

- Bu xuddi 10 yil davomida oxurda yotgan otni birdan Dubay kubogi musobaqasiga tashlagandek gap... Xudo haqqi, o'zingga qo'shib bizni ham o'tga otma. Uyquni birdan kamaytirsang, haqiqatan juda og'ir ahvolga tushib qolamiz. O'zimizga kelishimiz bir necha oylab vaqt olishi mumkin. Eng xavfli tomoni esa ne-ne umidlar bilan uyquni kamaytirishga qaror qilib, shunday xato uslubni qo'llaganingdan so'ng ham natijaga erisha olmasligingdir. Bu sening uyquni kamaytira olishingga bo'lgan ishonchingni butkul yo'qqa chiqaradi va sen qaytib buni sinab ko'rishga urinib ham ko'rmaysan.

Kendin nimalar qilmasligi kerakligini to'liq o'rganib olgandi. Ammo Gipotalamus har safar yangi ma'lumotlar taqdim etardi.

- Sal qolsa, unutay debman. Barcha uchun uyqu me'yori turlicha. Ya'ni, kimdir 2 soat uxlaydigan bo'lsa, bu sen ham shunday qila olishingni anglatmaydi. Shunday ekan, sen 15 daqiqadan uyqungni ozaytirib, minimum uyqu vaqtiga erishgungga qadar shu zaylda davom etasan. Bu yerda bilishing kerak bo'lgan yagona narsa sog'lom bir insonning 4

yo 6 soatlik uyqu bilan hech qanday muammolarsiz yashay olish haqiqatidir.

Gipotalamus yana nimanidir esladi shekilli, tabassum qilganicha, soʻzida davom etdi:

- Ishqqa muftalo boʻlgan paytlaring edi. Hech qanday uygʻotuvchi soatsiz oʻzing bemalol uygʻonar, 1 soat uxlab 24 soat tik oyoqda tura olarding. Yodingdami?

Gipotalamusdagi ayni tabassum Kendinning ham yuzida porladi.

- Albatta, esladim. Sevib qolgan edim. Koʻzinga uyqu kelmas, yeyish-ichishdan butkul uzilgandim. Goʻzal kunlar edi...

- Haa, sen uchun goʻzal, biz uchun qiziqarli kunlar edi. Butun miya seni oyoqda tutib qolish uchun safarbar etilgandi. Faqat muhabbating uchun yasharding. Eng buyuk maqsading oʻsha qiz edi. Soʻngra erishding unga va hammasi tugadi. Koshki, yana...

Gipotalamus gapini tugatishga ulgurmedi. Kendin:

- Aslo u haqida gapirma, - deya uning soʻzini boʻldi.

Jin oʻzini tutib turolmadi, hamma narsadan xabari bordek soʻzga kirdi:

- Bir daqiqa! Bu juda ham muhim mavzu: ishq. Uxlashingga toʻsqinlik qilgan oʻsha buyuk sir. Oʻzingni tanishing uchun jamiyki eshiklarini oxirigacha ochadigan oʻsha buyuk moʻjiza. Ammo koʻrib turibmanki, sen ham boshqalar kabi buni toʻgʻri tushunib yetmagansan.

Kendin tushunmadi.

- Qanaqasiga? - dedi hayron bo'lib. Jin esa yana xayolga kelmaydigan narsalarni gapira ketdi:

- Ishq insonning o'zini tanishi uchun favqulodda imkoniyat, chegaralarini kashf etadigan ondir... Aqlini eng yaxshi ishlatgan vaqt nimalarga qodir ekanini ko'rgan lahzada o'z-o'zidan hayratlanadigan davr... Sevib qolganingda uyqusizlik senga aslo zarar bermasdi. Yemay, ichmay, faqatgina uni o'ylarding. Uning uchun qila oladiganlaring chek-chegara bilmasdi. Qolgan barchani hayotingdan o'chirishga tayyor eding. Bir yil davomida ochlik va suvsizlikka ko'z yumgancha maktab pullaringni yig'ib, unga hadiya olganing ham ayni o'sha paytga to'g'ri keladi.

Bular, chindan ham, rost edi. Kendin og'ir xo'rsindi... Jin so'zida davom etdi, muhim narsa aytmoqchi ekani aniq edi, bosh barmog'ini niqtab turib, so'radi:

- O'ylab ko'rgin-a! O'zing oshiq bo'lgan o'sha qiz uchun bularni va hatto bundan-da ortig'ini qilgan sen, o'z maqsadingga oshiq bo'lsang, nimalar qilarding, ajabo?

U shunday ajoyib tushuntirar ediki, Kendin o'z-o'ziga oshiq bo'lgandi. O'sha on miyasida Teslaning uchquni kabi minglab uchqunlar porladi.

- Ajoyibsan-da!, - dedi Jinga momaqaldiroq kabi gurullagan ovozda... Jin biroz ko'zlarini qisib:

- Endi yana bir bor o'yla o'sha qizni!, - dedi.

Kendin bu safar biroz avvalgidek keskin munosabat bildirmadi. Bil'aks, Jinning e'tiborini chalg'itmaslik uchun qimirlamadi hatto.



- Avvallari unga yetib bo‘lmasdek tuyulardi. Ammo unga erishishding-u, sovuding, qo‘yding. Bir paytlar aslo tugamasligiga amin bo‘lgan muhabbating bitdi. Agar o‘sha qizga yetolmasayding, aslo tugamas, aksincha, yanada ziyoda bo‘lardimuhabbating.

- To‘g‘ri, - gapga aralashdi Kendin. Ammo darhol jim bo‘ldi. Jin Sulaymonning xazinalari xaritasi qo‘lida turgan olim singari:

- Mana senga formula: "Oldingga erishib bo‘lmas bir maqsad qo‘y va uni sev". Na uyqung, na bir muammoying qoladi. Maqsadingga doim yaqinlash, ammo aslo unga erishma. Idealingga har yaqinlashganingda buyuk muvaffaqiyatlarga erishishingga ishonchim komil. "Fizan<sup>5</sup>ga borishga uringan, qo‘shni qishloqqa borishga erinmaydi", - dedi, so‘ngra Gipotalamusga o‘girilib, gapirish navbati yana uniki ekaniga ishora qildi.

- Men bunchalik tafsilotlarni bilmayman, ammo mutlaqo aniq narsa shuki, Kendin sevib qolganida bizning ishni osonlashtiradi.

Kulishdilar...

- Hech kimning uyqu me‘yorini o‘zingga to‘g‘rilab olma. Yana takrorlayman: Senga singdirilgani kabi emas hech narsa... Kattalarga 4-6 soat orasidagi uyqu kifoya qilarkan, kimningdir chiqib insonlarni 8 soat uxlashga targ‘ib etishi insoniyat tarixida to‘qib chiqarilgan eng katta ikkinchi yolg‘ondir...

- Ikkinchi? Unda birinchisi qaysi?, - qiziqsinib so‘radi Kendin.

---

<sup>5</sup> "Fizanga borishga uringan, qo‘shni qishloqqa borishga erinmaydi" - turk maqoli, Fizan - Liviyada joylashgan hudud.

- Mavzuga daxli yo‘q! O‘tgan safarlar ishim vaqtli bitgandi. Aylanib yurib, sening "Rasm chizish qobiliyati"ngga duch kelib qoldim. Rosa semirgandek ko‘rindi. "Nima bo‘ldi senga?" deb so‘rasam, "Kendin meni inkor etyapti, qattiq qayg‘udaman. Ishonsang, hatto shubhaga tusha boshladim. O‘zi men chindanam bormanmi yoki yo‘q, deya..." deb qoldi. Unutma, Kendin, inkor etgan barcha narsang aslida mavjud, - dedi Gipotalamus.

Kendin avzoyidan muhim bir narsani endi yozaman deganda, ruchkasi yozmay qolgan odamga o‘xshardi. Inkor etganlari qanaqasiga bor bo‘lishi mumkin? Gipotalamus mavzuga oydinlik kiritdi:

- Ya‘ni, nimanidir inkor etish uchun avvalo, o‘zi u bor bo‘lishi kerak. Masalan, rasm chizish yo musiqaga qobiliyatni olaylik. Bular hammada bor, ammo faqat o‘ziga ishonganlarga ushbu qobiliyatlarni namoyon eta oladilar. Qolganlar esa "Menda bunga qobiliyat yo‘q!" deya o‘ylab chiqarilgan yolg‘onlarga ishonib, o‘zlari sohib bo‘lgan iste‘dodni inkor etadilar. Natijada, baribir haq bo‘lib chiqishadi, chunki iste‘dodlari ulardan yuz o‘g‘irgan bo‘ladi.

Kendin hayratdan yoqa ushlagan ko‘yi jimgina uni tinglardi. Gipotalamus uyqu haqidagi nutqida davom etdi:

- Bas, unut u yolg‘on-yashiqlarni. Aytganimdek, 4-6 soatlik vaqt oralig‘ida o‘zingga yaxshigina biron joy hozirla. Uyqu tartibingni to‘g‘irla. Yo bo‘lmasam, yana o‘z bilganingdan qolma. Har ikki holatda ham biz kerakli ishni bajaramiz. Faqatgina keraklisini.

Endi hammasi Kendinning o‘z qo‘lida edi. U yo bu mo‘jizakor xazinadan foydalanib, kamroq uxlaydi va qo‘lga kiritgan qo‘shimcha vaqtda o‘z sohasida inqilob yaratadi yo bo‘lmasam, bu gaplarni jiddiy qabul qilmay eski hayotida davom etaveradi va bir kun kelib oddiy shifokor kabi o‘lim topadi.

- Ortiq uyqu haqida bilishing kerak bo‘lgan hammasini bilasan. Bir-birimizni taniymiz, faqat bir narsani aytib qo‘yishim lozim: agar o‘z kuchingni anglab yetib, meni boshqarishni xohlamas ekansan, meni bir qutiga qamam, senga taqdim qilsalar ham buning hech bir foydasi bo‘lmaydi, - degach, Gipotalamus Jin va Kendinni chiqish yerigacha kuzatib qo‘ydi... Miya deya atalmish buyuk mo‘jiza ikki birodarni shiddatli aksirish ila so‘nggi bor tashqariga otdi.

Kendin yotog‘ida uxlab yotardi. Aksirganida ko‘rpasi ustidan tushib ketdi. Kendin chidab turolmadi, ko‘rpani boshi tashqarida qoladigan darajada ustiga yopib qo‘ydi. Kendinning yuzida o‘rganganlarini shu zahotiyuq hayotga tatbiq qila boshlaganini ko‘rsatishga uringan bolaning tabassumi jilvalandi.

## 17-bob

### KO'HI QOFNING ORTIDA

Kendin va Jin muhtasham bir saroyning oldida paydo bo'ldilar. U shundayin saroy ediki, qolgan barcha saroylar uning oldida chaqmoqning oldidagi yonar qurtga o'xshab qolardi.

- Bu yer qayer?, - so'radi Kendin.

- Bu yer saroy..., - dedi Jin.

- Qanday saroy? Iltimos, ochiqroq gapir, - dedi Kendin, ammo ovozi keskinlik yo'q edi. Buni azbaroyi qiziqqanidan so'rayotgani bilinib turardi. Jin kulimsiradi. Kendin shu darajada qarshisidagi manzaraning asiri bo'lib qolgan ediki, hatto so'ragan savolini ham unutib qo'ydi.

Saroy eshigidan kirar-kirmas misoli cheksizlikka qadar uzangan zinalarga duch keldilar. Bu saroy qizil tuproqdan qurilgan edi. Qayerga qarasang, o'sha yer sen ko'rishni istagan narsaga aylanardi.

- Bilasanmi, men doim shu yerda bo'lishni orzu qilgandim, - dedi Kendin.

- Bu saroyda, modomiki, sen ishonar ekansan, xohlagan barcha narsang haqiqatga aylanadi. Bu yerga mensiz ham kelolarding, ammo eplolmading. Bo'lmadi. Mensiz seni bu yerga olib keladigan yo'lni topolmading, - dedi Jin.

Kendin o'zini o'zi zaharlagan chayondek iztirob chekardi. Chunki, o'ylagan va xayol qilgan har narsasi haqiqatga aylanadigan, ta'rifiga so'zlar ojiz qolgan bu saroy uning qarshisida turardi. Shuncha vaqtdan beri bunday kuchli borliqning mavjud ekanligini bilsaydi, barcha xayollarini Jinsiz

ham ro'yobga chiqargan bo'lardi. Ammo nega o'zi buning uddasidan chiqa olmadi? O'tmishini so'roqladi!

O'zini o'zi hisob qilarkan, qalbidagi kelajakka bo'lgan ishonch qayg'u ila qo'shilib, ulkan ko'z yosh tomchisiga aylandi. Ko'z yoshi qizil tuproqqa tomdi. Tuproqda uchida kichik marvarid donasi bo'lgan qirmizi rangli nihol unib chiqa boshladi. Bu bor-yo'g'i marvarid donasi edi. So'niq, nozik, yolg'iz va bechora marvarid donasi... Uning bu zavolli tanasi Kendinning xayolidagi qorong'u kelajakka o'xshardi.

Kendin va Jin birgalikda zamonaviy texnologiyalardan bexabar mazkur saroyning cheksizlikka qadar uzangan zinalari bo'ylab sekingina yuqoriga ko'tarila boshladilar. Zinalar shamlar bilan yoritilgandi. Birinchi qavatdan o'tishgach, Kendin to'xtadi.

- Bu saroyning qo'riqchisi yo'qmi?

Savolini tugatmasidan ko'zi ikki jilmayib kelayotgan arslonga tushdi. Ularning kulib turgan yuzi ortidagi sirli tahdid haqiqatda ko'rishga arzirdi. Arslonlarning ustida Ko'hi Qofning ortidan keltirilgani gumon qilinadigan bittadan burgut bor edi. Diqqat bilan qaralsa, burgutlarning panjalari arslonlar yoliga yopishganini ko'rish mumkin edi. Manzara shu qadar muazzam ediki, bu arslonlar burgutlar tomonidan Qof tog'ining orqasidan ko'tarib olib kelinganiga hech qanday shubha yo'q edi.

Saroyda barcha tuyg'ularni qorishtirib yuboradigan g'alati narsalar sodir bo'layotgan edi. Kendin bu noma'lumlik ichida yo'qolgandek edi, ammo qo'rqmadi. Balki so'radi:

- Bu yerda insonlar nima yeb, nima ichadilar?

Ochiqqan edi. Jin mehmondo'stlik bilan javob qaytardi:

- Kim nimani xohlasa, o'shani yeydi!

- Qanday qilib?, - so'radi Kendin.

Jin hech narsa demasdan chap tomondagi eshikka burildi. Kendin ham unga ergashdi. Bir xonaga kirdilar. Xona bo'm-bo'sh edi.

- Demak, qorning ochdi?, - dedi Jin. Qarashidan xuddi ayni sirkka avval 15 marta kelib, tomoshaning har bir qismini yoddan bilgan kishining yonidagi voqealar rivojini qiziqish bilan tomosha qilib o'tirgan odamga "Sen hali bunaqasini ko'rmagansan, hozir salto otishadi, hayratdan tilingni yutib yuborasan!" deyayotganiga o'xshardi.

- Ha, - dedi Kendin. Gapini tugatishga ulgurmasdanoq xonaning to'rida fil tishidan tayyorlangan hashamatli stol paydo bo'ldi, uning ustida esa ochilishga hozir turgan sadaf qopqoqli patnis bo'lgan.

Stolning ikki tomonida ustiga o'tirish mumkin bo'lgan qush patlari bor edi. Kendin Gipotalamus bilan ko'rishgani borganida, miyasidagi arxivni ilk marotaba ko'rganidagi hayajon bilan, ilk ko'zi tushgan tomondagi qush patiga o'zini tashladi. Holati Yusufni ko'rgan Zulayhodan farq qilmas, ko'zini uzolmay faqatgina xonani tomosha qilardi. Oq rang bu qadar go'zallik kasb etgan boshqa joy bo'lmasa kerak. Kendinning sarosimali nigohlari oppoq vodiya, qo'lida oppoq qilich bilan, oppoq otning ustidagi oq otliqning izidan yurgan, oppoq qoshli yo'l boshchiga o'xshardi. Jinning toshbaqa tusiga o'xshash kiyimi ham oqarib ketganini ko'rib, o'zining ust-boshiga qaradi. U oppoq xitoy ipagiga o'ralgan go'dak kabi edi...

Uning hayrati poyoniga yetgach, stol ustidagi patnisga ishora qilib:

- Bunda nima bor?, - deya so‘radi Jindan.

- Nima istasang o'sha..., - dedi Jin.

Kendin avvaliga ishonqiramay biroz turib qoldi, so‘ng qiziquvchan nigohlarini patnisga qadab:

- Yaxshi, unda qovurilgan kiyik go'shti xohlayman, - dedi va sadaf qopqoqni ochdi. Patnisda qovurilgan kiyik go'shti turardi. Kendin hayratdan lol qoldi. Jin yana o'sha jumlanini qaytardi:

- Sen faqatgina xayol qil. Bu yerda nima istasang, o‘sha amalga oshadi.

- Suv..., - xayolidan o‘tkazdi Kendin. Shu payt eshikda borliqdagi neki asl narsa bo‘lsa, barini to‘plab kelgan kabi taassurot uyg‘otadigan bir lochin paydo bo‘ldi. Tumshug‘idagi yuz yillik favvorani Kendin tomonga qo‘yib, eshikdan zo‘rg‘a sig‘gan qanotlari ila yana tashqariga yo‘naldi. Suv oqib turar, ammo ne ajabki, yer ho‘l bo‘lmasdi. Kendin qonib-qonib suvdan ichdi.

- Non..., - dedi. Biroz avval istagan suvi eshikdan kelgani uchun boshini yana u tomonga o‘girdi. Kutganidek, eshik ochildi. Bu safar ichkariga avvallari sira ko‘rmagan, ko‘rgani on "Hur" deya atalmish "Jannat qizi" ekaniga hech bir taraddudsiz ishonadigan bir qiz kirib keldi. U nuqsansiz qo‘llari ila stol ustiga bo‘laklangan issiqqina nonni qo‘yib, hech narsa demasdan xonani tark etdi. Kendinning aqli shu on "Ketma, to‘xta!" deyishdanda ojiz edi.

Ko‘rganlarini boshqa joyda aytib bersa, "Jinni" deya malomat etishlari turgan gap. Kendin o‘ylanib qoldi... Kim biladi, insonlar boshdan kechirayotgan, ammo boshqalarga aytolmaydigan yana qanchadan qancha mo‘jizalar sodir bo‘ladi bu Yer deya atalmish g‘arib olamda?

Kendin endilikda nimadir deyishga ham qo‘rqib qoldi. Og‘zidan chiqqan har narsa ta’rifiga so‘z ojiz shaklda haqiqatga aylanardi. Nima desa, o‘sha bo‘lardi! U qo‘rquv, hayajon va yana boshqa jamiyki hayrat tuyg‘ularini jamlab:

- Mehmonxona qayerda?, - deb so‘radi.

- Shu yerda!, - javob berdi Jin.

Biroz avvalgi ovqatlanish xonasi Musoning beshigiga qo‘shilib Nilda oqib ketgan-u, o‘rniga osmondan mehmonxona tushurib qo‘yilgandi go‘yo... Biroz avval ovqatlangan xonalari endi mehmonxonaga aylangan edi.

Kendin hayratini yashira olmasdi. Yashirishi ham shart emasdi zotan.

- Bu yerga nega keldik?, - so‘radi Kendin.

- Umringni uyquda o‘tkazishga qaror qilganing uchun shu yerdamiz, - javob qaytardi Jin.

- Qani, bo‘l, xohlasang-chi! Nima qilishni istaysan?

Kendin Jinning gapini tugatib qo‘yishga majbur bo‘ldi. Agar bu yerga kelishlaridan maqsad uyqu bo‘lsa, boshqa narsa xohlamasligi kerak.

- Uyqumni o‘zim boshqarishni istayman. Oddiy insonlar kabi 8 soat uxlashni xohlamayman.



- Yaxshi, u holda zalga chiqamiz, - dedi Jin.

Kendin endigina "Zalgami?" demoqchi bo'lgandi, xona ayni Kendinning xayolidagi zalga aylandi-qoldi. Ortiq bundan taajjublanmay qo'ydi... Zalda kattagina stol bor edi. Ko'p o'tmay uning ustida yana bir patnis paydo bo'ldi.

- Bu nima?, - dedi Kendin. U shunday bir saroyda bo'lsa-da, har holda bu uning xayolidan o'tgan narsa bo'lishi mumkin emasdi.

- Bu o'sha!, - javob berdi Jin. Qopqoqni ochdilar. Qopqoq ostida Kendin va Jin bilan birgalikda miya ichida majlislar o'tkazgan Gipotalamusning g'irt o'zi edi.

- Yo'g'e, bu u bo'lishi mumkin emas!, - dedi Kendin.

- Ha, bu o'sha - sening Gipotalamusing. Miyangdan tashqarida bo'lgani uchun jonli emas. Ichkarida ekanida, butun nazorat uning qo'l ostida edi. Shu on esa bu yerda va sening ixtiyoringda. Sen uni qay tomon boshlasang, o'sha yoqqa ketadi. Uni ez, qiyna, o'yna u bilan. Bularni u his etayotganini xayol qilgan holda ez. Agar ishonsang, bari sen xohlaganingdek bo'ladi, - dedi Jin.

Kendin Gipotalamusga ma'nosiz nigohlarini tikib turardi. Jin davom etdi:

- Mana u. Sen yillar davomida boshqarishning uddasidan chiqmagan, garchi, unga sira yetolmagan bo'lsang-da, miyangda oziqlantirib, tarbiya qilgan, buning evaziga sendan minnatdor bo'lish o'rniga qarshi chiqqan o'sha narsa...

Kendin ta'sirlanib ketdi. Bu uning Jinni taniganidan beri qo'lga kiritishni eng ko'p xohlagan narsasi edi.

- Birozdan so‘ng unga erishasan va hammasi tugaydi. Butun nazoratni o‘z qo‘lingga olib, dunyoni o‘zgartirasan, inqiloblar yaratasan...

Kendin patnida "Kel, meni ushlab ol!" degandek turgan Gipotalamus tomonga endigina qo‘lini uzatgan ham ediki, u birdan sapchib ketdi. Kendin:

- Nimalar bo‘lyapti?, - dedi nima bo‘layotganiga tushunmay.

- Yetarlicha ishonmaganing uchun senga borishni xohlamayapti..., - dedi Jin odatdagidek ilmoqli qilib.

- Yo‘q, bu yolg‘on! Men qat’iy ishonaman, buni barcha narsadan ham ko‘proq xohlayman, - deya Jinni ishontirishga harakat qildi Kendin.

Ammo Jin uning ishonmayapganiga amin edi.

- Yo‘q, ishonmayapsan... Ishonsang, qochmasdi...

- Yaxshi, buni qanday isbotlayman endi?..., - nochor ahvolda so‘radi Kendin. Chunki, Jindan farqli o‘laroq u rostdanam ishonayotgandi.

- Isbotlashga urinma, Kendin, faqat ishonsang bo‘ldi..., - dedi Jin.

Kendin xuddi bir begunohni oqlash uchun bahona izlayotgan guvohdek o‘ylanib qoldi:

- Qasam ichamanki, ishonaman. Ibrohimning Robbisiga ishongani kabi ishonaman, - deya hayqirdi, Jin:

- Sening ishonib-ishonmaganingni men bilolmayman, - deya unga qarshilik ko‘rsatdi.

- Qanaqasiga bilolmaysan? Sen Jin emasman?

Jin butun sayohatlarining xulosasini o‘zida mujassam etgan gapni aytdi:

- To‘g‘ri, men Jinman. Ammo mening ham imkoniyatlarim chegarasi bor. Sendan ko‘ra ba‘zi narsalarda ustun ekanim meni hamma narsani bilishimni anglatmaydi. Na men va na boshqasi sening xayolingdan o‘tgan narsalarni bilishga qodir emasmiz. Hech kim seni o‘zingdan qo‘riqlay olmaydi.

Kendinning so‘nggi gapni tushunmagani kundek ravshan edi.

- Qara, Kendin, men seni turli xavf-xatarlardan himoya qila olaman. Otang ham, onang ham seni himoya qila oladi... Dushmanlaring tomonidan senga biron zarar yetishidan seni saqlay olamiz. Boshingga tosh tushishidan ham seni qutqara olamiz. Do‘stlaring, raqiblaringning senga ziyon keltirishlariga ham to‘sqinlik qilishimiz mumkin. Ammo seni bir narsadan hech qachon himoya qila olmaymiz...

Kendinning butun diqqati Jinda edi. Gap qayerga borishini ham allaqachon tushunib yetgandi.

- Na men, na boshqa biron kimsa seni o‘zingdan aslo himoya qila olmaydi. Chunki, miyang ichida nimalar bo‘layotganini o‘zingdan boshqa kimsa bilmaydi. Sen uchun eng katta zararni o‘zingdan boshqa hech kim yetkaza olmaydi, xuddi hozirgidek... Aniq bilmayman-u, ammo miyangda ba‘zi ahmoqona savollar paydo bo‘lganini taxmin qilyapman. Ular bor ekan, unga aslo tegina olmaysan! Teginsang ham, baribir bundan hech bir ish chiqmaydi. Olmos neligini bilmagan go‘dak uchun uning boshqa toshlardan sira farqi yo‘q, shu xolos...

Bu bir burilish nuqtasi edi. Haqiqatan ham insonga eng katta zararni faqat uning o'zigina yetkazishi mumkin. Kendinning hayoti davomidagi jamiyki xatolari xuddi film tasmasi singari zal devorida aks etdi. Filmni tomosha qildi. Hamma joyda aybdor uning o'zi edi. Otasidan qolgan kasalxonani rivojlantirishning uddasidan chiqolmay, uni uchinchi darajali kasalxonaga aylantirib qo'ygan uning o'zi edi. Ilk turmushining buzilishiga bosh sababchi ham uning o'zi edi. Beparvo xatti-harakatlar, mas'uliyatsizliklar... Maktabda o'rganganlaridan boshqa hech vaqoni bilmaydigan, o'zining rivojlanishiga eng ulkan to'siqni qo'ygan ham uning o'zi edi. Har bir kadrda ko'rgan yagona aybdor faqatgina Kendinning o'zi edi...

Shu payt Jin Kendinga qarab:

- Sehrli uy haqida eshitganmisan?, - deb qoldi.

- Yo'q.

- Unda eshit: Bir paytlar bir sehrli uy bo'lgan ekan. Unga hech kimsa kirolmas, kirganlar yuqori qavatga ko'tarilmay turiboq, qo'rqqanlaridan yurak xurujini boshidan kechirar, pastki qavatda yo vafot etar, yo hushdan ketib yiqilardi. Uyga kiraverishda hech qanday muammo yo'q, ammo zinalardan ko'tarila boshlagach, shu vaqtga qadar hech kim ko'rmagan bir narsaning ulkan qanotlari sharpasi devorda aks etardi. "Burgut" desang, burgut emas, "qoplon" desang, unga ham o'xshamasdi... "Uchar timsoh" kabi maxluq edi. Undagi sukunat esa yanada dahshatli edi. U shunday g'alati narsa ediki, soyasining o'ziyoq insonlarni aqldan ozdirardi. Bu dahshat kunlab davom etdi. Oxiri shaharning mashhur kishilari o'sha zamonning eng kuchli pahlavoniga xabar yo'lladilar. U

yetib keldi. Qilichini taqib, sehrli uyning sehrini parchalab tashlash uchun unga kirib ketdi...

- Maxluqni yo‘q qildimi?, - gapga qo‘shildi Kendin.

Jin "yo‘q" ma’nosida bosh irg‘ab qo‘ygach, to‘xtagan joyidan davom etdi:

- Biroz o‘tib, qichqirgancha tashqariga otilib chiqdi. Ovozi boricha "Qutqaring!" deya baqirardi. So‘ngra yerga qulab tushdi. Shu payt odamlar orasidan kichkinagina bir bola ajralib chiqib, uyga kirib ketdi. Hamma qo‘rquv ichida qoldi.

Pahlavon "Qutqaring!... Maxluq bolani parchalab tashlaydi!" deya baqirar, ammo bolakay allaqachon uyning ichkarisiga kirib bo‘lgandi. Sekingina ortidan kirdilar. Bola pastki qavatda emasdi. Uy suv quygandek jimjit, yaqin atrofda maxluqning qanotlari sharpasi ham ko‘rinmasdi. Sukunat insonlar yuragiga vahima solar, qo‘rqa-pisa zinalardan ildamlab borishardi. Yog‘och zinalarning g‘ichirlashi esa qo‘rquvlariga battar qo‘rquv qo‘shardi. Sekin-asta ko‘tarildilar...

Kendinning qiziqishi ustun keldi, ortiq chidab turolmadi:

- Bola o‘libdimi?

- Yo‘q. Yuqoriga chiqsalar, bola kursida xotirjam o‘tiribdi. "Nima qilyapsan?" dedilar. "Maxluqni o‘ldirdim!" javob berdi bolakay, qo‘lidagi kichkinagina dog‘ga ishora qilib. Keyin anglab yetdilar, zulmat ichidagi uyning yoniq qolgan chirog‘i atrofida bir chivin aylanar, devorda ko‘ringan ham uning qanotlari ekan.

-...

Saroyda ayni o'sha sehrli uydagi sukunat hukm surardi.

Birinchi bo'lib uni Jin buzdi:

- Mana shunaqa! Sen va senga o'xshaganlar chiroqning oldidagi oddiygina chivinni maxluqqa aylantirib qo'ydingiz. Uning nomi: "Uyqu".

Kendin devordagi hayot lavhalarini tomosha qilib turib Jinni eshitayotgandi. Ular ham aynan Jinning so'zlarini tasdiqlar, aslida biz muammo deb bilgan narsalar boshqa-boshqa chiroqlarga yopishgan chivinlardan farq qilmasdi. Bu chivinlarni kattalashtirib, "uchar timsoh"ga aylantirgan narsa esa insonlarning ular haqidagi noto'g'ri tasavvurlari edi, xolos. Jin mavzuni yana uyquga bog'ladi.

- Sening umringni bir uchidan tutib, makkorlarcha yeb bitirayotgan "uyqu" degan o'sha chivin, shu patnisdagi narsani qo'lingga olib, uni boshqarishing bilan nazorating ostiga kiruvchi ojiz bir maxluqdir.

Kendin tushundi shekilli, boshini egib, pichirladi:

- Haqsan!

Jin asabiylashdi:

- "Haqsan" deysan-u, ammo hamon shubhalar ichidasan. Miyang ishlamaydimi sening? Dunyodagi quloqlari eng sezgir hayvon qaysi, bilasanmi?

- ...

- Mushuk! Hamma narsani bir burchakka uloqtirib, faqat mushukni kuzatsang, nima demoqchi ekanimni anglaysan! Uy mushuklari bir kunda o'rtacha 12 soat uxlaydilar. Uxlaganda ham qotib, pishillab uxlaydilar. Ammo yovvoyi mushuklar,

o‘rmon yo ko‘chada yashaydigan mushuklar deyarli uxlamaydi, faqat mudrab oladilar, xolos. Ozgina shitirlashdan ham uyg‘onib ketadilar. Bir kunda 4 soat ham uxlamaydilar... Xo‘sh, uy mushugi bilan ko‘cha mushugining nima farqi bor, hech o‘ylab ko‘rganmisan?

Tabiiyki, Kendin bu haqida hech qachon o‘ylab ko‘rmagandi.

- Bu haqida sira o‘ylab ko‘rmaganman, ammo taxminimcha, uy mushuklari himoya ostida bo‘ladilar, shunga bo‘lsa kerak...

- Aynan shunday. Biri doimiy ravishda qo‘riqlanadi va qulay muhitda yashaydi. Boshqasi esa doimo tashqi xavf ostida. Shu sababdan uyqulari ham turlicha shakllanadi.

Bu haqiqat edi. Biri oz, boshqasi esa ko‘p uxlardi. Ammo ikkisi ham ayni shaklda yaratilgan. Jin bu mavzuga haqiqatan kirishib ketgan edi:

- Uy mushugini ko‘chaga tashlab kelsang, ikki oy o‘tmay yana qaytib keladi. Sen uning uyni qanday topib kelganiga hayratlanib, asl mohiyatni ko‘zdan qochirasan. Uning ilk kechasi uyqu bilan bog‘liq barcha odatlarini yer bilan yakson qiladigan darajada qiziqarli va ibratga to‘la. Masalan, 12 soat uxlay olmaydi, chunki, qaytganida ikki oy davomida tabiat qo‘ynida yolg‘iz, himoyasiz yashashga o‘rganib qolgan bo‘ladi. Qulog‘iga chalingan har qanday shitirlashni ham xavf-xatar deb gumon qiladi. Bu mushuk o‘zi o‘rganib qolgan qulay muhitni tark qilgan, qariyb 2 oy davomida uxlamagan, xatarlarga qarshi kurashgan, faqatgina o‘lmaslik uchun yashagan... Xo‘sh, qanaqasiga umrini 12 soatlik uyqu bilan o‘tkazgan mushuk 2 oy davomida faqat mudrash bilan hayot

kechirgan bo'lsa-da, o'lmasdan, soppa-sog' ortga qaytib kelishi mumkin?

Uydan chiqarib yuborilgan mushuk yillab ko'chada yashasa ham uyga qaytib kelganida, ozgina vaqt o'tar-o'tmas yana 12 soat uxlashni o'ziga odat qilib oladi. Bunda Kendin uchun jiddiy ishora bor edi. Demak, qulay muhitda yashash kunlik uyqu miqdoriga ta'sir o'tkazadigan asosiy faktor ekan.

- Arslonlar ham kunda 20 soat uxlaydi. Nega? Chunki, hech qaysi hayvon arslonga yaqinlashishga jur'at qilolmaydi. U esa bamaylixotir uxlayveradi. Ayiq, timsoh ham shunday...

Kendin Jinning so'zlaridan o'zi uchun kerakli xulosalarni chiqarib olardi. Insonlar ham shunday, aslida. O'ziga katta miqdorda meros qolgan, kelajak tashvishi bo'lmagan, yo'qotadigan narsasi yo'q insonlar... qayerdan ham oz uxlasinlar?

O'ylanib qoldi... Demak, inson boshida biror tashvishi bo'lsa, bunchalik ko'p uxlamaydi. Ertaga amalga oshirishi kerak bo'lgan to'lovlarini o'ylagan odam, puli bo'lmagan holda xotirjam uxlay olarmidi? Agar uxlasa, bir muammosi bor. Yo biznes kariyerasi uning uchun ahamiyatsiz, yo bo'lmasam, hisob-kitobni bilmaydi. Kendin Jinning so'zlariga xulosa yasadi:

- Tushundim. Demak, inson bir ishda xavf-xatarga duch kelsa, bu uning ustiga muayyan mas'uliyatlarni yuklaydi, bu esa uyquga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Jin Kendinning o'zini betashvish inson kabi ko'rayotganidan achchiqlanib:



- Xo'sh, ayt-chi, nima sening tashvishing yo'qmi?, - dedi.  
Uning nima demoqchi ekanini Kendin juda yaxshi angladi.

- Nega endi, bor, albatta. Aslida, mening hayotim tavakkalga to'la. Vaqt o'tib boryapti, mening esa mas'uliyatlarim bor. Dunyoga berishim lozim bo'lgan narsalar bor. Men shifokorman... Bularning bari va yana boshqalar mening tashvishlarim.

Jin Kendin uni tushunganiga ishona boshladi. Jilmaygancha:

- Ha, barakalla, ana endi ishona boshlading!, - dedi.

Kendin mamnun bo'ldi, Jin ham. Ammo bir payt Jin mavzuga mutlaqo aloqasi bo'lmagan bir narsa aytib qoldi:

- Uchar akula!

- Uchar akula?!

- Ha, uchar akula! Bir kuni kechqurun uyingning tepasidan uchib o'tayotgan akulani ko'rib qolsang, seningcha, o'sha tunni qanday o'tkazarding?

Kendin jim bo'lib qoldi. Bunday narsa sira xayoliga kelmagan edi.

- Bir necha kun uxlay olmasding, shunday emasmi?

Javob aniq edi:

- Hmm, shunday.

- Ajoyib! Keyin esa galma-galdan poyloqchilik qilib uxlashni yechim sifatida ko'rar va poyloqchilik qiladigan odamga qarab uxlarding kechalari... Agar poyloqchi es-hushi joyida bo'lgan biri bo'lsa, xotirjam uxlar, aksincha bo'lsa, sergak holatda tong ottirarding, ko'cha mushugi singari...

Kendin gapga qo'shilmas, faqatgina Jinning gaplarini tasdiqlab, boshini qimirlatib qo'yardi.

- Siz qorovullik qilib uxlayotgan bir mahalda boshqa odamlar uchar akulaga qarshi ko'riladigan choralar ustida ish olib boradi. Ya'ni, ular sen uxlayotgan vaqt tinim bilmay ishlashadi. So'ngra, ular "Uchar akulani qaytaruvchi" qandaydir ixtironi amalga oshirib, tarixda o'z nomlarini qoldirishadi... Sen esa ulardan birini sotib olib, uyingning tomiga o'rnatasan va "Qanday aqlli odamlar bor-a, shularni yaratib, qanday yaxshi qildilar!" deb, xotirjam uxlashda davom etaverasan. Ammo ishonaver, o'sha odamlar baribir yana uxlashmaydi. "Akula uchibdimi, demak, bir kun arslon ham uchishi mumkin" deyishadi. Keyinroq esa yana biroz bo'rttirib, "Bir kun metal parchasi ham uchishi mumkin!" deya eng zamonaviy raketalarni ixtiro etishadi va sen uchun dahshatli tushga aylanishadi.

Kendin kulimsirab turardi. Ahmoqona tasavvur edi bu.

- Bilasanmi, do'stim? Shu vaqtga qadar hech qanday akula uchmadi, ammo sen uxlayotgan bir vaqtda kimlardir "raketa" deya ataluvchi minglab uchar akulalarni ixtiro etdi va sening qo'rqinchli tushing bo'lishni uddasidan chiqdi. Faqat orzu qilasan va barcha uxlarkan, sen ishlaysan, bor-yo'g'i shu...

Kendin Jinni eshitar, yetarlicha ishlamaganiga afsus-nadomat chekardi.

- Ya'ni, ba'zi narsalar haqiqatan ham sodir bo'lishi, yo bo'lmasam, aynan sening boshingga tushishi shart emas... Endi esa sog'lom fikr yurit! Dunyoda ochlikdan azob chekayotgan yuz millionlab insonlarni o'yla... Urush tahdidi ostida

yashayotgan, turli hastaliklarga muhtalo bo'lgan, chora kutayotgan insonlarni o'yla... Endi esa bu dardlar, muammolar turgan bir paytda xuddi hech narsa bo'lmagandek o'zingni yotoqqa tashlagan chog'ingni esla... Sening harakat qilishing uchun oilangdan kimdir o'tda yonishi kerakmi?, - dedi Jin.

Kendin Jinning barcha fikrlariga qo'shildi. Sarosimaga tushdi, sababi, Jin to'g'ridan-to'g'ri unga g'aflatidan xabar bermoqda edi. Nima deyishini ham bilmay, sekingina:

- Aql bovar qilmaydi!, - deya oldi, xolos.

Jin bu gaplari ila qulaylik muhiti insonlarni qanchalik tanballashtirgani, ularni harakat qilishlariga to'sqinlik qilgan yagona qotil ekanini anglatishga urinardi. Qo'shni qishloq yonarkan, "Menga nima" demasdan, harakat qilish zarurligini tushuntirdi... So'ngra, Kendinga shunday qaradiki, nigohidan "Qani, uyg'on endi, dunyoning senga ehtiyoji bor!" degan ma'noni uqish mumkin edi...

- Sen yaxshi insonsan, Kendin. Oz uxlashing, ko'proq ishlashing zarur. Mas'uliyatni o'z zimmangga olishing kerak. Sen mukammalsan. Nega buni rad qilasan? Nega o'z qobiliyatlarini anglab yetib, buni yomon yo'lda qo'llayotgan, uchar akulalar yaratayotgan vahshiylarga bo'shatib beryapsan maydonlarni? Nega axir?, - dedi Jin, Kendin kabi ovozini pasaytirib.

Kendin va nihoyat, gapirishga chog'landi:

- Senga so'z beraman. Olayotgan nafasim haqqini ado etaman! Mutlaqa shunday qilaman! O'z sohamda inqiloblar yarataman. So'z beraman senga, Jin!

Kendin bu so'zlarni chin qalbidan aytayotgani aniq edi, sababi, bu so'zlar lablaridan to'kilarkan, qalbidagi ovoz ham saroy devorlarida aks-sado berib turardi. Shunga qaramay Jin boshqacha munosabat bildirdi:

- Menga so'z berma, Kendin. Faqat o'zinggagina so'z ber. Agar menga so'z bersang, men ketishim bilan bor mas'uliyating ham tugaydi. Agar o'zingga bersang, u davomli bo'ladi. Chunki, qayerga ketsang ham, o'lmay turib o'zingdan aslo qutula olmaysan. Hozir o'zingga shunday so'z ber va o'limga qadar unda mustahkam tur.

So'ngra yana og'ir sukunat boshlandi. Kendin nimanidir o'yladi-yu, birdan patnisdagi haligi narsa joyidan nozik harakat ila ko'tarilib, uning kaftlariga qo'ndi. Kendinning nafasi qisdi. Hayajondan yuragi turgan joyidan otilib chiqqudek bo'ldi. Bu uning uchun ajoyib fursat edi. Uni ajoyib qilgan narsa Gipotalamusni qo'lga kiritish bilan bog'liq emas, aksincha, Kendinning ichidagi kuchga ishonish zavqi edi bu.

Jin butun olimpiadalarda, ustiga-ustak, har bir vazn toifasida jamiyki oltin medallarni qo'lga kiritgan yagona sportchiliki singari shishib chiqqan mushaklariga qaramay buni "mag'rurlik" deya o'ylanmasin deb, quvonchini so'zlar bilan ifodalab o'tirmadi. Indamay Kendinning sevinchiga sherik bo'ldi.

Kendin Gipotalamusni mahkam tutib turardi. Bir necha daqiqa o'tgach, Jin Kendinga undan qanday foydalanish kerakligini tushuntira boshladi:

- Qara, do'stim! Sen bu qo'lingdagi narsaga qanday ma'no bersang, shubhasiz, u o'sha narsadir. Ya'ni, agar sen bunga "plastilin" desang, u plastilindir. "O'chirg'ich" desang, o'chirg'ich, "Gipotalamus" desang, u miyang ichidagi Gipotalamusidir.

Kendin ushlab turgan narsasini na plastilin, na o'chirg'ich deb o'ylardi. Balki, uning Gipotalamus ekaniga butun borlig'i bilan ishonayotgandi. Shu sabab Jinning bu savolidan biroz ranjidi.

- Yetar endi, mening ishonchimdan shubhalanishni bas qilgin-da, menga tushuntir: Men Gipotalamusimni qanday tarbiyalayman?

Jin bu oddiygina savolga Gipotalamusning o'zi bergan javobni aynan takrorladi:

- 4-6 soat orasida o'zing uchun munosib uyqu miqdorini belgilab olasan va har 3 kunda bir 15 daqiqadan tushirib borish orqali unga erishasan!

Kendin shoshib qoldi:

- Nima, bor-yo'g'i shumi?

- Yo'q, uyquni kamaytirish davrida ora-sira Gipotalamus va uning jamoasini shoshirib qo'yish uchun uxlash muddatingni birdan orttirasan. Bu davr mobaynida aslo hech bir bekatda 1 kundan ortiq qolmaysan, - dedi Jin va stolda biroz avval yo'q bo'lgani holda birdan paydo bo'lib qolgan qog'oz va qalamni qo'liga oldi:

- Xo'sh, endi bunday qilamiz: Uyquni necha soatga tushirmoqchisan?

Kendin hayajonlandi:

- 4...

Jin qog'ozning pastki o'ng burchagiga 4 raqamini yozib qo'ydi.

- Yaxshi. Endi bugunga qadar amalda bo'lgan o'rtacha uyqu muddatingni ayt.

- 8-9 soat.

Jin yuqori chap burchakka 8 yozdi.

- Hoziiiiir..., - degancha, qog'ozda Kendin uchun maxsus uyqu jadvalini tayyorlay boshladi.

The table is a hand-drawn sleep schedule with decorative flourishes. At the top center, there is a small figure of a person standing on a platform, possibly representing a train or a person. The table has five main columns: 'ISTASHON' (Station), 'YATIS SAATI' (Sleeping Time), 'UYQU OLGESI' (Sleeping Place), 'KALKIS' (Waking Time), and 'BEKLENE SURESI' (Waiting Time). The rows are numbered 1 to 22, with the last row labeled 'Son istashon' (Last station). The 'UYQU OLGESI' column contains small drawings of faces, some with closed eyes, indicating sleep. The 'BEKLENE SURESI' column contains waiting times in hours and minutes. The table is framed by decorative scrollwork and has a small 'A' at the bottom right.

ISTASHON	YATIS SAATI	UYQU OLGESI	KALKIS	BEKLENE SURESI
1.	00:00	☹	08:00	1 qun
2.	--	☹	07:45	3 qun
3.	--	☹	07:30	--
4.	--	☹	07:15	--
5.	--	☹	07:00	--
6.	--	☹	06:45	--
7.	--	☹	06:30	--
8.	--	☹	06:15	--
9.	--	☹	06:00	--
10.	--	☹	07:00	1 qun
11.	--	☹	06:45	3 qun
12.	--	☹	06:30	--
13.	--	☹	06:15	--
14.	--	☹	06:00	--
15.	--	☹	05:45	--
16.	--	☹	05:30	--
17.	--	☹	05:15	--
18.	--	☹	05:00	--
19.	--	☹	04:45	--
20.	--	☹	04:30	--
21.	--	☹	04:15	--
22.	--	☹	04:00	--
Son istashon	00:00	☹	04:00	10 qun

- Jadvalda ko'rib turganlaringga qat'iy amal qilishing zarur. Bir gapni hadeb qaytarayotgandek ko'rinayotgan bo'lsam-da, biroz avvalgi gapimni yana takrorlayman. Uyqungni har uch kunda bir marta 15 daqiqadan tushirib borish orqali kamaytirasan. Har uch kun bir bekat hisoblanishini yodingda tut. Ishning oxirida barcha yanglish fikrlarni bir chetga surib qo'ygan holda o'zingni o'zing baholaysan va maqsad qilgan 4 soatga qanchalik yaqin kelganingni tekshirib ko'rasan. Agar bu muddat senga kifoya qilmaganiga ishonching komil bo'lsa, uyqungni yana 15 daqiqadan oshirib borasan. To munosib muddatni topmaguningga qadar. Aytgancha, esimga tushib qoldi, bilishing zarur: Ba'zilar bu tekshirish jarayonida o'zlariga o'zlari xiyla qiladilar. Ishonasanmi shunga?

Kendin boshqalarning nima degani yo qilgani bilan qiziqib o'tirishni xohlamasdi.

- Qo'ysang-chi boshqalarni, o'zing tushuntir, Jin.

- Yo'q, bu juda ahamiyatli. O'ylab ko'rgin-a, bir odam buni sinab ko'radi, aslida muvaffaqiyatga erishsa-da, bir necha kun o'tib taassubga mag'lub bo'lgani va dangasaligi sabab voz kechadi. So'raganlarga "Eee men sinab ko'rdim, bo'lmadi!" deb ularning ham xayollarini chuvalashtirib yuboradi.

Kendin ortiqcha vaqt yo'qotayotganini o'yladi. Boshi va yelkasini "Menga nima boshqalardan!" degandek bir ma'noda silkib qo'ydi. Jin esa butun tafsilotlarni anglatishga kirishgandi:

- Bu rejani bajararkan, e'tibor qaratishing lozim bo'lgan nuqta uch kunlik oraliq muddatlardir. Sababi, 3 kun Gipotalamusning 15 daqiqalik uyqu ozayish muddatlariga moslashishi uchun yetarli. Yana "Dam olish kunlari g'aflati", yo bo'lmasam, "Dam olish kunlari sindromi" degan narsaga ham diqqat qaratishingni xohlardim... O'zi nega dam olish kunlari ko'p uxlaysiz? Hech

shunga tushuna olmadim. “Insonlar nega oilalari uchun vaqt ajratishdan qochisharkin?” deya rosa o’yladim. Nima bo’lgan taqdirda ham hafta oxirida maksimum 2 kun dam olganing uchun bu kunlarda bir necha soat ko’proq uxlashing bilan bu jadvalga zarar yetmaydi. Mabodo, eng kamida 3 kun davomida dasturdan tashqari bekatda qolib ketsang, u holda zarar yetishi mumkin.

Kendin Jinning izohlarini diqqat bilan tinglab, xotirasiga naqsh etib borardi. Jin Kendinga bu jadvalga qanday amal qilishni tushuntira turib, uning Gipotalamusini qo’liga oldi va uni siqa boshladi. Jinning bu harakati, o’sha narsaning Gipotalamus ekaniga ishonganlarning ong ostiga “Men Gipotalamusimni siqmoqdaman, u mening eng taraqqiy etgan a’zoyimning bir moduli, xolos. Men o’zim istaganimdek uni boshqara olaman!” kabi ma’lumotlarni yuborayotgani uchun ham ahamiyatli edi.

- Bor-yo’g’i shu, qadrli do’stim. Buni qat’iy ishonch bilan bajaradigan bo’lsang, muvaffaqiyatga erishmasliging uchun hech bir sabab yo’q. Hozir ol shu Gipotalamusni, siq uni! Yana har istaganga berib ham o’tirma, u sening shaxsiy mulking..., - dedi Jin.

Kendin uning aytganini qilib, Gipotalamusni xuddi plastilin kabi ezg’ilab, o’ynay boshladi. Jin go’yo boks jangida hayqirib muxlislik qilayotgan tomoshabinga o’xshardi:

- Qani, ez uni. U sening, faqatgina sening amring ostida. Uni ezg’ilab tashla.

Jin gapirgani sayin Kendin yanada g’azablanar, “Sening sohibing menman ortiq. Tadorigingni ko’r!” deya uni ezg’ilardi...

- O’zingni tayyor his qilgan vaqting shu jadval bilan mashq qilishni boshlab yuborsang bo’ladi.

- Men tayyorman!, - darhol javob qaytardi Kendin. Uning tayyor ekanligiga ortiq shubha yo’q edi.



- Bunchalik shoshma. Sen sabr bilan bu jadvaldagilarni amalga oshirishing zarur. To mashqlar bitguniga qadar Gipotalamusni doim yoningda olib yurishing kerak. Kun davomida fursat topishing bilan uni ezg'ilash orqali o'zingni uni boshqarishingga ishonirishing lozim. Uyga qaytganing zamonlar uyqu vaqti yaqinlashganda bu qog'ozni, yo bo'lmasam, uyqu davomiyligingga ko'ra o'zing tayyorlagan rejani chiqarib olib, xuddi harakatlarni rejasini ko'zdan kechirayotgan qo'mondon singari strategiyani ko'rib chiqasan. Bu raqibingni nazorat ostida tutib turganingga ishonch hosil qilish uchun muhim. O'zingni uyqu vaqti kelguniga qadar g'olib taraf deya hisoblay boshlaysan.

- Yaxshi, har kuni bir xil vaqtda yotishim kerakmi?

- Ha, uyquga imkoni boricha bir vaqtda yotishga harakat qil. Agar yotish vaqtingni o'zgartiradigan bo'lsang, yotish-turish soatlari o'rtasidagi muddatning aniq belgilangan miqdorda bo'lishini doim nazorat qil. Bu vaqt mobaynida uyg'otgichdan foydalan. Gipotalamusni esa har oqshom uyg'otgichning yoniga qo'yib qo'y. Soat chalingan vaqt birinchi bo'lib uni qo'lingga ol, uni bir necha soniya shunday ezg'ilaki, endilikda bu kemaning kapitani sen ekaningga iqror bo'lsin. So'ngra soatni o'chirib, o'rningdan tur! Maqsading haqida o'yla. Qilishing kerak bo'lgan ishlarga bor diqqatingni qarat. Agar bo'lmasa, muzdek dush qabul qil, uyg'ot o'zingni. Unutma: sen so'z berding, bergan so'zingda turishga majbursan!

Kendin o'yga cho'mdi. Bu qadar oson dasturni nega butun insoniyat hayotiga tatbiq etmaydi? Agar bir kun kelib butun dunyo uni amalga oshirsa, insoniyat olami iste'mol miqdori deyarli o'zgarmay turib, har kuni 10-15 milliard soatlik qo'shimcha qiymat qozonishi mumkin. Agar kimdir insonlarni uyushtirib, bu vaqtni to'g'ri tomonga yo'llandira olsa, bor-yo'g'i bir kunlik qo'lga kiritilgan muddat ichida ishlab chiqarilgan

qo'shimcha mahsulotlar Afrikaga yordam sifatida yuborilsa, bir necha kunda ochlik to'liq bartaraf etilishi mumkin. Kendin hayajon bilan:

- Xohlagan hamma shu dasturga amal qilib uyqusini kamaytirishi mumkinmi?, - deb so'radi.

- Albatta. Biror hastaligi bo'lmagan, giyohvand moddalar iste'mol qilmaydigan, spirtli ichimliklar ichmaydigan hamma. Xullas, normal inson maqomida yashovchi har kim o'zi ishongan va xohlagan miqdorda bu dasturga amal qilib uyqusini kamaytirishi mumkin.


Jinning bu javobidan so'ng Kendinning moviy ko'zlarida barqurgan sevinch ummon singari ulkan umidga aylandi.

- Bu ajoyib xabar. Uni butun insoniyatga yetkazishim lozim!

Jin Kendinning moviy ko'zlarida o'zining buyuk ekaniga ishona boshlagan insonni ko'rdi. Ammo hali unga aytishi kerak bo'lgan ba'zi ogohlantirishlari ham yo'q emasdi.

- Ammo bu taqvim faqatgina sening xohish-istaklaring va mezonlaringga ko'ra tayyorlangan. Sen yetkazadigan insonlar, bu taqvimga ko'ra harakat qilishsa, unchalik ham mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Shu vaqt stol ustida yana boshqa bir qog'oz paydo bo'ldi. Bu Kendin uchun tayyorlangan taqvimning bo'sh nusxasi edi.



Jin bu bo'sh qog'ozni Kendinga uzata turib:

- Buni ularga yetkaz va nima qilishlari kerakligini tushuntir...

Munosib uyqu davomiyligini o'zlariga ko'ra belgilab, bu jadvalni

to'ldirgandan so'ng unga qat'iy amal qilsinlar. Jadvalni to'ldirayotganda e'tibor qilinishi zarur bo'lgan eng muhim jihat bu – maqsad qilingan uyqu davomiyligining 4-6 soat orasida bo'lishidir. Buni eslatib o'tishni unutma! Bulardan so'ng biroz avval “Tekshirish bosqichi” deya tushuntirgan nazoratni ham to'liq amalga oshirsalar, uxlashlari kerak bo'lgan vaqtni ham aniqlab olgan bo'ladilar...

- Yana bekatni almashtirish muddatini ham 15 daqiqa bilan cheklashlarini aytishim kerak, - dedi Kendin.

Gap ohangidan “Men endi sendan ham yaxshiroq bilaman nima qilish kerakligini...” ma'nosini uqish mumkin edi. Ha, endilikda u butun tafsilotlarni yoddan bilardi.

- Ha, aytgandek, oxirgi bekat bor-ku, o'shanda 10 kun turishlari kerak. Bu Gipotalamus, Doktor Rem, Doktor NRem va yana o'sha odamning o'zi moslashishi uchun nihoyatda muhim, - deya Jin so'nggi marta ogohlantirdi. Gapini tugatishga ulgurmasdan Kendin savol tashlab qoldi:

- Hozir bu yerda nimani xohlasak, o'sha amalga oshardi, shunday emasmi?

- Ha, - dedi Jin.

- Unday bo'lsa, men bu dasturni vaqt yo'qotmasdan, hoziroq amalga oshirishni xohlayman.

Jin shoshib qoldi:

- Hozirmi?

- Ha, hozir...

Jin e'tiroz bildirdi:

- Lekin, bunaqasi bo'lmaydi, hatto noto'g'ri bu. Sen bu taqvimga sekin-sekin, o'zingga singdirgan holda amal qilishing zarur!

- Yaxshi, bo'lmasam, istagimni o'zgartiraman. Men bu taqvimga sekin-sekin, o'zimga singdirgan holda amal qilishni xohlayman... Hoziroq!

Gapining so'ngidagi "Hoziroq!" so'zi amr ohangida, zarb ila chiqdi. Bu yerda Jin qiladigan hech qanday ish yo'q edi, axir bu o'sha saroy, Kendin esa juda oddiy narsani so'rayotgandi.

- Yaxshi..., - dedi Jin.

Kendinning boshi aylana boshladi. Yiqilib tushay dedi-yu, ammo yiqilmadi. O'layotgandek bo'ldi-yu, ammo o'lmadi. O'zini uchayotgandek his qildi-yu, ammo uchmadi. Portlab ketguday bo'ldi-yu, ammo unday bo'lmadi. Hushidan ketayotgandek holatga tushdi-yu, ammo hushdan ketmadi... Jinning "Uyqu taqvimi" deya nomlangan o'sha jadvalini tik oyoqda biroz tezlashtirilgan holatda o'ziga singdirib yashadi. Biroz o'tib o'ziga kelgach:

- Qoyil-ee!... Bo'ldi-ya va nihoyat!, - dedi.

Ha, chindan ham bu amalga oshdi. Kendinning ko'rinishi esa nihoyatda ajoyib edi.

- Tabriklayman, do'stim! Endi bundan buyon 4 soat uxlaysan.

Kendin quvonchdan bir joyda turolmasdi. Bu tajribani barcha sinab ko'rishi kerak.

- Ishonib bo'lmas tuyg'u bu. His qilyapman... Bu yerga hamma kelishi kerak.

- Ammo bunday bo'lmaydi!, - dedi Jin.

- Bu yerda aytilgan har narsa haqiqatga aylanishini hisobga oladigan bo'lsak, men buni xohlayapman, - ayyorona hiyla qildi Kendin.

- Ha, lekin bu yerda faqat o'z hayoting bilan bog'liq istaklaring amalga oshadi. Xayol qilgan barcha narsang... Sinab ko'r, xohlasang!

- Xohlamayman. Bundan buyog'ini o'zim hal qilaman, - dedi Kendin va xayoliga kelgan fikrdan xuddi tovuq fermasiga kirish yo'lini topgan tulki singari mamnun bosh silkib qo'ydi. Jin hech narsaga tushunmadi. Zotan, hech kim tushunmasdi.

- Ketamiz!, - dedi Jin.

- Ketdik..., - dedi Kendin ham va o'zini uy sohibidek tutgancha viqor ila zinadan pastga qarab tusha boshladi. Shu vaqt kabutar qanotidan-da pok bir nur yuqoriga qarab ildamlay boshladi. Kendin harakatini tezlatdi. Uchguday bo'lib zinalardan pastga tushdi. Nurning manbasini ko'rdi-yu, ko'zlariga ishona olmay qoldi. Jamiyki yorug'liklarni o'zida mujassam etgandek saroyni oydinlatgan bu nur saroyga ilk kirgan on ko'z yoshlari ila ekan niholning uchidagi mittigina marvarid donasidan taralib turardi. Endigina qo'lini uzatgan ham ediki, Jin yetib keldi:

- Aslo tega ko'rma unga! Faqatgina kuzat!

Kendin Jinning ko'zlarida avval sira ko'rmagan qandaydir xavotirni ko'rdi.

- Nega buncha hayajonlanding? Tegsam nima bo'ladi?

Jin nafasi qisilgancha gapini takrorladi:

- Aslo bunday qilma!

Kendin yana so'radi:

- Bir narsaga tushunmadim. Bu qanday qilib bu holga keldi? Oddiygina marvarid donasi qanaqasiga shu qadar yorug' nurga aylanishi mumkin?

- Biroz avval oddiygina edi, chunki sen uni kelajak qayg'usini o'zida mujassam etgan ko'z yoshlaring ila ekan eding. Hozir esa aksincha, unga kelajakka bo'lgan buyuk ishonch ila qarab turibsan. Bu marvarid kelajaging haqidagi sirlarni o'zida jamlagan. Ko'rib turganing kabi kundek yorug' va pok kelajaging bor, do'stim.

Kendin bir tomondan Jinni tinglar, ikkinchi tomondan esa ko'zini uzmay marvaridga qarab turardi. Quyoshga teng nur sohib turganiga qaramay, Kendinning ko'zlarini hech qamashtirmasdi. Everest cho'qqisidagi orxideya insonni qanday o'ziga tortsa, bu marvarid donasi ham Kendinni shunday o'ziga jalb qilardi. Ichida saqlangan kelajak sirini ham hisobga olsak, unga teginmaslik imkonsiz edi. Kendinning bu istagini sezgan Jin uni takror ogohlantirdi:

- Unga aslo tega ko'rma! Faqat kuzat!

Ammo Kendin ham bir inson, uning yuz ming yildirki oldiga hech kimsa tusha olmagan egalik qilish orzusi Jinning so'zlaridan ko'ra ming chandon ta'sirliroq edi. Qat'iyat ila qo'lini marvaridga uzatdi. Jin Pikassoning palitrasi singari rangdan rangga kirar, ammo qo'lidan hech bir ish kelmasdi. Gap Kendinning kelajagi haqida borar, bu mavzudagi barcha tasarruf huquqining yagona sohibi ham uning o'zi edi. Ichida jo'sh urgan kuchli hayajonga qaramay marvaridga ozor yetkazmay sekingina qo'lga oldi.

- Qarama... Hoziroq qo'y uni!, - ogohlantirdi Jin qat'iy ohangda. So'ngra buning foydasi yo'qligini angladi chog'i, yalinishga o'tdi:

- Iltimos, uni joyiga qo'yib qo'y!

Jinning so'z ohangida xavfli jinoyatchi tomonidan garovga olingan muhim bir insonni qutqarishga urinayotgan

politsiyachining qat'iyati bor edi. Kendin buni bir imkoniyat sifatida ko'ra boshladi. U xuddi garovga olgan kishisining ahamiyatini shu onda tushunib yetgan jinoyatchi singari Jinga qarshilik ko'rsatardi:

- Yo'q, bu meniki, menga oid..., - deya ko'zlarini marvaridga yaqinlashtirdi.

Marvarid xuddi Fuji tog'ining portlashidan avvalgi gumburlagan sadosini eslatuvchi shovqin ila harakatlana boshladi. Kendinning vujudini qo'rquv, hayajon va qiziqish batamom egallab olgandi. Yaqindan nazar soldi. Marvarid yuzasida tinimsiz o'zgarayotgan allaqanday tushunarsiz shakllar ustida ko'p xonali bir son raqamlari harakatlanib turardi. Biroz o'tib raqamlar joyida to'xtadi. Ovoz ham kesildi. Marvarid ustida "35111321061833" raqamlari zohir bo'ldi.

- Nima bu?, - so'radi Kendin, Jinga marvarid ustiga olmos kabi tizilgan raqamlarni ko'rsatib.

- Iltimos, qo'y uni, Kendin. O'tinaman, tashla!, - derdi Jin.

Kendin dahshatli tushdan majburan uyg'otilgan inson kabi qo'rqqan holatda marvaridni tashlashga qaror qildi. Sekingina yerga egildi. Jin "O'sha joyga qo'y!" deya qo'li bilan ishora qildi. Kendin marvariddan ko'zini uzmay, uni sekingina yerga qo'yarkan, bir narsa e'tiborini tortdi: marvarid yuzasidagi raqamlar teskari hisoblagich kabi ortga qarab kamayib borardi... Kendin bunga biron ma'no bera olmadi. Ortga tomon harakat etayotgan raqamlarning kelajakka qanday aloqasi bo'lishi mumkin? Marvaridni tashlashdan voz kechdi.

- Nima bu raqamlar, aytsang-chi axir, nimalar bo'lyapti?, - dedi Jinga. Jin chorasiz qoldi, biroz achchiqlangan bo'lsa-da, Kendinning qat'iyati va yanada dahshatli oqibatlarining kelib chiqish ehtimoli uni gapirishga majbur etdi.



- Bu nimaligini bilasizmi o'zi, afandim? Bu sizning qolgan umringizni ko'rsatadigan hisoblagich.

Birdan Kendinning yuzi o'zgarib, ma'nosiz tus oldi. Chindan ham, bu hazil emas, Kendinning qolgan umrini ko'rsatadigan hisoblagich edi. Takror marvaridga qaradi: 35 yil, 11 oy, 13 kun, 21 soat, 5 daqiqa, 19 soniya, 72 millisekund...

- Janob quloq solmas, so'z anglamas, ko'rib turganingdek, bor-yo'g'i 35 yil vaqting qoldi, - dedi Jin.

Kendinning tuyg'ulari qorishib ketdi, nimadir aytmqchi bo'lardi-yu, faqat nima deyishini bilmasdi. So'ng hech narsa degisi kelmay qoldi, faqat g'alati ovozlari chiqarardi. So'ngra ko'zlarida bir vaqtning o'zida baxt, mahzunlik hamda og'riq ranglari jilolandi. O'lim jazosi oldidan so'nggi istagini bayon qilayotgan mahkum qadar kuchsiz va befarqlik bilan marvarid yuzasidagi yozuvni qayta o'qidi:

- 35 yil, 11 oy, 13 kun, 21 soat...

Bu bilan Jinning gapini to'g'irlagan bo'ldi. Balki, Jin uchun unchalik muhim emasdir, ammo, Kendin uchun umrining qolgan oylari ham katta ahamiyatga ega edi, kunlari ham, soatlari ham...

- Voybo'! – dedi Jin sovuq nigohlarini Kendinga tikib. Shu onda Kendin o'limi yaqin qolganini ilk marotaba eshitgan kishiga o'xshardi. Yerga egilib, jimgina marvaridni kuzata boshladi. Hisoblagich tinim bilmay ishlardi. Barmoqlari bilan raqamlarni bosib ko'rdi, bo'lmadi. Qo'li bilan ustini berkitdi, bo'lmadi. Qo'lga olib qattiq silkitgandi, bundan ham hech bir ish chiqmadi. Shunda tushunib yetdi, bu hisoblagichni na buzishning va na to'xtatishning imkoni bor. Qarashni xohlamasdi-yu, ammo ko'zlarini undan uza olmasdi. Uzog'i bir necha soniyaga ko'zlarini boshqa tomonga olib qochar, qayerga tushishini bilmagan chaqmoq singari xavotir ichida edi. Nima qilishi kerak,

axir? Qanday qaror qabul qilishi kerak? Bunga javob yo'q, ammo nima qilsa ham tezroq qilishi kerak!

- Unutishni xohlayman. Buni hech qachon ko'rmagandek bo'lib qolishni xohlayman, Jin! O'tinaman, meni qutqar!, - dedi o'limi oldidan yolvorayotgan inson singari.

Hatto shu gaplarini aytayotgan fursatda ham ko'zlarini hisoblagichdan uzolmadi. Tinmay yig'lardi. Daryo kabi ko'zyoshlari yonoqlaridan oqib, qizil tuproqqa to'kildirdi. Shu vaqt zinada dasturxonga non keltirgan o'sha sohibjamol qiz paydo bo'ldi. Jilmaygancha Kendinga yaqinlasha boshladi. Ko'zlari to'qnashdi... Qiz Kendinning qo'lidagi marvaridni ohista olib, tuproqqa tushgan ko'zyoshlarining o'rtasiga tashladi. Yerga tusharkan, marvarid katta yosh tomchisiga aylandi... Yerga tushdi-yu, yuzlab bo'laklarga parchalanib ketdi. Yakunda esa yer va burundagi ozgina namlikdan bo'lak hech narsa qolmadi...

- G'oyib bo'ldi!, - dedi Kendin. U na xursand bo'lishni, na xafa bo'lishni bilardi. Tushunishi kerakmi yoki yo'q... Bilishi kerakmi yoki aksincha, bilmasligimi, buning ham farqiga bormasdi. Mutlaqo hech narsani bilmasdi. O'lishidan bo'lak...

Keyin hisoblagich yuzasidagi raqamlarni unutib qo'yganini tushunib yetdi. Eslolmayapti! Bunga quvonishi kerakmi yo xafa bo'lishimi? Yig'lasinmi yo kulsinmi? Nima edi o'zi?

- Eslolmayapman!

Jin:

- Ammo eslashni xohlaysan. Insonsan, axir. Bilib turib, o'zini bilmaslikka solgan, ko'rib turib, ko'rmaslikka olgan insonsan... Bilmaganingni o'rganishni, o'rganganingni esa unutishni xohlaysan. Ko'rmaganingni ko'rishni, ko'rganda esa ko'rmaslikni istaysan!, - dedi.

Kendin unutgandi. Bir kun kelib u ham o'lim sharobini totishidan bo'lak har narsani unutgandi.

- Yo'q, eslolmayapman, eslashni ham xohlamayman. Bu menga o'zim bilgan jamiyki narsalardan ko'ra qadrliroq bo'lgan tajribalarni o'rgatdi. Endi men bu hayot, aslida, o'z sirlari ila go'zal ekanini bilaman. O'lim vaqtimni ko'rmagunimga qadar xuddi sira ham o'lmaydigandek yashaganimni tushunib yetdim. O'sha hisoblagich haqiqatda mavjud ekanini, men uyquda ekanimda ham u tinim bilmay ishlashini angladim..., - dedi Kendin.

Jin Kendinning marvaridga tekkani uchun jahl qilganiga afsus chekayotgandi. Chunki birgina o'sha marvarid shu qadar uzoq davom etgan safardan ko'ra ko'proq narsa o'rgatgandi Kendinga. So'zini bo'lmay jimgina uni tingladi:

- Qisqa vaqtga bo'lsa-da, inson ega bo'lishi mumkin bo'lgan eng muazzam bilimga ega bo'ldim. U yerda nima yozilganini eslay olmayman hatto. Ammo ming yil yo bo'lmasam uch ming yil yozilgan taqdirda ham bu muddat kun kelib, albatta, o'z poyoniga yetishini anglab yetdim. Zamon oldida yugurishim lozimligini, hech qachon kech qolmasligim kerakligini tushunib yetdim.

Kendin Jinning hayajonli nigohlari qarshisida o'rnidan turdi:

- Kelajagim moviy osmondanda pokroq, chegarasiz ekanini angladim. Yana bunday hisoblagich bilan yashash imkonsiz, ammo aslida shunday hisoblagichning mavjud ekanini hech qachon unutmasligim kerakligini o'rgandim.

Jin endilikda Kendin o'zi olayotgan nafasining haqqini bermoq uchun kerakli barcha narsani ortig'i bilan bilib olganiga ishonch hosil qildi. Uni o'zi o'rganganlari bilan yolg'iz qoldirish lozimligini o'yladi. Sayohat ham o'z poyoniga yetgandi. Endi

ortga qaytish fursati kelgan, ammo Kendin hamon gapirmoqda edi:

- Olti oygina umri qolgan, saraton bilan hastalangan kishi ham o'limiga ishonmasligini angladim. Hech kimsaning o'rtacha 60, 70 yoki 100 yil yashashiga ishonmasligini ham tushunib yetdim.

- ...

- Hamma abadiy yashayman, deb o'ylaydi. Bir kun kelib o'lishiga qattiq ishongan qaysi inson begunoh insonlarning qonini to'kadi, qaysi inson zulm qiladi, qaysi inson yomon bo'lishning uddasidan chiqadi?

Kendinning ko'zlarida ma'sumiyat balqib turardi. Biroz avval tug'ilgan go'dakning ma'sumiyati singari...

- Men senga boshidan beri shuni tushuntirishga harakat qilyapman-da, do'stim! Inson hech o'lmaydigandek hayot kechirar ekan, to'satdan yetib kelgan ajali va so'nggi damlardagi pushaymonlik hissi uning nafas olishiga to'sqinlik qiladi. Ortga qaytish imkonsiz bo'lgan o'sha onda yana bir necha daqiqagina hayotda qolmoq uchun u borini berishga tayyor bo'ladi. Bu haqiqat kundek ravshan ekan, aqli joyida bo'lgan bir inson qanday qilib 60 yillik umrining 20 yilini yostiqla o'tkazib yuborishi mumkin?..., - dedi Jin va turgan yerida aylana boshladi. Boshni aylantirib yuboradigan tezlikda aylanarkan, birdan o'rmonda chopib ketayotib arslonga ko'zi tushgan jayron singari joyida taqqa to'xtadi. Kendinga o'girilib:

- Aslida, dunyoda 6 milliard inson yo'q. Umumiy uch kishi bor. Hozir bularning uyquga bo'lgan munosabatlari haqida aytib beraman senga. Agar batafsil aytadigan bo'lsam, umring yetmaydi..., - dedi.

Kendin Jinni butun vujudi quloqqa aylanib tinglay boshladi:

- Dunyoda umumiy 3 kishisiz. Sen ham mutlaqo shu 3 kishidan birisan!...

Bu gapdan so'ng inson eshitishdan bo'lak hech narsa qila olmasdi! Kendin ham xuddi shunday qildi: tingladi...

- Birinchisi: dono inson. Bu dunyoda o'zidan biron iz qoldirmasdan ketmaslikka qasam ichgan kishi... U, shubhasiz, bergan so'zida turadi, bajara olmaydigan narsaga aslo va'da bermaydi. U o'sha hisoblagichni ko'rmasa ham, xuddi ko'rib turgandek hayot kechiradi. Vaqt atalmish tushunchaning aslo sotib olinib bo'lmasligi, saqlab qo'yilishining imkoni yo'qligini u juda yaxshi biladi. Shuni bilgani uchun ham hayotini aslo bekorchi ishlarga sarflamaydi. Har soniyasiga go'yo har bir karati deyarli 300 tonnalik tuproqni qazish yo'li bilan olinadigan olmos kabi qaraydi. Uyquni ham kanda qilmaydi. Uyqusi kelishi bilan darrov uxlaydi, ortga surmaydi. Ammo bunda chegaradan chiqmaydi. Barcha narsada me'yorga qat'iy amal qiladi, me'yorni ham o'zi belgilaydi. Ko'proq uxlab yuborgan paytlariga qattiq afsus chekadi. Ishini o'yinga aylantirgani sabab undan barchadan ko'ra ko'proq zavq oladi. Hayot lazzatlaridan ham eng ko'p u foydalanadi. Ammo bularning hech biri uning vaqtini zoye qilmaydi. Sababi, hatto uning xursandchilik qilishi ham rejaga ko'radir.

Kendin Jin bilan safarlari o'z yakuniga yetib borayotganini his qilib turar, sababi, uning so'zlari butun sayohatga xulosa yasamoqda edi. Shu sababdan, bu jumlar nihoyatda muhim.

- Ikkinchisi: oddiy inson. Hammaga o'xshagan, ya'ni. Ko'pchilikdan ajratib bo'lmaydi. Kimdir chiqib, bir narsalarni gapiradi, u esa hech surishtirib o'tirmay, "Hamma shunday qilyapti-ku", deya ergashib ketaveradi. Doimo muhim ishlar qilishini aytadi-yu, ammo buning uchun biron rejasi yo'q. Ko'pincha boshqalar bilan samimiy munosabatda bo'ladi, biroq,

o'zi bilan samimiy bo'lishni risoladagidek uddalay olmaydi. Qachon qarama, ortga surgani surgan. Har tongda erta uchun o'ziga so'z beradi, ammo so'zida turmaydi. Ish odami emas. Zaif tomonlarini yaxshi biladi, lekin, ulardan qutula olmaydi. O'tmishi bilan haddan ziyod faxrlanadi. Uni mukofot va sovrinlar ko'proq qiziqtiradi. Kimlarningdir fikri uning uchun muhim. Shu sabab, uyqusini ham o'shalarning tavsiyasiga ko'ra belgilaydi. "8 soat uxla!" deyishgani uchun shuncha uxlaydi. Kimdir agar "Oz uxlash insonga kifoya qilarkan!" deganida, ertasi kuni u ham shubhasiz, shunday degan bo'lardi. Ammo faqat tili bilan aytadi, amal qilmaydi. Chunki, unga muammoning keragi yo'q. Yaxshi tomoni esa o'zi qilayotgan ishlarning noto'g'ri ekanini bilishidir. Masalan, kam uxlashi kerakligini biladi, o'zini ortiqcha qiynamay buni bir necha marotaba sinab ko'radi, ba'zi-ba'zida kam uxlaydi. Davomli bo'lmasa-da, bu uning uchun katta muvaffaqiyat. Bir kungina kam uxlasa ham unga yetadi. Yana buni har kuni qilayotgan kishidek har yerda g'urur bilan aytib yuradi. Bu kabi yolg'onlarni zararsiz deb hisoblaydi. Bundan hech kimga zarar yetmasligiga bo'lgan ishonchi eng yuqori darajada. Aslida, nohaq ham emas, chunki, boshqalarning xayrixohligini qozonish uchun aytilgan "beziyon" yolg'onlar hech kimga zarar bermaydi, kishining o'zidan boshqa...

Kendin o'zining bu uch insondan qay biri ekanini o'ylash bilan ovora ekan, Jin oxirgi uchinchi insonni ta'riflay boshladi:

- Uchinchisi esa ahmoqdir. Hayotini faqatgina vaqtlarini to'ldirish ustiga qurgan bir telba. Masalan, 8 soat uxlashning zarurat ekanini da'vo qiladi. Fikri aslo o'zgarmaydi, unda sobit turadi. O'rni kelganda aytib ketay: Bir eshakni esi kirsin, bir nima o'rgansin deya arslonning yoniga jo'natdilar. Eshak 7 yil davomida uning yonida qoldi. Butun qavm-qarindoshlari uni 7 yil davomida sabr va umid ila arslonning saroyi ostonasida poyladilar... Bir payt eshik ochildi va eshak arslonning saroyidan

qahramon kabi chiqib kela boshladi. Qarindoshlari sevinch va qiziqish bilan so'radilar: "Qani, ayt-chi, nimalar qilding, hayotingda nimalar o'zgardi?" Eshakning qovog'i osilib javob qaytardi: "Qattiq afsusdaman. Holingizga voy bo'lsin! Meni yaxshi bilmas ekansiz. Men aslo o'zgarmayman!"

Kendin kulib yubordi. Jin ham kulgancha so'zida davom etdi:

- Hamma narsani bilaman, deb o'ylaydi. Bilgan barcha narsasining to'g'ri ekaniga chin qalbdan ishonadi. Qarorida mustahkam turadi. Nima bo'lgan taqdirda ham, hastalikda, sog'liqda, quvonchli, g'amgin damlarda, yoshlikda, keksalikda 8 soat uxlashga ont ichgandir. Ba'zan 12 soat uxlaganda o'zini rosa lanj his etayotganini aytadi, ammo bu holdan ko'p uxlash orqali inson dam olmasligini tushunib yetmaydi. Aql yuritish qobiliyatiga ega bo'lmagani bois kam uxlagan paytlari o'zini tetik his qilishi va buni e'tirof etishiga qaramay sababini surishtirib o'tirmaydi. Oqibatda, ko'p uxlagani hatto xayoliga ham kelmaydi. Hatto uyqusi eng ma'qul miqdorda bo'lganidan zarracha shubhalanmaydi ham. Dunyoda faqat shu ahmoqgina 8 soat uxlaydi.

Endilikda Kendin o'zining bu uch insondan qay biri ekanini yaxshi bilardi. Jin ham...

- Sen bu uch kishining donosisan, do'stim, dono Kendin, - dedi Jin. Chindan ham, Kendin dono edi. Taassublarga bo'yin egmagan har bir inson kabi u ham o'z chegaralarini yaxshi bilardi.

Dono Kendin va Jinning uyga qaytish vaqtlari bo'lgandi. Ikkisi ham bir paytda tushunib yetdi buni. Turgan joylari Kendinning yotoqxonasiga aylandi. Dono Kendin "Bu qanday bo'ldi?" deb o'tirmadi bu safar, chunki, istagan har narsasi haqiqatga aylanadigan yerda ekanlarini bilardi.

## 18-bob

### IKKI OLIM VA CHUMOLI

Jin bilan birgalikda yotog'ida pishillab uxlayotgan Kendinga nazar soldilar. Dono Kendin charchagan, qancha vaqtdirki, uxlamayotgan edi.

- Haqiqatdan ham o'zi bu safar qancha davom etdi? - so'radi Jindan. U javob berdi:

- Safar bu zamon o'lchovlari bilan ifodalab bo'lmas darajada uzoq davom etdi. Qarg'a 7 marta tug'ildi, ulg'aydi va o'ldi. Safarimiz davomida yolg'iz bir inson uchun hatto 40 toshbaqa umriga sig'maydigan darajada ko'p narsalarni o'rganding. Shunga qaramay, sen bilgan barcha narsalar anjir urug'i ichiga joylashtirilgan to'g'nag'ichning uchidagi kichik zarraga teng. Sen oylab davom etganini gumon qilayotgan bu sayohat, shuningdek, qarg'aning yetti va toshbaqaning qirq avlodi bu dunyoga kelib ketishlari ko'z ochib yumguncha fursatda o'tdi-ketdi. Ya'ni, sen birozdan so'ng xuddi hech ham uyg'onmagandek to'xtagan joyingdan hayotingni davom ettirasan.

Kendin Jinning bu gaplaridan o'zini yo'qotib:

- Nima, safarga chiqishdan avval vaqtni to'xtatib qo'yganmidik?  
- dedi Dono Kendin xonasining devorida osilib turgan buvisining qizlik paytidan qolgan soatiga qararkan.

- Yo'q, albatta, yo'q... Bunga foniy bir mavjudot qodir emas. Ammo ba'zan inson ming umrga teng onlarni yashaydi. Bu shunchaki, shulardan biri edi, xolos.

Kendin uchun mavhum bo'lib qolgan narsalar ham yo'q emasdi:

- Hisoblagich-chi? U ishlayotgandi-ku...



- Albatta, ishlayotgandi. Sen anglashing kerak bo'lgan narsa, bir on ichida onlar yashading..., - dedi Jin. Shu on Jinning qiyofasida Suqrot namoyon bo'ldi, jamiyki faylasuflarni o'zida mujassam etdi.

- Kapalakning umri qisqa deb o'ylaysanmi? Kapalakning umri toshbaqanikiga, chumolining umri esa mushuknikiga doim tengdir...

- ...

- Toshbaqa uzoq umr ko'rarkan, kunlarning birida falak uni tutadi, toshbaqaga yana bir kapalak umri beriladi. Toshbaqa kapalaklik umri davomida koinotga qadam qo'yadi. O'z umri davomida o'rganganlarining minglab qatlarini bir kunlik umrida qaytadan kashf etadi. Chunki, u aslida toshbaqaning bilimlari ila uchayotgan kapalakdir. Sen bilan ham xuddi shunday...

Kendinning xayollari chuvalashib ketdi.

- Qanday qilib?

- Masalan, agar sen bugungi to'plagan tajribalaring bilan kapalakka aylanib qolsang, bolalik, yoshlik va qarilik davringni bir kunda yashagan bo'larding. Ya'ni, sen tamoman boshqa vaqt ko'lamida bo'lar, "Men kim yo nimaman?" deb o'ylab o'tirmasding. So'ngra kapalaklikni qabul qilib, bir kapalakday umr o'tkazarding. Butun umring bir kundangina iborat bo'lardi, ammo sen o'sha bir kunni ushbu tajribalaring yordamida har qanday kapalak kabi o'tkazmasding. Bizning o'lchovimizda bu umr qisqa bo'lib tuyulsa-da, sen uni haqqoniy yashab o'tarding. So'ngra qaytib insonga aylanganingda, boshingdan kechirgan voqealarni, u yerdagi quyosh, oilang va tatib ko'rgan yaprog'ingning ta'mini, yaproqqa tushgan yomg'ir tomchisi seni

qanday cho'chitib yuborganini, o'sha tomchini yillar davomida o'sha yerda kutganingni va u bilan ma'lum muddat hayot kechirganingni, bir hasharotning qo'lidan so'nggi lahzada qutulib qolganingni, hayot achchig'i-yu shirini bilan totli ekanini, qarilik davringni, qanotlaringni qoqishga-da qodir bo'lolmay, birdan yiqilib tushgan paytingni uzundan uzoq hikoya qilarding.

Kendinning miyasi yana alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. So'radi:

- Bu bilan barcha jonzotlar uchun umr bir xil demoqchimisiz?

- Albatta. Buni turli yoshdagi insonlardan so'rab bilsang ham bo'ladi. 15 yoshli yigitcha ham, 20 yoshli qiz ham, 40 yoshli ota ham, 70 yoshli buvi ham o'tgan hayotlarining bir lahzagina davom etganini, ko'z yumib ochgulik qisqa zamon yashaganlarini aytadilar. U holda "Barcha insonlar faqatgina bir lahza yashaydilar" desak, xato qilmagan bo'lamiz. Menga ishon, agar tilini anglaganimizda, sher ham, chumoli-yu, timsoh ham bu savolga ayni shu javobni bergan bo'lardi... Demak, umr degani shunchaki bir ondir.

Dono Kendin tushundi. Hatto qolgan umri ham shunchaki bir ondan iborat ekanligini tushundi... Birdan saroyda javobini ololmagan savoli esiga tushib qoldi:

- Saroy... U saroy kimniki edi?

Jin kulimsiradi:

- U saroy seniki edi, do'stim.

Kendin bu javobdan shoshib qoldi:

- Menikimi? Unday bo'lsa u qayerda, u yerga yana qanday qaytsam bo'ladi?

- Bu yerda... U saroy ayni mana shu yerda.

Kendin endi donishmand edi. Endi barchasini o'zi anglashi lozim. Uzundan uzun savol berish dono insonga yarashmasdi axir. Angladi. Biroz avval saroyda Jin bilan "Uyga qaytish payti bo'ldi" deb o'ylayotgan vaqtlarida saroy Kendinning yotoqxonasiga aylanib qolgan edi... Demak, bu yer haqiqatan ham o'sha saroy, istalgan narsani qo'lga kiritish mumkin bo'lgan yer edi bu. Miya deb atalmish bu kichik sandiqda yana yuz minglab shu kabi saroylar bor.

Dono Kendin bularni o'ylarkan, Jin issiqqina yotog'ida chuqur uyquda yotgan Kendinning qulog'iga yaqinlashdi. Dono Kendin Jinning nima qilishini kuzatib turdi.

- Uyg'on Kendin, men Jinman. Qani, tila tilagingni. Uchta imkoning bor. Qani uyg'on va mendan nimani istasang, shuni so'ra, - dedi, ammo Kendin uyg'onmadi. Ortiga o'girilib Jingga uxlashni xohlayotganini aytdi. Jin Dono Kendinga qarab boshini silkitib qo'ydi. So'ng yana Kendinning qulog'iga egilib, davom etdi:

- Uyg'on Kendin, men Jinman. Qani, tila tilagingni. Ikkita imkoning bor. Qani uyg'on va mendan nimani istasang, shuni so'ra, - dedi. Kendin bu safar ham uxlashni xohlayotganini bildirib, ko'rpani boshigacha tortib yaxshiroq o'ranib oldi. Jin bilan Dono Kendinning ko'zlari to'qnashdi. Dono Kendin hamma narsani tushunib yetgandi. Kendin uyg'onishni xohlamayotgan ahmoq kabi uxlashda davom etarkan, Jin o'sha tanish zarbani tushirdi. Kendin Muhammad Alining mushtiga teng tarsaki yegach, to'shakdan o'q kabi otilib turdi. U nimalar bo'layotganini tushunishga ham ulgurmay, Jin Dono Kendinga o'girilib:

- Ko'rmayapsanmi? Shapaloq yemay turib uyg'ona olmayapsan hatto, - dedi.

Dono Kendinning yuzi burishdi. Bu orada Kendin uyg'onib:

- Nimalar bo'lyapti?, - deya so'radi. Jin javob berdi:

- Hech narsa, xavotir olma! Shunchaki, seni Jin chaldi.

Kendin dovdiragancha qaytib so'radi:

- Qanaqa Jin?

- Shu "Tila tilagingni" deydigan Jin bor-ku, o'sha Jin. Qani, tila tilagingni, ammo faqat birgina imkonning bor. Xohlayotgan narsang o'zing qiloladigan narsa bo'lsa, so'rab o'tirma, buni aslo bajarmayman. Uy, mashina, pul kabilar bo'lmasin..., - dedi ayyorona nigohlarini Kendinga qadab.

- Nimaga ekan? Nima uchun har kimning uch imkoniyati bo'ladi-yu, menda bir dona?...

Shundan so'ng Jin va Kendin orasida Dono Kendinga yaxshi tanish bo'lgan o'sha suhbat bo'lib o'tdi.

Jin endigina uyqudan turgan Kendinni mahkam quchgancha, tez aylana boshladi. Ikki vujud bir tanga aylandi. G'oyib bo'lishlariga bir bahiya qolgan ham ediki, birdan to'xtadilar. Jin Donishmand Kendinning ko'zlariga boqib: "Yaxshi qol, xo'jayin", - deya vidolashdi. Kendin Donishmand Kendinni ko'ra olmagan uchun hech narsaga tushunmadi... Jin bo'lib o'tganlarni anglashga urinayotgan Kendinni qattiq tutib, yana aylana boshladi. Bir necha soniyadan so'ng g'oyib bo'ldilar. Shu payt o'sha yerdan o'tib ketayotgan chumolining oldiga bir bo'lak pechenye tushdi, lekin, u buni na ko'rdi va na eshitdi.

Donishmand Kendin egilib, yerdagi chumolini kaftiga oldi:

- Ko'rmading, to'g'rimi?, - dedi va kulimsiragan ko'yi tashqariga chiqdi.

## 19-bob

### KENDIN'S33

Quyosh chiqish arafasida edi. Dono Kendin asrlar bo'yi davom etgan safardan so'ng kaftida mittigina go'dakning urib turgan yuragini his etdi. Kaftiga qaradi. Bu Gipotalamus edi. Bu sayohatdan esdalik bo'lib qolgan o'sha buyuk xazina...

Chiroqlari yonmagan uylar bo'ylab qorong'u ko'chada aylanib yurdi. Yomg'ir yog'ardi. Dono Kendin qizg'ish tuproqqa tomgan 6 milyard ko'z yoshini, yana 6 milliard marvaridni ko'rdi. Bundan tashqari, ortga qarab kamayib borayotgan 6 milliard hisoblagichning ovozi eshitgandek bo'ldi...

Yerga tushayotgan yomg'ir tomchilari ko'cha chiroqlari yorug'ida raqs tushayotgan qizlarga aylanardi go'yo. Ko'cha uzun va tor bo'lib, nariroqda suyak talashayotgan kuchuklarni aytmasa, hammayoq jimjit edi. Kendin yurishda davom etdi. 30 yildan beri qatnagan sovuq yo'lkalarda go'yo ilk kez yurayotgandek edi.

Uyqusida terlab qolgan farzandining ustidan ko'rpani tushirib qo'yayotgan ona singari quyosh ham ohistalik bilan ko'chalardan zulmatni tortib olardi. Sekin-asta yorishgan ko'cha qushlar chug'ur-chug'uri bilan uyg'ona boshladi. Eski bir qadr don do'stini xotirlagandek Kendinning lablariga tabassum yugurdi.

Yo'lklar Kendinni kasalxonaga eltarkan, quyosh kimsasiz yerlarni yer bilan yakson etar, ko'tarilib borgani sayin har ko'chaning burchagiga qadar yangi hayot baxsh etardi. Quyosh xuddi bog'bonga o'xshaydi, faqat qo'llarida gul yo'q, xolos. Yo'llar tugab, kasalxona boshlandi hamki, atrof hali to'liq yorishib ulgurmagandi. Tez tibbiy yordam bo'limidan oyog'i gips qilingan bir bola yonida ota-onasi bilan chiqib kela boshladi, Kendin:

- Tuzalib keting!, - degandi, ammo uni eshitishmadi. Tez-tez yurib kasalxonadan uzoqlashdilar...

Shu payt Kendinning ko'zi tez tibbiy yordam bo'limi ortida turgan tez yordam mashinasiga tushdi. Tez yordam haydovchisi boshini rulga qo'yganicha, bamaylixotir xuddi o'z paytini kutayotgan fasl kabi chuqur uyquda edi. Kendin bundan avval ham uning uxlayotganini ko'p ko'rgan, ammo negadir bu safar uxlayotgan odam unga g'alati tuyuldi.

Ichkariga kirdi. Qabulxonadagilar bosh shifokorlarini bunday vaqtda ilk bora ko'rib turganlari uchun biroz shoshib qoldilar. Kendin hech narsa demay shoshganicha xonasi joylashgan qavatga ko'tarildi. Eshiklari yopiq xonalar yonidan o'tib yo'lakning eng oxirida joylashgan o'z xonasi eshigini ochdi. Ichkariga kiriboq, taxtiga o'tirayotgan imperator singari o'rindig'iga o'tirdi. Yordamchisini qidirdi, ammo u ham qolgan barcha kabi quyoshdan so'ng uyg'onadiganlar toifasiga kirardi. Kendin unga oshiq edi. Juda sekin, shoshmay gapirgani uchun uni "Ohistam" deb chaqirardi, ammo bugun Ohistani oshiq o'z sevgilisini qidirayotgandek izlamayapgani yuzidan sezilib turardi.

Qalamdondan qora qalam oldi va oldida turgan hujjatlar fayliga "Kendin's" (Kendinning) deb sarlavha qo'ydi. Unga Kardiomiopatiyadan tortib OITS ga qadar bilgan barcha kasallik nomlarini ketma-ket yozib chiqdi. Taxminan bir soat to'xtovsiz yozdi. So'ngra xonaning eshigi ochilib, kotibasi Lara kirib keldi. Kendinni ko'rishi bilan:

- Kechirasiz, janob. Bu yerda ekanligingizni bilmagandim,- dedi eshikni taqillatmaganidan hijolat tortib. Kendin unga e'tibor ham bermay ishida davom etdi.

- Janob, choy ichasizmi?, - so'radi Lara. Ammo yana javob ololmadi. Yosh qiz "Rosa jahli chiqqan bo'lsa kerak" degan o'yda yonoqlari qizarib tashqariga chiqdi va stoliga o'tirdi.

Kendin ikki soatcha ishlagandan so'ng soatiga qaradi. Soat endigina 08.30 bo'lgan, kasalxona sekin-asta jonlana boshlagan bir vaqt edi. Bosh shifokorning hammadan oldin kelib, hech kim bilan salomlashmay xonasiga kirib ketgani va umuman gapirmaganligi butun kasalxonada kun mavzusiga aylandi. Hamshiradan tortib shifokorgacha jamiyki xodimlar bosh shifokorga nima bo'lganiga qiziqishardi. Kotiba, eshikni taqillatmasdan xonaga kirganida yuz bergan holatni oshirib-toshirib gapirib berar, ikki shifokor, uch hamshira va yana bor tashvishi g'iybat bo'lgan uch-to'rtta bekorchi "Qof tog'ida Anqo qushi" ni ko'rgan dononi tinglayotganday undan quloq uzmasdilar. Kotibaning ish stolidagi telefonning jiringlashi suhbatni qoq o'rtasida bo'lib qo'ydi. U go'shakni ko'tardi. Telefon qilgan bosh shifokor ekan.

- Zudlik bilan soat 09.33 da barcha xodimlar majlislar zaliga to'plansin!

Uning ovozi allanechuk vahimali edi. Kotiba o'zini kasalxona manfaatlarini o'ylayotgandek ko'rsatish maqsadida so'radi:

- Kasallar-chi, ularning ahvoli nima kechadi?

- Tez tibbiy yordam bo'limidan tashqari butun kasalxona bugunchalik yopiq. Tushundingizmi?

Ovozidagi qat'iyat e'tirozga o'rin qoldirmadi:

- Tushunarli, janob, - dedi kotiba shoshilib.

Ammo 09.33 g'alati vaqt. Nega 09.30 yoki 09.15 emas...? Bunday vaqt bosh shifokorda qandaydir bir o'zgarish yuz berganining dalili edi. Xodimlar u yerda hisoblagich borligini,



har soniyada qanchadan qancha olmosga teng vaqtni kemirib borayotganligini qayerdan bilishsin? Kendin endilikda kichik narsalarni ham hisobga oladigan buyuk inson ekanligi ularning tushiga kiribdimi?

Qo'rqanlaridan majlisga erta bordilar. Holatga har kim turlicha izoh berardi. Nima bo'lishi mumkin? Doktor Kendinning ilk bor bunday topshiriq berishi axir. Yomon ishlar sodir bo'ladigandek ko'rinardi. Ohista ham zalda bo'lib, eng oldinda o'tirardi.

Soat roppa-rosa 09.33 ni ko'rsatgan ham ediki, xonaga Kendin kirib keldi. Hech narsa demasdan qo'lida qog'oz bilan kursiga o'tirdi. Har doimgidan ham ko'ra g'ayratli va shodon ko'rinar, hamma o'ylaganidek qo'rqadigan hech narsa yo'q edi.

- Salom, o'zining mukammal ekanidan bexabar yashayotgan aziz insonlar! Hozir sizga uzungina bir ro'yxatni o'qib beraman. Yaxshilab quloq soling. Savol beraman, - dedi kuchli tarixchilardek.

Hamma kulib yubordi. Kendin qo'lidagi qog'ozni o'qiy boshlaganda esa barcha hayratda qoldi... Bu yerga kasallik nomlarini eshitish uchun to'planganmidilar? Ro'yxatni oxirigacha o'qib bo'lgach, qog'ozni kursiga qo'ydi va boshini tik tutib jimgina tinglayotgan kasalxona xodimlariga murojaat qildi:

- Bu o'qiganlarim siz uchun nimani anglatyapti?

Tozalik xodimlaridan tashqari hamma javobni bilar, ammo Doktor Kendinning jiddiyati qarshisida so'zlashga jur'at topolmadilar.

- Kasallik nomi..., - dedi bir kishi.

- Tabriklayman. Juda zukkosiz!, - dedi Kendin istehzoli tabassum bilan.

- Bular davosi yo'q kasalliklar, - dedi o'rta qatorda o'tirgan ko'zoynakli shifokor. Gapga bosh hamshira qo'shildi:

- Bular tibbiy yechimi bo'lmagan kasalliklar,- deya ko'zoynakli doktorning gapini qo'llab-quvvatladi.

- Qoyil! Sizningcha, tibbiy yechimi bo'lmagan kasallik bo'lishi mumkinmi?, - so'radi Kendin. Xodimlar bu savolning javobi aslida ular o'ylagandek emasligini bilganlari uchun ham jimgina tinglashni ma'qul ko'rdilar.

- Tibbiyotda hal qilib bo'lmaydigan kasallikning o'zi yo'q. Bu insoniyat tarixi davomida to'qilgan eng katta yolg'ondir. Ba'zi istisnolarni hisobga olmaganda, shifokorlarning deyarli hammasi o'z layoqatsizligi, tamballigi va ish bilmasligini mana shu jumla bilan xaspo'shlaydi. "Shu kasallik ustida ishlayapman, ancha yo'lni bosib o'tdim. O'ylaymanki, manzilga yetish arafasidaman. Yaqin kelajakda shu kasallikka davo topaman" degan nechta shifokorni ko'rgansiz? Har bir sohada bo'lgani kabi tib dunyosi ham mana necha yuzyillardirki o'z xaloskorlarini kutmoqda. Xonimlar va janoblar, kimning nima ish qilgani yoki qanday yashagani meni mutlaqo qiziqtirmaydi. Kechirasiz-u, ammo bilganlaringizning bari yanglish!...

Marsda tiriklik alomatini ko'rgan fazogir kabi qarab turishardi Kendinga. Doktor Kendin so'zida davom etdi:

- Xaloskorni kutib o'tirish bizga yarashmaydi, chunki, biz bu yerda xaloskorni kutib o'tirgan bir vaqtda, boshqa yerda bir ayol hech qanday sababsiz farzandini yo'qotadi. Yoshgina go'dak otasidan yetim qoladi. Arqon sakrab yurgan mittigina qizaloqning onasini qish kunlarining birida sovuq tuproqqa qo'yadilar. Boshqa bir ayol esa eridan ayriladi. Yana bir kecha esa birov "Butun borlig'im - sensan" degan ayolini o'lim changaliga topshiradi...

Boshlar pastga egildi. Aybdorlik hissi daydi o'q kabi xona devorlaridan to'g'ri yuraklarga sanchilardi.

- Keyin cho'g' otashiga tushgan bag'irlar nola qiladi: "Koshki shifokor bo'lsaydim, bolaginam... Koshki sizni o'limdan asrab qolish uchun qo'limdan biror narsa kelsa edi, ona... Koshki sizning o'rningizda men bo'lsaydim, ota!..." deya hayqiradi chorasiz yuraklar. Shunday damlarda bir qancha inson farzandining shifokor bo'lishini xohlaydi! Hozir ham oramizda shu kabi farzandlar o'tiribdi.

Ha, chindan ham shunday. Xonadagi shifokorlarning ba'zilari Kendin aytib berganidek shifokor bo'lishgandi.

- Hozir ko'zlaringizni yuming va shunchaki, tafakkur qiling...

Xonadagilar birin-ketin ko'zlarini yumdilar.

- Iltimos, sen ham ko'zlaringni yum,- dedi Kendin yangi ish boshlagan amaliyotchining ko'zlarini yumaganini ko'rib. Hamma ko'zlarini yumgach, davom etdi:

- Faqat o'ylang, chuqur o'ylang! Boya sanab o'tgan hastaliklarimizning birontasi sizning eng sevgan insoningiz boshiga tushsa, nima qilardingiz? Sizga "Tibbiyot jihatidan imkonsiz" deyishyapti, "Suyganingiz o'ladi" deyishyapti... Nima qilardingiz? Nimalaringizdan voz kechardingiz? Sichqonga yengilgan chorasiz fil kabi tizzalaringiz uzra cho'kib, yig'lagan oningizni tasavvur eting!

Xonadagi ishchilarning yarimi Kendinni ko'z yoshi ichra tinglashardi.

- Va sevganingizni yo'qotgan, motam tutgan o'sha kunni tasavvur eting: u o'ldi, tibbiyot ojiz qoldi va siz suyganingizdan ayrildingiz! Ortiq uni hech ham ko'rmaysiz. Uning mayin qo'llaridan tutolmaysiz, uning ko'zlari endi hech qachon qaytib

porlamaydi... Uni yo'qotgan kuningiz. Tibbiyot ojiz qolgani uchun yo'qotdingiz...

Xonada yig'i ovozi eshitildi. Kendin biroz sukut saqladi. Tinglovchilar ko'zlarini ochdilar. So'ngra to'xtagan joyidan davom etdi.

- Sevganingizni ko'mib, uyga qaytdingiz. Bir necha oydan so'ng esa xabarlarda boshlovchi "Falonchi kasallikka davo topildi", deya xushxabar aytib turibdi. O'sha on nimalarni his qilardingiz? Eslaysizmi, tibbiyot ojiz edi. Xo'sh, unday bo'lsa, bu chorani qanday topdilar? Chora bor edi-yu, ammo tamballigi tufayli tibbiyot unga kechroq erishdimikin?. Shifokorlar biroz kam uxlab, ko'proq ishlaganda, biroz kamroq televizor ko'rganida, biroz idealist bo'lganida... Balki suyganingiz o'lmasdi, o'zingiz ham bolasini arslonga oldirib qo'ygan jayron kabi tizzalaringiz uzra yiqilmasdingiz, balki.

So'ngra Kendin bir qadam oldinga chiqdi. Kostyumining tugmalarini qadab:

- Xonimlar va janoblar! Sizlarni ishontirib aytamanki, shu onda yashash uchun tibbiyotga qarab qolgan, olayotgan har nafasini so'nggisi deya gumon qilayotgan millionlab inson bor dunyoda. Men buni ortiq qabul qilolmayman. Ular haqida o'ylasam, o'zim yutayotgan kisloroddan uyalaman. Qasam ichdim men! So'z berdim! Gippokratga emas, Doktor Kendin Sandinga so'z berdim! Tibbiyot kutayotgan o'sha qutqaruvchi menman!, - dedi.

Gapini tugatib ulgurmagan ham ediki, birdan xonada g'ala-g'ovur boshlanib ketdi. Kendin shu qadar ishonchli gapirardiki, biror kimsaning e'tiroz bildirishga majoli yo'q edi. Ovoz ohangi, qarashlari, so'zlarga urg'u berishi... Hammasi ajoyib edi. Bunga aql bovar qilmaydi: bu gaplar hammaga ta'sir qildi. Xonadagi g'ala-g'ovur birozdan so'ng olqishga aylanishi kutilayotgandek

edi. Ko'p o'tmay o'rtadagi ko'zoynakli shifokor o'rnidan turdi va yo'g'on ovozi bilan:

- Yo'q, o'sha qutqaruvchi menman!, - deya hayqirdi.

Aslida Kendin bunday bo'lishini kutmagan edi. U faqatgina yolg'iz o'zi katta inqilobni amalga oshirmoqchi ekanini bildirib qo'yib, o'rnak bo'lishni xohlagandi xolos, biroq shifokorlarning ko'zlaridagi uchqun uni yo'l boshchiga aylantirdi, hatto ko'zoynaklining yonida o'tirgan doktor xonim ham o'rnidan turdi va ko'rsatgich barmog'i bilan oq xalati ustidagi ismi yozilgan maxsus guvohnomaga ishora qilib:

- Yanglishyapsizlar, janoblar, o'sha qutqaruvchi menman!, - dedi... Xonadagi 33 shifokorning bari oyoqqa turib, bir ovozdan:

- O'sha qutqaruvchi menman, - deyishdi. Xonadagilar bu qutqaruvchilarni olqishlay boshladilar. Xonani gulduros qarsak ovozi qurshab oldi. Kimlardir yig'lar, yana kimlardir esa universitetni birinchilar qatorida bitirgan qiziga qaraganday g'urur bilan shifokorlarga boqardi. Hayajon va ishonch ila hamma oyoqqa turdi. Olqishlar hanuz davom etar, barcha birmabir doktorlarni tabriklay boshladi. Kendin ham bu 33 insonni tabriklagach, kursiga o'tirdi:

- Haa, dunyoning eng qadrli borliqlari. Endi boring va shu ro'yxatda nomi kelgan kasalliklarga duchor bo'lgan birortasini ko'rsangiz, unga so'z bering va 33 shifokorning xabarini yetkazing... "Kutgan qutqaruvchingiz keldi" deya ularni umidlandiring.

Zalda takror qarsak ovozi yangradi.

- Xonimlar va janoblar, endi meni qutqaruvchilarim bilan yolg'iz qoldirsangiz.

Shifokorlardan boshqa hamma o'z ishiga qaytdi. Ohista Kendinning yoniga keldi. Nigohlari bilan uni tabriklar, ammo negadir tabassumi siniq edi...

- Bugun meni qidirmading ham, sendan xafa bo'ldim..., - dedi sekingina. Kendin har tong kasalxonaga kelganida, birinchi bo'lib Ohistaning xonasiga kirib o'tardi.

- Ba'zan insonlar bilmasdan o'z haqqini, hatto huquqlarini qo'ldan boy beradi, Ohista!, - dedi Kendin. Qiz hayron qoldi. Uning nima demoqchi bo'lganini tushunmadi.

- Qanday qilib?, - so'radi. Kendin kulimsirab:

- Uzun hikoya... Hozir esa meni shifokorlarim bilan yolg'iz qoldir..., - dedi-yu, shifokorlari bilan majlisni boshlab yubordi.

Majlis besh soatga yaqin davom etdi. Kendin o'z nutqi bilan 33 shifokorning hayotini butkul o'zgartirib yubordi. Ularga imkonsizlikni rad etishni, kengroq fikr yuritishni o'rgatdi. Hisoblagich haqida gapirib berdi. Piramidalar sirini ochdi. Yuksak ong va saroy haqida tushuncha berdi. Da Vinchi haqida so'zladi. Doktor Kendin Sandin barcha shifokorlarni katta loyihalarga undadi.

O'sha kuni 33 shifokor muhim qaror qabul qildilar. Hanuz davosi topilmagan kasalliklarga qarshi, yana bundan ham muhimroq bo'lgan "tibbiyot jihatidan imkonsiz!" kasalligiga chora topishga ont ichishdi...

Avvalo, o'zlarini tanitadigan bir nom topishlari lozim edi, topdilar ham. Endilikda bu jamoaning o'z nomi bor, barcha ularni shu nom bilan taniydi ortiq: "Kendin's33". Bu tashkilotning asoschisi Doktor Kendin Sandin bo'lgani uchun ham harakatga uning nomi berildi.

So'ngra har bir shifokor Kendinning ro'yxatidagi o'z sohasiga muvofiq keladigan va davosini topishiga ishongan kasalliklarni daftariga qayd qilib oldi.

Umumiy bir maktub yozdilar. Rejalariga ko'ra bu xatni muayyan kasallikning chorasiga eng yaqin va shu yo'nalishdagi texnik imkoniyatlari eng rivojlangan kasalxona va laboratoriyalarga jo'natishlari kerak edi. Aslida bu maktubdan maqsad tegishli muassasadan eng so'nggi texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun izn olish edi. Bu ishlar dunyo miqyosida olib boriladi. Balki, doktorlarning har biri ishlash uchun dunyoning boshqa-boshqa davlatlariga ketishar, ammo buning unchalik ham ahamiyati yo'q. Ular endilikda o'zlarini insoniyat uchun fido qilishgan edi. Majlisda qabul qilingan qarorga ko'ra birozdan so'ng dunyoning to'rt tomoniga tarqaladigan bu shifokorlar 3 yildan so'ng takror bir yerga to'planishlari lozim. Bu vaqt oralig'ida doktorlarni tirikchilik tashvishidan qutqarish maqsadida Kendin mavjud xodimlar o'z ishini davom ettirishi sharti bilan kasalxonani tashkil etiladigan vaqfqa qo'shish orqali moddiy resurslar yaratadigan bo'ldi. Qo'lga kiritgan mablag' teng 33 ga bo'linadi, toki bu shifokorlar oilalari bilan 3 yil davomida qiynalmay yashashlariga yetsin. Shuningdek, boshqa qarorga ko'ra, shifokorlar o'zlari boradigan kasalxona yoki laboratoriyadan haq olmaydilar. Sababi, 3 yil davomida biron kasallikka davo topolmagan doktor och qoladi. Ular "Chorasizlik psixologiyasi"ni yaratish uchun ham shunday qilishdi. Kendin buni "Papyrus ta'siri" deb nomladi. Doktorlar buning ma'nosiga unchalik tushunishmagan bo'lsa-da, guruh rahbari bo'lgan Kendinga qat'iy ishonishardi.

Ilk majlisdan so'ng hamma o'zi boradigan kasalxonani surishtirish maqsadida xona-xonasiga tarqaldi. Kendin ham advokatni chaqirib, kasalxonaning hujjat ishlarini hal qilishga kirishib ketdi.

Ertasi kun ikkinchi majlis o'tkazildi. Har bir doktor o'zi tadqiqot olib boradigan kasalxonani topishga ulgurgan edi. Majlisda bular muhokama qilindi. Oxirida, barcha uchun munosib joy aniqlab olindi. Shuningdek, bu majlisda "Kendin's33" a'zosi bo'lgan hech bir shifokor 4 soatdan ortiq uxlamasligi borasida ham qaror qabul qilindi. Doktor Kendin guruh a'zolariga shu vaqtga qadar hech biri eshitmagan "Uyqu taqvimi" haqida ma'lumot berdi. Cho'ntagidan g'ijimlangan bir qog'ozni olib, nusxa ko'chirib, barcha shifokorlarga tarqatdi. Ularning har biri shaxsiy mezonlaridan kelib chiqqan holda jadvalni to'ldirib, darhol uni hayotlariga tatbiq etishga kirishdilar.

Bu 33 shifokor endilikda tashrif qog'ozlarini ham o'zgartirib, ismlari ostiga turli iboralar yozadigan bo'ldilar. Masalan, doktorning ismi tagidagi "Kardiolog" so'zi o'rniga "Barcha zamonlarning eng muvaffaqiyatli kardiologi" deb yozishardi. Bu fikr ham Kendindan chiqdi. Uning aytishiga ko'ra, agar shunday qilishsa, o'z vazifalarini ham imkoni boricha mukammal bajarishga harakat qilishardi.

Majlisdan so'ng har bir shifokor o'zi boradigan kasalxonaning mas'ul vakillariga quyidagi maktubni o'z sohasiga ko'ra to'g'irlab jo'natib yubordi.



*Salom!*

*Siz kutayotgan inson – menman! “Kardiomiopatiya” nomli hastalikka naq 3 yil o’tib mana shu bugun davo topish arafasida turibman. Buning uchun ilmiy salohiyatim yetarli bo’lishiga qaramay, izlanishlar olib borishim uchun yetarli texnik bazaga ega emasman. Shu sababdan dunyodagi eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo’lgan kasalxonangizdan foydalanishga majburman. Amalga oshiradigan ishlarim uchun sizdan hech qanday haq talab qilmayman. Butun insoniyat uchun bu imkonni menga berishingizga to’g’ri keladi. Aks holda shu ondan e’tiboran kardiomiopatiya kasalligidan vafot etgan har bir bemor uchun xalqaro sudda sizlarga qarshi da’vo qo’zg’atishga majbur bo’laman. Siz agar ba’zi bir hastaliklarga davo topish tibbiy jihatdan imkonsiz ekaniga ishonsangiz, maktubimni o’qir ekan, so’nggi gapim huquqiy jihatdan imkonsiz ekanini o’ylashingiz mumkin. Bunga hayron qolmadim. Aytgan so’zlarim sizda bir tahdid singari fikr uyg’otgan bo’lsa, to’g’ri o’ylabsiz, haqiqatda shunday. Sizlarga insonlarning ahmoqona hastaliklardan o’lib ketmasliklari uchun “Kendin’s33” jamoasi nomidan tahdid qilyapman.*

*Zamondan ortda qolmasligingizni tilab qolaman...*

*Eslatma: Men bilan birgalikda ish olib borishni sabrsizlik bilan kutayotganingizni bilaman. Ammo, bu yerda bitirishim kerak bo’lgan bir qancha muhim ishlarim bor, shu sabab bir haftasiz kela olmayman.*

*Doktor Kayra Zenden*

*Barcha zamonlarning eng muvaffaqiyatli kardiologi*

Maktublar jo'natilgandan so'ng bir necha kun ichida ularning ko'pidan ijobiy javob keldi. Javob kelmaganlariga esa ikkinchi bir maktub yuborildi:

*Salom!*

*Guruhimizdan bo'lgan shifokor do'stimning sizga yuborgan maktubiga ijobiy yoki salbiy bo'lsin, biron javob ololmadik. Sizga quyidagi faylda boshqa bemorlarning holati, bizlarga nisbatan ijobiy yondashuvi hamda xatlarimizga kelgan javoblarni yuboryapman. Agar siz bizga mavzu bilan aloqador biror javob bermas ekansiz, sizga qarshi da'vo ochish bilan bir qatorda, "Kendin's33" maqsadiga erishgan kun siz bilan uzoq tushuntirish ishlarini olib borishimizga to'g'ri keladi.*

*Qudratimizga yengil baho bermasligingizni tavsiya etaman... Ishonchim komilki, siz quyosh kabi nur sohadigan marvaridni ko'rmagansiz.*

*Zamondan ortda qolmasligingizni tilab qolaman...*

*Doktor Kendin Sandin*

*O'zini tanigan inson*

Bu ikkinchi maktubdan so'ng boshqa kasalxonalar harakatga tushib qolishdi va kutilgan ijobiy javoblar olindi. Natijada, 33 shifokor o'zlari istagan tashkilotlarda tadqiqotlar o'tkazish imkonini qo'lga kiritdilar. Aytgandek, "Kendin's33" jamoasi shifokorlari o'zlari boradigan kasalxonada hali ish boshlamay turib mashhur bo'lishning uddasidan chiqdilar.

Shunday qilib, "Kendin's33" shifokorlari butun dunyoga tarqaldi. Ular shu onda kechalarni kunduzlarga ulab, insoniyot nomidan tibbiyot imkonsizliklarini yo'q etmoqdalar. Agar

qayerdadir “Ixtirochi shifokor” yoki “Falon hastalikka davo topgan qobiliyatli doktor” deya ta’rif etilgan biron kimsani ko’rsangiz, u, shubhasiz, “Kendin’s33” ga mansubdir.

## **Kendin’s33**

Avvalida 33 kishi bilan boshlangan bu harakatga keyinchalik yuzlab, hattoki, minglab doktorlar qo’shilishdi. “Kendin’s33” jamoasi soni kun sayin ortib bormoqda.

## **Doktor Kendin Sandin**

“Kendin’s33” ning asoschisi Doktor Kendin Sandin ustiga “Faqat ahmoqlargina 8 soat uxlaydi” deya yozilgan, ulkan marvaridni eslatadigan virtual sayohat markazini tashkil etdi. Har yili dunyoning turli burchaklaridan yuz minglab insonlar bu maxsus markazga kelib, “Jin bilan dunyo sayohati” nomli xayoliy safarga chiqadilar va hayotlarini tubdan o’zgartiradilar.

Doktor Kendin Sandin o’zi bilan bo’lgan intervyu so’ngida gazeta muxbirining “Xulosa o’rnida obunachilarimizga nima degan bo’lardingiz, Janob Sandin?” degan savoliga kislorod haqida ba’zi narsalarni aytib, javob berdi:

- Agar bir kun, siz ko’ra olmaydigan kimdir qulog’ingizga “Bilasanmi, do’stim? Men endi sening barcha siringni bilaman. Men ham mukammalman!” deya pichirlasa, faqat o’sha ondagina olgan nafasingiz haqqini ado qilganingizga amin bo’lishingiz mumkin. Bu sirli ovozni o’limingizdan avval eshitishga harakat qiling. Ammo bu sirni aslo hech kimsaga aytmang. Hatto bir kun qarshingizga Jin chiqsa ham...

Doktor Kendin Sandinning shaxsiy hayotida yordamchisi Ohistaga uylanishidan tashqari aytarli o'zgarish sodir bo'lmadi. Janob va Xonim Sandinlar cheksizlikka tomon uzangan zinalari bo'lgan, qizil tuproqdan qurilgan, devorlarida "Dono Kendin" imzosi bilan Da Vinchining ham hasadini keltiradigan go'zal suratlari bo'lgan saroyda yashamoqdalar. Qachondir fursat topsang, yana, qovurilgan kiyik go'shtini yoqtirsang, bir kirib o't!

## **Jin**

O'sha kundan beri Jinni biron kimsa ko'rmadi, ammo men uni har qancha ko'rpalari ostiga yashirinsalarda, ko'rgan insonlar borligiga ishonchim komil!

**Quyosh o'ylaganing kabi uzoqda emas,  
“Koshki”larsiz yasha, vassalom!**

# Mundarija:

1-bob. Uyg'onish.....	5
2-bob. Dunyoning rangini o'zgartirgan inson.....	16
3-bob. Uyg'otgichning kashf etilishi.....	21
4-bob. Moviy sevgilisi ila kunda 2 soat.....	24
5-bob. Kichik fonusning ichidagi buyuk inson.....	27
6-bob. Kim edi u toshni quduqqa otgan ahmoq?.....	30
7-bob. Faqatgina kam uxlashning o'zi yetsaydi, dunyoni chumolilar boshqarardi.....	37
8-bob. Uyqu muhtashamdir.....	41
9-bob. Mixchi va bolg'achi.....	44
10-bob. Oq otli va uning qilichi.....	48
11-bob. Uzunning taqdiri.....	51
12-bob. Tomchiga jo bo'lgan okean.....	55
13-bob. Papirus ta'siri.....	90
14-bob. Bilgan hamma narsang yanglish.....	99
15-bob. Uzun bir kecha.....	109
16-bob. O'zaro kelishuv.....	114
17-bob. Ko'hi qofning ortida.....	140
18-bob. Ikki olim va chumoli.....	176
19-bob. Kendin's33.....	182